


Murotali Latipov



IS'HOQXON IBRAT ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Murotali Latipov

**IS'HOQXON IBRAT
ASARLARINING TIL
XUSUSIYATLARI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UK: 894.375
KBK: 83.3(50ʻz)
L 36

Latipov Murotali.

Isʻhoqxon Ibrat asarlarining til xususiyatlari [Matn]: monografiya /
M. Latipov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 134 b.

Mazkur monografiyada Isʻhoqxon toʻra Ibratning lingvistik qarashlari, nazmiy, nasriy asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari oʻz ifodasini topgan. Unda XX asrning 20-30-yillaridagi lisoniy jarayon, oʻzbek tilshunoslik ilmda Isʻhoqxon Ibrat ilmiy-ijodiy merosining oʻrganilishi, asarlari leksikasining tarxiy- etimologik aspekti, derivatsion va morfologik xususiyatlari yoritilgan. Adib asarlaridagi lugʻaviy, morfologik birliklar oʻrni bilan hozirgi oʻzbek adabiy tiliga qiyosan oʻrganilgan, ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlar belgilangan.

Monografiya umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litsey oʻqituvchilari va oʻquvchilari, oliy oʻquv yurtlari talaba va magistr lari, umuman, “Badiiy adabiyot tili va uslubi” masalalari bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar uchun moʻljallangan.

Masʼul muharrir:

Sulton Normamatov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor

Fazliddin Sharipov – filologiya fanlari doktori, professor

Guliston davlat universiteti Kengashining 2024-yil 29-oktabrdagi 3-sonli qaroriga asosan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-06-263-6

© Latipov M.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
O‘ZBEK FILOLOGIYASIDA IS‘HOQXON TO‘RA IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O‘RGANILISHI.....	7
Is‘hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosining tadqiqi.....	7
Is‘hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosi tilshunoslik obyekti sifatida	18
Is‘hoqxon to‘ra Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy va maishiy holatining aks etishi.....	29
IBRAT ASARLARI LEKSIKASINING TARIXIY- ETIMOLOGIK ASPEKTI VA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	41
Ibrat asarlari leksikasida o‘z qatlam so‘zlari va uning mavzuiy tasnifi	41
Ibrat asarlari leksikasida o‘zlashgan va o‘zga til elementlari	57
Ibrat asarlarida qo‘llangan so‘zlarning leksik-semantik munosabatlari tavsifi.....	70
IBRAT ASARLARI TILINING DERIVATSION VA MORFOLOGIK ASPEKTI	84
Ibrat asarlarida qo‘llangan yasama so‘zlarning umumiy xususiyatlari.....	84
Ibrat asarlarida qo‘llangan uzual va okkazional yasama so‘zlarning derivatsion xususiyatlari	94
Ibrat asarlari tilining ayrim morfologik xususiyatlari	108
UMUMIY XULOSALAR.....	120
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	123

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tili tarixi, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi, lug'at boyligi va uning tarixiy o'zgarishlari, taraqqiyot omillari, ularga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri masalalarini haqqoniy baholash imkoniyati yuzaga keldi. Xalqning millat sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan ulug' ijodkorlar yaratgan asarlarning til xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, shu asosda chiqarilgan muhim ilmiy-nazariy xulosalar o'sha davr til tizimini, milliy tilning shu bosqichidagi amaliy holatini, lug'aviy boyligi, grammatik tuzilishi, tasviriy ifoda vositalarini, adabiy tilning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy asosda tushunish va yoritishda ishonchli manba hisoblanadi. Bu jihatdan jadid millatparvarlari asarlarining tili alohida e'tibor va e'tirofga loyiqdir. Zero, "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz!".

Bu esa o'zbek tilini har tomonlama rivojlantirish, o'zbek tilining leksikasi, grammatikasi, uslubiyati masalalariga oid lingvistik hodisalarni keng ko'lamda, sog'lom mantiq va ilmiy asoslarda tadqiq qilishni talab etadi. Ayniqsa, o'zbek tilining muayyan davrdagi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan o'zbek jadidlari va ziyolilari, ijodkorlarining ilmiy, badiiy, publitsistik merosini lingvistik aspektida tadqiq qilish, leksik birliklar, grammatik vositalarning til qurilishi va til taraqqiyotidagi o'rni, vazifasi va ahamiyatini aniqlash, leksik-grammatik o'zgarishlarni baholash muhim vazifalar sanaladi. Xususan, o'zbek xalqi tarixi, madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan Is'hoqxon Ibrat ilmiy-ijodiy merosining, asarlari tilining tadqiq qilinishi ham bu yo'nalishda dolzarblik kasb etadi.

Tilning, uning lug'aviy, morfemik boyligining lisoniy imkoniyat sifatida har bir ijodkor asarida o'ziga xos tarzda ma'noviy-grammatik qo'llanishiga doir, amaliy-pragmatik ishlov berilgan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табрик сўзи – Тошкент, 2023 йил 6 март // <https://president.uz/uz/lists/view/6007>

holda namoyon bo'lishiga oid, voqelanishni aks ettiruvchi lisoniy-nutqiy xususiyatlariga doir tadqiqotlar jahon va o'zbek tilshunosligida keng ko'lamda izchil amalga oshirilgan, til birliklarining uslubiy, badiiy imkoniyatlari atroflicha tadqiq qilingan.

O'zbek tilshunosligida til imkoniyatlarining turli nutq, uslub talabi bilan bog'liq xususiyatlari ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilib kelinmoqda.

XX asrning birinchi choragidagi lisoniy jarayon, davr adabiy tili leksikasi masalalari, o'zbek tili grammatikasiga oid qarashlarning qiyosiy tahlili, shu jumladan, o'zbek jadid ma'rifatparvarlarining o'zbek milliy tili taraqqiyotidagi xizmati, asarlarining lisoniy qiymati, bu davrdagi lingvistik munozaralarning nazariy ahamiyati kabi masalalar S.Normamatov, Sh.Bobomurodova, Q.Qodirov, Y.Sayidov, N.Yangiboyevalarning ilmiy tadqiqotlarida¹ o'z ifodasini topgan. Ko'pqirrali ijodkor Is'hoqxon to'ra Ibratning ilmiy-ijodiy merosi ham adabiyotshunoslarimiz, tarixchilarimiz tomonidan o'rganilib², jiddiy natija va xulosalarga erishilgan. Biroq Ibrat ijodiga mansub tarixiy, badiiy, publitsistik asarlarning leksik-grammatik xususiyatlari hozirgacha alohida tadqiqot obyekti sifatida maxsus tekshirilmagan. Bunday tadqiqotning amalga oshirilishi esa o'zbek tilining XX asr boshlarida yuz bergan leksik-morfologik

¹ Bobomurodova Sh. Ўзбек тилишунослиги ривожида Ўзбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Қодиров Қ. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиши тарихидан (20-йиллар ўзбек тилишунослиги материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Сайидов Е. Жаҳид бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилишунослиги жараси ("Маориф ва ўқитғучи" журнали материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019; Нормаматов С. Ўзбек дугаччилигининг шаклланиши ва ривожланишида жаҳид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2020.

² Долимов У. Ўзбек маърифатпарвар шоири Ибрatнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1971; Ибрat, Ажний, Сўфизода. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999; Долимов У. Исҳоқхон Ибрat – Тошкент: Шарқ, 1994; Исҳоқхон Ибрat. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов. – Тошкент: Маънавият, 2005; Исҳоқхон Ибрat Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Х.Бобоевков, М.Ҳасаний – Тошкент: Камалак, 1991; Самадов Ю. Мавлоно Ибрat воқисалари. – Наманган, 1999; Болтабоева О. XX аср бoshларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намоёндалари, анъаналари, янгилигини. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019; Афокова Н. Жаҳид лирикасида мусаммат. – Тошкент: Фан, 2005; Абдуллаева М. Исҳоқхон Ибрat – сериқира ижод соҳиби. – Тошкент: Наврўз, 2018; Йўлдошев И., Умматов Р. Ибрat илларидан. – Наманган, 2014; Маҳмуд Л. Исҳоқхон Ибрat яратган бог. – Наманган, 2018.

tizimidagi o'zgarishlar va ularning omillari, semantik-funksional, grammatik xususiyatlari, til birliklarining uslubiy ma'no-vazifalarini o'sha davr asarlari tili asosida yoritishda, jadidchilik harakati davrining ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy manzarasini yanada xolis baholash, tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, jadid ma'rifatparvarlarining yirik nomoyandasi hisoblangan Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlarining leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini monografik planda o'rganilishi davr adabiy tili va tilshunosligiga oid mavjud nazariy bilimlarni muayyan darajada boyishiga xizmat qiladi.

Ushbu monografiyada quyidagi masalalarni keng o'quvchilar ommasiga yetkazish ko'zda tutilgan:

Ibrat ijodiga mansub asarlarning filologik tadqiqini umumlashtirish, adib asarlarining o'zbek tilshunosligidagi o'rni va ahamiyatini baholash;

Ibrat asarlarining o'zbek tili leksikasi taraqqiyotidagi o'rnini belgilash, publitsistik asarlaridagi ijtimoiy-maishiy leksikani tahlil qilish;

Is'hoqxon Ibratning so'z tanlash va qo'llash mahorati, uslubini o'rganish;

ijodkor asarlari leksikasi tarkibini kuzatish, o'z va o'zlashgan qatlam birliklaridan foydalanish munosabatini tahlil qilish, asniqlash va tavsiflash;

Ibratning badiiy, tarixiy, publitsistik asarlarida qo'llangan yasama so'zlarning derivatsion, morfologik xususiyatlarini, morfologik vositalarning grammatik strukturasi tadqiq qilish.

Monografiyaga obyekt sifatida Is'hoqxon Ibratning Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan XX asr boshlarida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalari, 1901-yil Toshkentda nashr etilgan "Lug'oti sitta alsina" (eski o'zbek yozuvida) leksikografik asari hamda 2020-yil "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Tanlangan asarlar"i to'plamiga kiritilgan badiiy, tarixiy va publitsistik asarlari olindi.

O'ZBEK FILOLOGIYASIDA IS'HOQXON TO'RA IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O'RGANILISHI

Is'hoqxon to'ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosining tadqiqi

Ilmiy yangiliklar barcha fan sohalarida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Jumladan, mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy merosiga bugungi kun talabi bilan qaralganda, shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlar hozirgilaridan tadqiq obyekti, usuli, ilmiy yondashuv nuqtayi nazaridan farq qiladi. Provardida har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy masala va muammolari o'sha davr ilm-fani oldiga o'zining dolzarb vazifalarini qo'yadi.

XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarida jiddiy o'zgarish, yangilanishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lgan fan, ta'lim, adabiyot va san'at sohalarida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda yangicha qarash, yangicha tafakkur g'oyalarini ilgari surgan, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fani, ta'limi, milliy tili va adabiyoti fidoyilari bo'lgan jadid namoyondalarining xizmatlari alohida e'tibor, e'tirofga loyiqdir. Binobarin, ularning hayot-faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini har tomonlama, xususan, filologik fan sohalarida o'rganish bizning jadid ma'rifatparvarlari oldidagi ham qarz, ham farzimizdir. Shunga binoan, biz ushbu tadqiqotimizda jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Is'hoqxon Ibrat haqidagi, uning ilmiy-ijodiy merosi, badiiy asarlari tili, xususan, ularning leksik-grammatik xususiyatlari to'g'risidagi o'z ilmiy kuzatishlarimizni bayon qilamiz. Manbalarda ko'rsatilishicha, mutafakkir XIX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan 90-yillarning o'rtalarigacha avval sharq mamlakatlari, keyinroq esa Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo'ldi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qildi, Bombey va Kalkuttada yashadi. Is'hoqxon u yerlarda ko'p ishlatiladigan arab, fors, hind va ingliz tillarini mukammal o'rganib, 1896-yilda o'z vataniga qaytib keldi. 1901-

yilda uning “Lug’ati sitta al-sina”¹ asari bosmadan chiqdi va jadid maktablarida sharq va rus tillarini o’rganishda birdan bir qo’llanma sifatida foydalanib kelindi. Adib 1912-yilda yozuvlar tarixiga bag’ishlangan “Jome’ ul-xutut”² asarini yaratdi va o’z matbaasi “Matbaayi Is’hoqiya”da bosmadan chiqardi. Uning olib borgan izlanishlari o’z xalqining ilmi, ma’rifatli bo’lishini chin qalbdan istagan eng xayrli ishlar sirasiga kirardi. Adib keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asar yozdi hamda ijodiy faoliyat yillari majmuyi bo’lmish “Devoni Ibrat” she’rlar to’plamini tuzdi. Tarixshunoslikka oid “Tarixi Farg’ona”³, “Tarixi madaniyat”⁴ va “Mezon uz-zamon”⁵ ilmiy asarlari mutafakkirning ijodiy merosi xazinasidan o’rin oldi.

Xalqimiz tarixi va madaniyati taraqqiyotida muhim davr hisoblangan XX asr boshlari davri ijtimoiy-madaniy hodisalarga keng miqyosda e’tibor qaratish, zamon yangiliklarini targ’ib va tashviq qilish, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash, milliy manfaatlarimizni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o’z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o’z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”⁶.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida jamiyatimiz ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida salmoqli o’rin tutgan ijodkorlarning ilmiy, adabiy-tarixiy asarlarini o’rganish va o’zlashtirish, ilmiy tadqiqini amalga oshirish ijtimoiy-gumanitar fan sohasi mutaxassislarining eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Zero, ularning shaxsiyati, yaratgan asarlarining badiiy, lisoniy qiymatiga shu vaqtga qadar sobiq ittifoq mafkurasi tazyiqi ta’sirida fan olamida munosib baho berilmadi. Ana shunday ijodkorlar qatoriga

¹ Исҳоқхон Иброт. Луготи ситта ал-сина (аски ўзбек ёзувида). – Тошкент: Илмий типографияси 1901. – 53 б.

² Исҳоқхон Иброт. Жомеъ ул-хутут. – Наманган. Матбааи Исҳоқия, 1912. – 132 б.

³ Исҳоқхон Иброт. Тарихи Фарғона. Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди, инв. № 11080.

⁴ Исҳоқхон Иброт. Тарихи маданият. ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма, инв. № 10117.

⁵ Исҳоқхон тўра ибн Жунайдуллох хўжа. Мезон уз-замон. – Тошкент – Токио, 2001. – 25 б.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz.

ma'rifatparvar jadid adibi Is'hoqxon to'ra Ibratni ham kiritish mumkin. Bugungi davr nazari bilan qaraydigan bo'lsak, adibning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, yaratgan asarlari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, pedagogika fan sohalari uchun qimmatli materiallar bera oladi. Jumladan, Is'hoqxon to'ra Ibrat tomonidan yaratilgan ilmiy, adabiy, publitsistik asarlarda lotin, yunon, xitoy, hind, arab, kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan, ilmiy-tarixiy asarlarida esa Qo'qon xonligining vujudga kelishidan to XX asr 30-yillarigacha bo'lgan davr o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Ibratning "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalari yozgan maqolalarining jamiyat hayoti hamda rivojida tutgan o'rni va ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. Haqiqatan, ko'pqirrali ijodkor bo'lgan Ibratning turli soha muammo va masalalari talqinini o'zida aks ettirgan asarlari jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy hayotida juda muhim o'rin tutadi. Yurtboshimiz tomonidan Is'hoqxon Ibratning milliy til, uning ravnaqi va istiqboli borasidagi vatanparvarlik faoliyati, amalga oshirgan ilmiy izlanishlari alohida ta'kidlab o'tilgani bejiz emas: "XX asr boshida olti tili – o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan Is'hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so'zlarini eslatmoqchiman: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'rtiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdur"¹. Bu kabi teran fikrlar bugungi kunda milliy tilimizni asrash, uni ravnaqi yo'lidagi harakatlarimizda dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Ibrat Namangan adabiy muhitining yorqin vakili sifatida nafaqat o'zbek, balki butun turkiy olam jamiyati badiiy-estetik tafakkuriga ta'sir ko'rsata olgan ulug' shaxslar qatoridan mustahkam o'rin egallaydi. Bu borada tadqiqotchi O.Boltaboyevaning fikrlari ham e'tiborga molik: "XX asr boshlarida Namanganda qaynoq adabiy jarayon kechgani ma'lum. Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda, Dog'iy, Suhayliy kabi shoirlar ijodini o'z ichiga olgan bu

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзингimiz ва мустақил давлатчилигimiz тimsoli. (Ўзбек тилига давлат тили макоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // "Халқ сўзи" газетаси. – Тошкент, 2019. -№ 218.

hodisani adabiy harakatchilik deb atash maqsadga muvofiq. Negaki bu jarayon nainki Namangan hududida, butun Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy uygʻonishni boshlab bergan jadidchilik harakati va uning badiiy-estetik tafakkurga koʻrsatgan taʼsiri bilan chambarchas bogʻliqdir¹.

Ibrat maʼrifatparvar hamda mutafakkir shaxs sifatida dunyoda mavjud koʻplab ilmlarni, maʼnaviy-maʼrifiy kashfiyotlarni nuqtadonlik bilan qabul qilgan. Maʼlumki, Ibrat yashagan oʻsha davrda yangi maktablarning jamiyat taraqqiyotiga kirib kelishi oʻzbek oʻquvchilariga qiyinchilik tugʻdiradi. Buni inobatga olgan poliglot olim olti tili: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sarcha (oʻzbekcha) va ruscha soʻzlarni oʻz ichiga olgan “Lugʻoti sitta al-sina” lugʻatini yaratadi. Ayon boʻlyaptiki, milliy uygʻonish davri jadidiya taʼlimi oʻsha davrdayoq xorijiy tillarni bilmoqlikka taraqqiyot omili sifatida alohida eʼtibor qaratgan. Jadidlar tashkil qilgan maktabda aynan ushbu kitob asosiy darsliklardan biri sifatida foydalanilgan. Buni qarangki, oʻtgan asrimiz boshlarida xalqni millatparvarlik, maʼrifatparvarlik ruhida tarbiyalash, maorif va madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini yuksaltirish masalasi Namangan adabiy harakatchiligi vakillari faoliyati va ijodining ham bosh masalasi boʻlgan. Ularning ilmiy, tarixiy, badiiy va publitsistik asarlarida millat yoshlarini yurt, millatga sadoqat, fidoyilik, ilm-maʼrifatga muhabbat ruhida tarbiyalash gʻoyasi va masalasi yetakchilik qiladi. Ularni ilmiy oʻrganish munosabati bilan tadqiqotchi O.Boltaboyeva tomonidan XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari, xususan, Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, Soʻfizoda, Dogʻiy, Suhayliyning adabiy merosiga oid manbalarni kuzatish, ularning oʻzbek adabiyoti tarixi va taraqqiyotida tutgan oʻrnini belgilash, ijodidagi anʼana va yangilanish tamoyillari, mavzuiy masalalarni aniqlash maqsadiga qaratilgan tadqiqot amalga oshirilgan². Ushbu tadqiqot ishida Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalaridan biri sifatida

¹ Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik namoyandalari, ashanalari, yangilanishi. Filol. fan. bʻyicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – B. 13.

² Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik namoyandalari, ashanalari, yangilanishi. Filol. fan. bʻyicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 145 b.

Ibratning adabiy merosi ham tadqiq qilinadi. Ibratning o'zi tomonidan qayd qilinganidek¹, u o'ttiz yillik badiiy-nazmiy ijodi davomida yaratgan she'riy asarlari "Devoni Ibrat" nomli she'rlar to'plamidan o'rin olgan. Ta'kidlash joizki, Is'hoqxon Ibrat adabiy merosining mavzu ko'lami o'sha davr ijodkorlari adabiy merosiga nisbatan ancha keng va rang-barangdir.

E'tibor qilinsa, Ibratning barcha asarlariga ma'rifiylik xosligi ko'zga tashlanadi. Afsuski, shunday asarlar sirasida keltirilgan "Devoni Ibrat", "Tazkirai Suvaydo", "Tarjimayi holim", "Sayrul jibol", "Tarixi hurriyat", "Qo'rboshilar zamoni" kabi asarlari taqdiri noma'lumligicha qolmoqda. Shuningdek, "Jand shahri xususinda", "Namanganda qozilar saylovi" nomli maqolalari, "Voqeai zilzilai Andijon" nomli musaddas, "Tarixi hammom", "O'lursan", "Qoziyi qotil" g'azallarni ham Ibrat ijodiy merosi tarkibida qayd qilib o'tish maqsadga muvofiq. Uning ayrim she'rlari 1909-yil Oxunzoda Abdulrauf Shahidiy muharrirligi ostida o'zining "Is'hoqiya bosmaxonasi"da "Ilmi Ibrat" nomi bilan chop etilganligi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud².

Ibrat ijodiga mansub adabiy asarlarning mavzu doirasi keng. Xususan, she'riy asarlarida badiiy, axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy masalalar talqini o'z aksini topgan. Ibratning shoirona tashbehtar, poetik tasvir hosil qilish, badiiy san'at namunalarini mohirona yaratish, so'zning badiiy imkoniyatlaridan unumli foydalana olish mahorati uning "O'tar" radifli g'azali tahlili misolida ham kuzatilgan³. Shoir g'azallarida o'zbek tili lisoniy imkoniyatlarini badiiy voqelantirishda mumtoz adabiyotimiz an'analari munosib ravishda davom ettiradi, g'azal janrida nafaqat yor, go'zallik, ishq-muhabbat mavzusini, balki ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy masala va mavzular talqinini maromiga yetkazib ifodalay olgan.

Shu sababli Ibratning adabiy merosi orqali nafaqat davr va jamiyat masalalarining badiiy, tarixiy, ijtimoiy talqini, balki o'sha davr o'zbek tilining leksik-grammatik, uslubiy xususiyatlarini, fikr ifodalashning davr tiliga xos lisoniy-nutqiy qurilmalari, ifoda va

¹ Исҳоқхон Ибраг. Тарихи маданият. ЎзРФА ШИ. Кўлзма Иш. № 10117. – Б. 139.

² Болтабоева О. XX аср бонлариди Наманганда адабий харакатчилик: намояндалари, анъаналари, янгиланиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 92-93.

³ Shu manba. – Б. 58-59.

vositalari yuzasidan ham muayyan ma'lumotga ega bo'lamiz. Jumladan:

*Madrasalar ichinda ko'b fitna birla sho'rish,
Har kunda o'n xil urush, oq salla non bo'lubdur.
Bermas zakot boylar, sandiqqa fulni joylar,
Chiptau necha toylar, so'z amirkon bo'lubdur.*

*Bopanda yo duradgor yoki barcha ustolar,
Ishin bitirmas aslo, yolg'onga kon bo'lubdur.
Ko'b qozixonalarda ushbu zamonalarda
Ishdin zakunchilar ko'b, emdi yamon bo'lubdur.¹*

*Choyi nondur har kuni nonushtamiz,
Tolibi qaymoqdurmiz uch kishi.
Biri ovsar, bir tentak, lo'ndamiz,
Aqldin kamroqdurmiz uch kishi (TA, 53-bet).*

Shoir ijodiga mansub ushbu she'riy parchalarda qo'llangan eski o'zbek adabiy tiliga xos fonetik (*ful, usto, yamon, ko'b*), morfologik (*ichinda, birla, emdi, -ub, -dur, -din*), leksik (*madrasa, sho'rish, zakot, chipta, toy, amirkon, bopanda, qozixona, zakunchi, tentak* kabilar) hodisalar o'zining fonetik tabiati, qo'llanish doirasi, davri, hududi, uslubi, badiiy imkoniyatlari nuqtayi nazaridan bugungi zamon o'zbek adabiy tili va nutqiga doir me'yorlarga mos bo'lmasa-da, o'sha davr tili va nutqi, uslubiga xos lingvistik hodisa hamda xususiyatlar sifatida o'zining muhim o'rni va vazifasiga egadir. Ibrat asarlarining o'ziga xosligi hamda yutug'i ularning sodda va tushunarli tarzda, o'sha davr tili me'yorlariga mos holda yaratilganligi bilan belgilanadi.

Ibratning o'sha davr bilan bog'liq dolzarb masalalar talqiniga bag'ishlangan asarlari nafaqat mavzuiy, balki janriy jihatdan ham rang-baranglik kasb etadi. Bu holat davr adabiy-madaniy an'analari, fikr ifodalashning turli uslub va shakllari bilan bog'liq. Shunga ko'ra, Ibrat asarlarining tarixshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, jurnalistik aspektlardagi tadqiqi jamiyatimiz

¹ Исҳоқхон Иброт. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У. Долимов, Н. Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020. – Б.51. Keyingi misollar ham shu manbadan olindi, TA qisqartma shaklda sahifasi ko'rsatildi.

hayotida ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy jihatdan muhim bo'lgan natijalarni taqdim qilishi shubhasiz.

Ko'pqirrali va sermahsul ijodkor Is'hoqxon Ibratning asarlari qo'lyozma va nashr holidagi manbalar shaklida, xususan, "Lug'ot-i sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") lug'ati; husnixat, xattotlik, yozuv masalalariga bag'ishlangan "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" asari, Lutfulloh Nasafiydan qilgan "Fihi Kaydoniy nazmi" tarjimai, o'sha davr ijtimoiy voqeligining badiiy talqini hisoblangan ayrim she'rlari jamlangan "Ilmi Ibrat" asarining toshbosma nusxasi; tarixga oid "Jome' ul-xutut", "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" risolalari; ma'rifiy-publitsistik janrdagi "Mezon uz-zamon" asari nusxalari respublikamizdagi kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Ibratning o'tgan asr birinchi choragi davri vaqtli matbuotida e'lon qilingan 30 dan ortiq tarixiy va ijtimoiy-siyosiy masalalar mavzusiga bag'ishlangan publitsistik asarlari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanadi.

Ibrat ijodi bilan bog'liq ijobiy hal etilishi zarur bo'lgan masalalar ham bor. XX asr boshlaridagi Namangan adabiy harakatchiligining turli masalalari tadqiq qilingan manbaga ko'ra, Is'hoqxon Ibratning "Turkiston viloyatining gazetasi"da chop etilgan yana bir necha maqola va she'rlari hali-hanuz keng jamoatchilikka e'lon qilinmagan. Xususan, "Voqea-i zilzilai Andijon" musaddasi, "Tarixi hammom" g'azali, Amir Temur imoratlarini ta'mirlashga bag'ishlangan "Redaksiyaga xat", madrasalar qurilishiga oid fikr-mulohazasi aks etgan Namangandagi "Mulla Qirg'iz" madrasasi qurilishi haqidagi "Namanganda yangi madrasa", 1913-yil Namangandan Toshkentga poyezdda borishida hamroh bo'lgan bir yo'lovchi bilan turli bid'atlar va ro'znomalar haqidagi suhbatlari aks etgan "Namangandan" deb nomlangan maqolalari hali joriy imlodagi chop etilmagan¹.

Yuqorida qayd qilingan Ibrat ijodiga mansub asarlar uning jamiyat ijtimoiy-madaniy, siyosiy hayotidagi faol shaxs sifatidagi o'rnini, ilmiy-ijodiy merosining ahamiyat darajasini ko'rsatuvchi manba va omillar sanaladi. Is'hoqxon Ibrat mamlakat taraqqiyoti,

¹ Болтабоева О. XX аср башларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намоёндалари, аъёндалари, янгилаштири: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) . дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 25.

xalq manfaati, madaniyati va ma'rifati yo'lida sidqidildan, fidokorona xizmat qildi. Uning ijodiy merosida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asar, "Devoni Ibrat" she'rlar to'plami mavjud, ular bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama o'rganilmoqda. Bizning ishimiz ham ana shunday tadqiqotlardan biridir.

Ibratning Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar, xususan, Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Xudoyorxon, Amir Nasrullo, Muhammad Alixon kabi xon va beklarning hayoti, faoliyati, qipchoq qirg'ini voqealari, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi kabi yurtimiz tarixi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar, ularga muallifning munosabati bayon qilingan "Tarixi Farg'ona"¹ asari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, uning tarixshunoslikka oid "Tarixi madaniyat", "Mezon uz-zamon" asarlari ham saqlangan. Ibrat ushbu asarlarini rus va Yevropa sharqshunoslari, Sharq tarixchilari tomonidan yaratilgan ilmiy-tarixiy asar va manbalarga tayangan, asoslangan holda yaratdi. Muallifning tarixni haqqoniy yoritishda tarixiy voqea-hodisalarni xolis baholash tamoyiliga to'la amal qilganligini uning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaroiy bo'lub, jo'g'rofiy, madaniy yoki sanoiy bo'lmay, faqat xonlarning urushlari birla ado qiladurlar, men bu tariximda mubolag'aga oshurub, maqtab va aqlning kosasiga sig'maydurgan so'zlarni olmay, ba'zi xurofiy so'zlarni yozmay, to'g'ri va aql kosasiga sig'adurgan so'zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko'proq yozdim..." Ibrat ushbu asari bilan bog'liq ezgu maqsadini bayon qilib shunday deydi: "Bu "Tarixi Farg'ona"ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki ta'mai tiriklik yo'lidan bo'lmay, balki bani basharni(ng) tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko'rsatmak, bizdan keyin keladurganlar, o'tganlarni(ng) turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgan zamonni torozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta'rifdur"². Darhaqiqat, Ibrat tarix va hayot haqiqatini boricha, o'z

¹ Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Ўз ФАШИ Кўлезмалар фонди, инв. № 11080.

² Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У. Долимов, Н. Жабборов). – Тошкент: Матнавиёт. 2020. – Б. 22.

holicha, mahalliy tilda yoritish borasida boshqalarga munosib ibrat bo'la oldi.

Darvoqe, mazkur asar tarixshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi lozim bo'lgan manbalardan sanaladi. "Tarixi Farg'ona" asarida ijtimoiy-siyosiy voqeliklar bilan birga, Farg'ona viloyati tarkibiga kirgan shahar va qishloqlar nomi, ularning tarixi, geografik joylashuvi, tabiati haqidagi muhim ma'lumotlar ham qayd qilingan. Mazkur asar yuzasidan U.Dolimov¹, A.Xalilbekov², K.Vohidova³ tadqiqotlarini alohida qayd qilish joiz. Mazkur tadqiqotlarda asarning to'rt nusxasi mavjudligi, asar 1916-yilda yozib tugatilganligi, nusxasini ko'paytirish maqsadida 1921-yilda yana qayta yozilganligi haqidagi muhim ma'lumotlar ham keltirilgan.

Olim, noshir, shoir, islohotchi sifatida o'z hayoti va faoliyatida millat hamda Vatan manfaatini birlamchi qatorda qo'ygan Is'hoqxon Ibratning boy ijodiy-madaniy merosi mamlakatimizda, shuningdek, xorijda ham tadqiq qilinmoqda. Ibrat faoliyatidagi ma'rifatparvarlik masalasi talqini U.Dolimov; "Lug'oti sitta al-sina", "Jome' ul-xutut", "Tarixi Farg'ona", "Mezon-uz zamon" kabi asarlarining matnshunoslik aspekti bilan bog'liq tadqiqi professor N.Jabborov; tarixshunos, huquqshunos, jamiyatshunos sifatidagi faoliyati tadqiqi K.Vohidova; adabiy merosiga xos badiiy xususiyatlari talqini A.Xalilbekov, O.Boltaboyevalar tomonidan amalga oshirilgan⁴. Bu holat Ibratning, darhaqiqat, serqirra iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Ammo uning asarlari yuzasidan

¹ Долимов У. Жизнь и творчество узбекского поэта просветителя Ибрата: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – Ташкент: 1971. – 26 с.

² Халилбеков А. Наманган адабий мухити. – Ташкент: Рухафзо, 1998. – 176 б.

³ Вохидова К. Исхокхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрата ва унинг тарихий-илмий мероси: Тарих фан. номз. ... дисс. – Ташкент, 2008. – 186 б.

⁴ Долимов У. Ўзбек маърифатпарвар шоири Ибратанинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. – Ташкент, 1971. – 250 б.; Шу муаллиф. Исхокхон Ибрата. – Ташкент: Шарк, 1994. – 144 б.; Ибрата Ажний. Сўфизода Ташланган асарлар. – Ташкент: Маънавият, 1999. – 230 б.; Ибрата И. Ташланган асарлар. – Ташкент: Маънавият, 2005. – 200 б.; Вохидова К. Исхокхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрата ва унинг тарихий-илмий мероси: Тарих фан. номз. ... дисс. – Ташкент, 2008. – 186 б.; Шу муаллиф. Исхокхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрата ва унинг тарихий-илмий мероси. – Ташкент: Фан, 2008. – 125 б.; Халилбеков А. Наманган адабий мухити. – Ташкент: Рухафзо, 1998. – 176 б.; Болтабоева О. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик. намоёндалари, аъёндалари, янгилаштири. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Ташкент, 2019. – 145 б.

adabiyotshunoslik yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning til xususiyatlari shu kungacha alohida tadqiq manbayi bo'lmagan. Bu holat Ibrat asarlarining leksikogrammatik xususiyatlarining diaxron va sinxron aspektda ilmiy o'rganilishi, tavsiflanishi qanchalik dolzarbligini ko'rsatadi. Bizning ushbu tadqiqotimiz ana shu dolzarb masala tadqiqiga bag'ishlangan. Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda Ibrat ilmiy-ijodiy merosining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi, mazmuniy-mavzuiy, janriy xususiyatlarini tahlil qilishning ahamiyati katta. Shu sabab tadqiqot birinchi bobining ushbu bo'limida ana shu masala yoritilgan. Quyida shu haqdagi kuzatishlarimiz, fikr-mulohazalarimiz bilan tanishasiz.

Tadqiqotchi olim A.Xalilbekov o'zining "Namangan adabiy muhiti" asarida Namangan adabiy muhitiga mansub ijodkorlar merosining o'rganilishini to'rt davrga ajratadi. Unga ko'ra, to'rtinchi davr "XX asr boshlari" deb nomlanib, ijodi o'rganilgan davr namoyondalari sifatida Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda nomlari qayd qilingan¹. Mamlakatimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgunga qadar ham Namangan adabiy harakatchiligi vakillaridan bo'lgan Nodim, So'fizoda va Ibrat ijodiy merosi yuzasidan ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ibrat ijodiy merosining tadqiqi keng qamrovli, ular turli maqsad va yo'nalishlarda bajarilganligiga guvoh bo'lamiz. Ibratning ijodiy merosi yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy izlanish, tadqiqotlarni yo'nalish nuqtayi nazaridan quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) matnshunoslik aspektidagi tadqiqi (U.Dolimov, N.Jabborov kabilari);

2) adabiyotshunoslik aspektidagi tadqiqi (A.Xalilbekov, N.Afoqova, M.Abdullayeva, O.Boltaboyeva kabilari);

3) tarixshunoslik aspektidagi tadqiqi (K.Vohidova va boshqalar);

4) lug'atshunoslik aspektidagi tadqiqi (A.Madvaliyev, S.Normamatov kabilari).

Jamiyat va millat taqdiri, manfaatini ko'zlagan ma'rifatparvar, millatparvar vatandoshlarimiz ta'lim-tarbiya tizimini yangilash, isloh qilish, yangi davr adabiyoti va madaniyatini taraqqiy ettirish,

¹ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити – Тошкент: Рухнафо, 1998. – Б. 6.

dunyoviy ilm-fanni egallash kabi vazifalarga sidqidildan xizmat qilish yo'lida ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarida yuzaga chiqqan o'zgarish, yangiliklarga hozirjavoblik bilan munosabatda bo'lgan. Bu borada Is'hoqxon Ibratning faoliyati ham alohida e'tiborga molik.

Ibratning 2020-yil nashr qilingan "Tanlangan asarlar"¹ to'plamidan uning XX asr boshlarida "Turkiston viloyatining gazetasi"da chop etilgan 8 ta ilmiy-ma'rifiy maqolasi ham joy olgan. Xususan, "История древнего города Ахси в Ферганской области", "Исхоқхон тўрадин туземни газетга мақола", "Открытие Коканд-Наманганской железной дороги", "Тошкент сафариндаги маълумотларим", "Эски мактаблар хусусида", "Миллатни ким ислоҳ этар?" kabi publitsistik maqolalari o'sha davr jamiyat hayoti bilan bog'liq muhim masalalarga munosabatni yaqqol ifoda etgan. Jumladan, jamiyatdagi ijobiy o'zgarish va yangiliklarni tarannum etish, ilm-fan taraqqiyotini targ'ib qilish, xalqni ma'nan yuksaltirish, madaniyatni rivojlantirish, jamiyatdagi illatlarni fosh etish, taraqqiyot sari intilish kabi ijtimoiy-siyosiy, madaniy masalalar Ibrat publitsistikasining asosiy mazmunini tashkil qilgan. Mazkur asarlarda o'zbek tilining xalqona so'z va iboralari bilan birga, eski o'zbek adabiy tiliga xos ifodalar orqali qalamga olingan masalalarning sodda va tushunarli tarzda talqiniga erishilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolalar matnida rus tili hamda u orqali o'zbek tiliga o'zlashayotgan so'z va atamalar ham qo'llanilib, yangi tushuncha va hodisalarning ifodasi sifatida o'zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy tafakkuri boyitilishi ta'minlanganini ham kuzatishimiz mumkin.

Manbalarda qayd qilingan ma'lumotga ko'ra, Ibratning publitsistik janrdagi maqolalari 45 dan ortiq bo'lib, ularning 35 tasi o'sha davrning eng muhim davriy nashrlaridan biri bo'lgan "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida e'lon qilingan, ushbu publitsistik asarlarning asosini ma'rifatparvarlik g'oyasi tashkil qiladi².

Umuman, Ibrat ijodiga mansub asarlarning tadqiqi, xususan, til xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlar orqali o'zbek tilining leksik-

¹ Исхоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У. Долимов, Н. Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020. – 200 б.

² Исхоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У. Долимов, Н. Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020. – Б. 22.

grammatik xususiyatlarini, lugʻat boyligi va nutq tarkibini davr nuqtayi nazaridan baholash bilan birga muallifning oʻzbek tili imkoniyatlaridan samarali foydalanish mahoratini ham kuzatish mumkin. Bu esa bizning tadqiqotimiz predmeti hisoblangan Ibrat asarlaridagi leksik-grammatik birliklarning turli nutq sharoiti, shakli, umuman, nutq tabiati bilan aloqador lisoniy-nutqiy xususiyatlarning sinxron va diaxron aspektidagi ilmiy talqinini taqdim qilish omili boʻlib xizmat qiladi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosi tilshunoslik obyekti sifatida

Umuman olganda, xalqimiz tarixi, madaniyati, ta'limi, adabiyoti taraqqiyotida o'zining munosib o'rniga ega Is'hoqxon Ibratning ilmiy-ijodiy merosiga e'tibor qaratish, asarlarining o'rne va ahamiyatini baholash, ularning tahlili va munosib tavsifini amalga oshirish ilmiy-amaliy jihatdan tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik sohaları uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari tadqiqi orqali XX asr boshlaridagi madaniyatimiz, tariximiz, tilimiz va adabiyotimizga doir masalalarning haqqoniy talqinini yaratish, til, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot voqeligini xolis baholash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ishimizning bu bo'limida, avvalo, Ibratning milliy til, uning sofligini saqlash, maktablarda ona tili ta'limi, ko'ptillilik borasidagi lingvistik qarashlari, tilshunoslikka oid asarlarining hozirgi ahamiyati, fan sohasida ularning o'rganilish darajasi xususida fikr yuritamiz.

Adibning tilshunos sifatidagi faoliyati, tilshunoslikka oid qarashlari haqida tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan ayrim fikrlar ham bor: "Ibratning ko'p qirrali faoliyatida tilshunoslik, xususan, lug'atchilik alohida bir yo'nalishni tashkil etadi. U dastlab tilshunos olim sifatida tilning ijtimoiy jamiyatdagi o'rne va mavqeini yuqori baholaydi, til bilishning esa jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat ishlarini yuksaklik sari olg'a siljituvchi qudratli qurol ekanligini o'z davrida keng targ'ib qiladi. Chunonchi, "insonlari o'lurki, o'z mamlakatlari lisonin toza bilmalar", deya o'z milliy tili, ya'ni o'zbek tilining go'zal va nafis jozibadorligi, grammatik

xususiyatlari haqida yetarlicha tushuncha va tasavvurga ega bo'lmagan vatandoshlari holidan qattiq ranjiydi. Shu ma'noda, o'sha davrdagi maktab va maorif tizimida, o'zi isloh qilgan maktabda o'quvchilarning boshqa fanlar qatorida til bilimi, til ilmi bo'yicha mukammal ma'lumotga ega bo'lishlari lozimligiga alohida e'tibor qaratadi"¹. Darhaqiqat, boshqa jadid ma'rifatparvarlari kabi Is'hoqxon Ibrat ham jamiyatdagi ijtimoiy-sosiy muammolar qatorida milliy til masalasiga jiddiy e'tibor bilan qaraydi va xalq, millat kamolotini til bilan bog'laydi. Bu narsa adib faoliyatida dasturulamal bo'lgani holda, o'zi tashkil etgan yangi usuldagi maktabda, boshqa "usuli savtiya" maktablarida o'quv adabiyotlarini sof milliy tilda nashr etishda jonbozlik ko'rsatadi. Adib ko'ptillilik masalasida nihoyatda ehtiyotkorlik yo'lini tutadi. Albatta, mazkur davrda ham hozirgidek jahonga yuz tutish, zamon bilan hamnafas yashash, dunyoviy bilim va ilmlardan xabardor bo'lish uchun ko'p til bilish muhim sanalgan. Adibning "Lug'oti sitta al-sina (olti tilli lug'at)" asarining yuzaga kelishidagi ijtimoiy zaruriyat ham shunda. Biroq o'zbek farzandi uchun birinchi navbatda o'z ona tilini, ya'ni o'zbek milliy tilini mukammal o'zlashtirish zarur va shart ekanligi adibning tilshunos sifatida millatga xayqirig'i, chaqirig'i edi: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir"²

Dissertatsiyamizning "Kirish" qismida ta'kidlanganidek, Ibrat ijodiga mansub tarixiy, badiiy, publitsistik asarlarning lisoniy xususiyatlari hozirgacha alohida monografik tadqiq etilmagan bo'lsa-da, XX asr boshlari o'zbek milliy tili va tilshunosligi, leksikografiyasi tadqiqiga bag'ishlangan ayrim ishlarda boshqa jadid ma'rifatparvarlari qatorida adib ijodiga ham qisman murojaat qilingan o'rinlar mavjudligi kuzatiladi. Mazkur bo'limda adibning yozuvlar tarixini o'rganishga bag'ishlangan asari "Jome' ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") hamda leksikografiyaga oid "Lug'oti sitta al-sina" ("olti tilli lug'at") asari bo'yicha U.Dolimov, N.Jabborov,

¹ Нормаматов С. Ўзбек дугатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 174.

² Исҳоқхон Иброт. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. – Б. 10.

A.Madvaliyev, Y.Sayidov, S.Normamatov kabi filolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga¹ munosabat bildirib o'tamiz.

Uning tilshunoslikka oid dastlabki "Lug'oti sitta al-sina (olti tilli lug'at)" leksikografik asari yaratilishining ijtimoiy zarurati, muallifning asar yaratilishidagi maqsadi, bu asarning o'zbek lug'atchiligi taraqqiyotidagi ahamiyati hamda bugungi o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Zero, lug'at o'z nomi bilan tadqiqotimiz mavzusiga to'g'ridan to'g'ri aloqador manbadir. O'tgan asr boshlarida Chor hukumati mustamlakachilik siyosatining avjiga chiqishi bilan mahalliy aholi o'rtasida rus tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj orta boradi. Jumladan, rus-tuzem maktablari, "usuli savtiya" maktablari o'lkaning katta-katta shaharlaridagina emas, balki qishloqlarda ham ochila boshlangandi. Bunday maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili, adabiyot fanlari bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilar edi. Zamon talablarini yaxshi tushungan ilg'or fikrli kishilar allaqachon o'z farzandlarini shunday maktablarda o'qitish rejasini tuzib qo'ygan edilar. Biroq o'quvchilar, shu jumladan, rus va xorijiy tillarni mustaqil o'rganuvchilar uchun darslik va qo'llanmalar yetishmasdi. Toshkentdagi kitob do'koni xo'jayinlaridan birining "Туркестанские ведомости" gazetasida e'lon qilingan quyidagi so'zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: "Shu kunlarda shaharliklar o'rtasida rus tiliga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Toshkent kitob do'koni xo'jayinlaridan biri shikoyat qilyaptiki, "sartlar (o'zbeklar) hech tinchlik bermayapti, ruscha o'rganish uchun sart tilida yozilgan biror darslik bormi?" – deb so'rab kelishaverib jonga tegdi"². Bu manbani alohida ko'rsatish shunisi bilan muhimki, unda o'sha davrda yerli o'troq aholining til o'rganishga ehtiyoji kuchli bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Rus tili bilan bir qatorda o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu muhim masalada faollik, hozirjavoblik ko'rsatib o'z xalqiga

¹ Исҳоқхон Ибрат. Тапданган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У. Долимов, Н. Жабборов) – Тошкент: Маънавият, 2020; Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибратнинг олти тилли дугати // Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 53-56; Сайидов Ё. Жаҳид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (ДСс) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Нормаматов С. Ўзбек дугатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жаҳид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2020.

² Исҳоқхон Ибрат. Ислоҳи миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022. – Б. 26-34.

birinchi bo'lib yordam qo'lini cho'zadi. Adib tez fursatda olti tildagi "Lug'oti sitta al-sina" ("olti tilli lug'at") nomli lug'at kitobini yaratadi. Is'hoqxon To'ra mazkur asarni yaratar ekan, birinchi galda rus tiliga qiziquvchilarni ko'zda tutgan. Bu hol kitobning birinchi sahifasidanoq ko'zga tashlanadi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay bo'lsin uchun, rus so'zlarini ham arab yozuvi bilan beradi. O'sha davrda rus va Yevropa so'zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab bo'lsa-da, Ibrat bu ishni muvaffaqiyatli hal qildi. Asar qo'lyozma holidayoq qo'ldan qo'lga o'tib, nashr etilmasdanoq ziyolilar undan foydalanishga, ko'chirib olishga muvaffaq bo'lganlar. Rus tilini o'rganish istagidagi o'zbek ziyolilari, "usuli savtiya" maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari bu asarning yaratilishidan xursand bo'ldilar, ko'p nusxalarda chop etilishini sabrsizlik bilan kutdilar. Kitob bilan qo'lyozmaligidayoq tanishgan shaxsning quyidagi fikrlari ham buni tasdiqlaydi: "Ushbu ovoni xayriyanishonda Namangan uyezdiga tobe' To'raqo'rg'on qozisi janob Is'hoqxon to'ra o'z tab'laridan chiqarib, "Sitta al-sina" degan olti lug'atlik kitob tasnif qilib, bosmaxonaga yuboribdurlar. Mazkur olti lug'at: arabiy, forsiy, turkiy, sarti, hindiy va ruscha kitobni alhol iboralarini durust va tas'hihlab ko'rub turubdurimiz. Albatta, oning bosilmog'iga ijozat berilib, nechand nusxalar bosilib chiqsa kerak. Lekin aksar ibora va lug'atlari tas'hih va tag'yir bo'lindi."¹

Ibratning lug'atchilikka oid ushbu "Lug'oti sitta al-sina" ("olti tilli lug'at") asari o'z tarkibida, darhaqiqat, olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sartcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni aks ettirgan dastlabki ko'p tilli lug'at namunasidir. Lug'at muqaddimasida qayd qilinishicha, muallifning Afg'oniston, Hindiston va Forsiston (Eron) kabi mamlakat shaharlariga sayohati davomida ushbu lug'atni tuzish g'oyasi paydo bo'lgan: "...sayohat etdugum vaqtlarida Afg'oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida... bir lison safar ahlina yuz oltun barobarida ishladiki, biza mushohada bo'lib, lisonlar tahsiliga ko'shish edub va ham dahr ahlina bir nishon qoldirmak fikri-la bir necha muddati madid bu kitob tadvinina justujo' edub, bo'yla bir kitob suratinda xalqga

¹ Shu manba. – B. 29-30.

namudor etdim va ham olti lisondan murakkab oʻddugʻi uchun, “Lugʻoti sitta al-sina” tasmiya edub, ikki jild ila tartib etdum”¹.

Mazkur lugʻatning leksikografik xususiyatlari va uning tilshunoslikdagi ahamiyati xususida dastlabki kuzatishlarni olib borgan tilshunos olim A.Madvaliyevdir. Uning mazkur asar haqida yozgan maqolasida taʼkidlanishicha, ushbu lugʻat ikki qism, 53 sahifadan iborat boʻlib, kundalik muloqotda koʻp qoʻllanadigan mingdan ortiq eng faol oʻzbekcha soʻzlarning arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalarini oʻzida aks ettirgan, keng xalq ommasiga tushunarli boʻlgan arab yozuvida bitilgan. Uning birinchi qismida 156 ta feʼlning masdar (infinitiv) hamda hozirgi-kelasi zamon shakllari, 12 ta feʼlning oʻtgan zamon va buyruq mayli shakllari hamda 5 ta olmosh – jami 341 ta soʻz 6 ta ustunga ajratilgan holda berilgan. Lugʻatning ikkinchi jildi jami 694 ta ismni (ot, sifat va son turkumidagi) qamrab olgan, ular 7 ta mavzu guruhiga ajratilib, arabcha-forscha-turkcha-hindcha-sartcha-ruscha lugʻat shaklida olti ustun qilib berilgan². Maqola muallifi Isʼhoqxon Ibrat lugʻatni tuzishdan oldin turkiy lugʻatchilik, arab, fors-tojik lugʻatchiligi, usmonli turk tili lugʻatchiligi va shuning barobarida, rus lugʻatchiligi bilan ham mukammal tanishib chiqqanligiga, umuman olganda, lugʻatchilikning nazariy va amaliy masalalarini hamda lugʻat tartib etish uchun zarur boʻlgan oʻzbek tili, fors-tojik tili, arab tili, turk tili va hind tillarini chuqur oʻzlashtirganligiga alohida urgʻu berib, oʻzbek leksikografiyasida Ibratgacha ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, yaʼni olti til materiallari qamrab olingan va bu til materiallarining oʻzaro qiyosiy tarjimalari berilgan lugʻat tuzilmaganligini qayd etadi³.

S.Normamatov maʼrifatparvar jadidlarning oʻzbek zamonaviy leksikografiyasining taraqqiyotidagi xizmatini ular yaratgan lugʻatlarning lingvistik tahlili asosida baholar ekan, Abdurauf Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy, Abdulla Qodiriy kabi adiblarning amaliy leksikografik faoliyati natijalari qatorida Isʼhoqxon Ibratning lugʻatchilik faoliyatini ham tahlilga tortadi. Muallif ilmiy

¹ Исхоқхон Ибраг. Луготи ситта ал-сина. – Тошкент: Илмий типографияси, 1901. – Б. 2-3.

² Мадвалиев А. Исхоқхон Ибрагнинг олти тили лугати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4 – Б. 53-56.

³ Shu manba. – Б. 55.

kuzatishlarida “Lug‘oti sitta al-sina” asarida muallif leksikografiyaning mazkur davrda an‘anada bo‘lgan tamoyillari bilan birga, yangicha tamoyillarga ham asoslanib tartib berganligini ta‘kidlaydi: “Lug‘oti sitta al-sina” asarini yaratishda yangicha yo‘nalishdagi G‘arb lug‘atchiligi tamoyillari bilan birga, an‘anaviy Sharq lug‘atchiligi prinsiplariga ham tayangan holda lug‘at tuzganligining guvohi bo‘lamiz. ... lug‘atda fe‘llarning masdar (*chochmak, kesmak, kiymak*), hozirgi-kelasi zamon (*o‘ynar, yog‘ar, xohlar*), o‘tgan zamon (*yotgan, turgan*) hamda buyruq mayllarida (*kelma, o‘rganma*) berilishi; ismlarning esa 7 ta tematik guruhga ajratilib tarjimalarining berilishi jadid davrigacha bo‘lgan Sharq lug‘atchiligi, xususan, arab lug‘atchiligi an‘analarining ta‘sir belgilaridir. Shuningdek, lug‘at mavzular bo‘yicha “*Moziy va amr (O‘tgan zamon va buyruq mayli)*”, “*Almutakallim*” (*Olmoshlar*), “*A‘zoyi hayvonot*” (*Jonzotlarning a‘zolari*), “*Asmou ahli qarobat*” (*Qarindoshlik nomlari*), “*Asmoi aqsomi taom*” (*Taom nomlari*), “*Asmoi nag‘amot*” (*Musiqqa asboblari nomlari*), “*Aqsomi rang*” (*Rang nomlari*) kabi bir necha bo‘limga bo‘lingan va sarlavhalangan¹. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, so‘zlarning ma‘naviy yaqinligi, mavzuiy munosabatiga asoslanadigan ideografik xarakterdagi lug‘atga xos leksikografik xususiyatlar ushbu lug‘atda ham kuzatiladi. Muallif lug‘at so‘zligini tartiblashtirishda leksikografiyadagi yangicha tamoyilga, ya‘ni so‘zlar ifodalaydigan tushunchalarning o‘zaro yaqinligi, aloqadorligiga asoslanadigan ideografik_tamoyilga tayangan, bu yondashuv esa izlanayotgan so‘zni mavzular bo‘yicha tez va osonlik bilan topish imkoniyatini ta‘minlaydi. Bu holat borliq lisoniy manzarasining lug‘atda aks etishi namunasi sifatida ham baholanishi mumkin.

Lug‘atda qayd qilingan o‘zbekcha so‘zlikning strukturasi, tub va yasamaligi, o‘sha davr tili uchun xos bo‘lgan izofali birikmalar, tobe bog‘lanishli o‘zbekcha so‘z birikmalari, tub va qo‘shma fe‘llar bilan bog‘liq leksik, grammatik xususiyatlar tahlili, so‘z tarjimasidagi o‘ziga xos yutuq va kamchiliklar S.Normamatovning tadqiqot ishida o‘zining batafsil tavsifini topgan. Tadqiqotchi fe‘l so‘zlar izohining ayrim o‘rinlarida infinitiv shaklning *-mak*, *-moq* tarzida berilish

¹ Normamatov S. Ўзбек лугатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан докт ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 178-179.

holatini lugʻat yaratish uchun adabiy tilda yagona grammatik meʼyorning, shakllanayotgan yangi oʻzbek adabiy tilining lugʻaviy hamda morfologik meʼyorlarining mavjud emasligi bilan izohlaydi¹. Shuningdek, mazkur tadqiqotda “Lugʻoti sitta al-sina” asari “mazmun-mohiyati bilan oʻsha davrdagi yangicha yoʻnalishdagi, yaʼni Gʻarb lugʻatchiligi anʼanalari taʼsirida yaratilgan lugʻat” sifatida baholanib, uning oʻzbek lugʻatchiligida tutgan oʻrni va ahamiyatini koʻrsatuvchi bir qator xususiyatlar qayd qilinadi: “Lugʻoti sitta al-sina” – oʻzbek leksikografiyasida olti til materiallarining oʻzaro qiyosiy tarjimasiga oid hozircha yagona lugʻat; oʻsha davr uchun yangi oʻzlashmalar: *kraxmal*, *kursi*, *qandil*, *kasalxona*, *limon*, *kema*, *dorishunos* kabilarni izohlagan, ularning oʻzbek tili lugʻat boyligidagi barqarorlashuviga hissa qoʻshgan; turli til oilalariga mansub tillarning leksik birliklarini oʻzaro qiyoslagan; oʻzbekcha soʻzlikning tarkibida xalq tili elementlari lugʻatdan foydalanuvchilar ommasining manfaatini koʻzlagan holda faol qoʻllangan (masalan: *huqmazak* (*husnbuzar*), *chirk* (*kir*), *shoti* (*norvon*), *archaxilol* (*tish kovlagich*), *javori* (*juxori*), *fatinjon* (*baqlajon*), *chovutka* (*chigirtka*), *teva* (*tuya*) kabilar). Shuningdek, ushbu lugʻat, avvalo, oʻzbek tili soʻz boyligini oshirish va tavsiflash, xalq tilidagi soʻzlarni faol lugʻat tarkibiga olib kirish, qayd qilingan tillarni targʻib va tashviq qilishga katta hissa qoʻshgan ilmiy manba hamdir”.³⁹

Manbalardan aniqlanishicha, Isʼhoqxon toʻra Ibrat mazkur asarni 1898-yildayoq yozib tugallagan, biroq uni nashr etish uchun Chor Rossiyasi maʼmurlaridan ruxsat olishga yaqin ikki yil sarflangan. Bu fikrimizni adibning ikkinchi marta N.Ostroumovga rus va oʻzbek tillarida xat bilan murojaat qilganligi ham tasdiqlaydi. Mazkur asarni nashr etishda katta ahamiyatga ega boʻlgan oʻsha ikkinchi maktub matni quyidagicha: “1900-yilda 26-fevralda”. Hurmatlu huzurlariga savolnoma: ushbu barobarinda siz ulugʻ martabadan oʻtunub soʻraymanki, 1898-yilda sizdan iltimos qilib edim, oʻz tasniflarimdan olti til uzra “sittai alsina” degan slovar kitobni bosma qilmoq uchun. Marhamat qilib, ikki juzʼ yuboring, koʻrmoq uchun, degan ekansiz. Darrov amrlariga muvofiq yuborib

¹ Shu manba. – B.180.

edim. Mazkurni(ng) hech xabari bo'lmagan jihatidan boz iltimos qilib turubmanki, agarda nozirlar nazoratlaridan o'tgan bo'lsa, qabulga olinsa, men qolgan o'n juz'ini ham yuborsam va yoki qabul bo'lmagan bo'lsa, o'shal nusxani marhamat ilan Namangan mahkamasiga, maning ismimga adres etib yuborsalar, boz bo'lak maslahat qilsak, deb iltimos qiluvchi Is'hoqxon to'radurman''¹.

Adib mazkur asariga material to'plar ekan, jonli tilda ko'p qo'llanadigan eng faol so'zlarni kiritishga alohida e'tibor beradi. Unda iste'moldan chiqib ketayotgan arxaik so'zlarni deyarli uchratmaymiz, lug'atni keng xalq ommasiga tushunarli bo'lgan arab yozuvida yaratadi. Ma'lumki, bunga qadar ham ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar yaratilgan. Masalan, V.P.Nalivkin va uning rafiqasi M.Nalivkinaning "Русско-картовский словарь", "Картовско-русский словарь" asarlari shular jumlasidandir. Lekin bu asarlardan kitobxonlar – rus tilini o'rganishga qiziquvchilar unumli foydalana olmaydilar. Chunki bu kitoblar rus yozuvida yaratilgan bo'lib, o'zbek tilini o'rganuvchi ruslar va ruscha savodi bo'lgan sanoqli o'zbeklar uchun mo'ljallangan edi. Shuning uchun ham bu asarlar rus tilini o'rganuvchi o'zbeklar ehtiyojini qondira olmadi. Is'hoqxonning mazkur asarini arab yozuvida yaratishi sababini shu bilan izohlash mumkin. Mana shu muhim, nihoyatda murakkab masalaga o'zbek ma'rifatparvarlari orasida birinchi bo'lib Ibrat qo'l urdi va zamondoshlari talabini birmuncha qondirishga muvaffaq bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, lug'at muallifi zamondoshlaridan birining: "...Bizning Turkiston viloyatida sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam yo'q edi", – degan jumalari zamirida katta haqiqat yotar edi.

Ma'lumki, bundan besh ming yil avval og'zaki nutqqa nisbanan ikkilamchi aloqa vositasi sifatida yozuvning paydo bo'lishi bashariyatning inqilobga teng kashfiyoti bo'lgan. O'tgan vaqt mobaynida tilshunos, tarixshunos, arxeolog olimlar tomonidan yer yuzida dastlabki yozuvning paydo bo'lishi, taraqqiyot bosqichlari bo'yicha muayyan tadqiqotlar olib borildi, insoniyat qadimda foydalangan va hozirda foydalanayotgan yozuvlarning grafik xususiyatlari, yozuv tiplari va turlari haqida muayyan ilmiy

¹ Исҳоқхон Ибрат. Ислоҳи миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022. – Б. 30-31.

xulosalarga kelindi. Shu asosda tilshunoslikning yozuvlar tarixi va hozirgi holatini o'rganuvchi "grammatologiya" sohasi yuzaga keldi. Is'hoqxon Ibratning tilshunoslikka oid ikkinchi "Jome' ul-xutut" ("yozuvlar majmuasi") nomli ilmiy asari tilshunoslikning aynan mana shu sohasiga tegishli ilmiy asardir. XX asrning boshlarida yaratilgan "Jome' ul-xutut" asarida tilshunoslikka oid muhim ma'lumotlar o'rin egallagan. Asarning yozilishi uchun yuzaga kelgan zaruriyatni muallif quyidagicha izohlaydi: "...Bu namunalardan muddao buki, har asrda bir olam tabodul bo'lib, asr o'zgarib, olam, odam, ashyolar – hamma narsa tabodul bo'lmog'i bizga bir sarxatdur. Bunga qarab ibrat olib ish tutmak darkor. Avvali holimiz ul, emdi bul, olam yurishi shul. Binobarin, tajdidi ahvol va atvor ibrat bo'lur ekan. Shul o'ttiz yil(ga) bir nazar qarasak, ko'p farqlar bor..."¹. Muallif fikricha, jahondagi ilm, fan, madaniyat yutuqlaridan boxabar bo'lmoq, davr o'zgarishlaridan voqif bo'lmoq, tarixni to'g'i va xolis anglamoq, tushunmoq va bu kabi ma'lumotlarni kelgusi avlodga yetkazmoq uchun dunoydagi yozuvlar va ularning tarixini o'rganish zarur. Mana shu maqsad zo'rida muallif asarda insoniyat tarixidagi piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg'ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma'lumot beradi. Yozuv til va madaniyat tarixi, uning rivojlanish bosqichlari bilan ajratib bo'lmas darajada bog'liq. Shuning uchun ham yozuvlar tarixi bilan shug'ullanuvchi olimning zimmasida katta mas'uliyat bo'ladi. U kishilik jamiyati tarixi, madaniyati, qachonlardir aloqa quroli hisoblangan, keyinchalik o'lik holiga tushib qolgan tillar, yozuvlar bilan hamda jonli til va yozuv o'rtasidagi aloqalar bilan tanishmog'i zarur. Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Is'hoqxon Ibrat tomonidan yaratilgan "Jome' ul-xutut" ("yozuvlar majmuasi") nomli ilmiy asar ancha mukammal asar hisoblanadi. Ibratning mazkur asari bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib borgan filolog olimlar U.Dolimov, N.Jabborovlar o'z fikrlarini quyidagicha xulosalaydi: "Is'hoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq olib borgan ilmiy

¹ Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. – Б. 48.

faoliyati uning ajoyib tilshunos olim ekanligidan dalolat beradi. U madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnihatni mukammal egallagan hattot sifatida ham katta shuhrat qozondi. Bu hol uning “Sah’ati Ibrat, alami Mirrajab Bandiy” va “Jome’ ul-xutut” asarlarida ham ko’zga tashlanadi”¹.

Is’hoqxon Ibrat asarlarining lisoniy xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar Y.Sayidovning ilmiy izlanishlarida ham kuzatiladi. Muallif jadid adibiyoti namoyandalarining o’zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o’rnini ular yaratgan badiiy asarlar misolida belgilashni maqsad qilar ekan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho’lpon, Muhammadsharif So’fizoda, Karimbek Kamiy, Siddiqiy Ajziy, Abdulhamid Majidiy, Elbek, Botu kabi jadidlar qatorida Is’hoqxon Ibratning ham she’riyatini qisman tahlilga tortadi. Uning “Jadid badiiy asarlari leksikasi”² nomli doktorlik dissertatsiyasida jadid adiblari yaratgan nazmiy asarlar leksikasi misolida davr poetik nutqi va uslubidagi o’z va o’zlashgan qatlamning qo’llanish darajasini aniqlashga, leksik-semantik va funksional xususiyatlarini ochib berishga, jadid she’riy asarlari leksikasining turkiy til va xalq shevalari asosida shakllanganligini asoslashga, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi vositalarning poetik-estetik tabiati va lingvopoetik imkoniyatlarini yoritishga harakat qilingan. Muallif olib borgan tahlillari asosida jadidchilik harakati g’oyalari she’riy asarlar matnida ham o’z ifodasini topganligini, bu davrda leksik me’yorlar izchil takomillashib borganligini, statistik tahlilda o’z qatlam 59%ni, o’zlashma qatlam esa 41%ni tashkil qilganligini, “Chig’atoy gurungi” a’zosi bo’lgan adiblar poetik nutqida umumturkiy lug’aviy birliklar tashkilot a’zosi bo’lmagan shoirlar asarlariga nisbatan ko’p miqdorda ekanligini, bu holat “Chig’atoy gurungi” a’zolarining tilning sofliqini saqlashga doir harakatlarining natijasi ekanligini ilmiy xulosalaydi. Y.Sayidovning jadid adiblari sh’eriyati tilidagi lug’aviy qatlamning miqdoriy va foiz ko’rsatkichi bo’yicha tahlillari, xususan, Ibrat she’riyati tlida umumturkiy so’zlar 35%ni, arabcha so’zlar 32%ni,

¹ Исҳоқхон Ибрат. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов). – Тошкент: Маънавият, 2020. – В.20.

² Сайидов Ё. Жади́д бади́ий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 68б.

forscha soʻzlar 27%ni, ruscha-evropacha soʻzlar 1,6%ni, aralash soʻzlar esa 4%ni tashkil etganligini koʻrsatadi¹. Bu holat adibning asarlarida mumkin qadar oʻzbek tilining ichki imkoniyatlari asosida, oʻz qatlam leksik birliklaridan foydalanishga harakat qilganligi bilan izohlanadi. Dissertatsiyada taʼkidlanishicha, jadid poetik asarlarida davr adabiy tiliga xos yangi, faqat mazkur sheʼriyatda qoʻllangan soʻzlar ham koʻp uchraydi. Chunonchi, Ibratning “Tarixi chopxona” sheʼrida *chopxona // chopmaxona* soʻzi *nashriyot* maʼnosida qoʻllangan. Sheʼrda shoirning maqsadi xalqni ilmi qilish, yaxshi nom qoldirish ekanligi ifodalangan. Shoir xalqni bir necha asrlardan beri qoloqlik va qashshoqlikda sudrab kelayotgan mutaassiblarni qattiq tanqid qiladi va sheʼr oxirida oʻzining *chopxona kotibi, roqimi* (*xat yozuvchisi*) ekanligini, *maʼvosi* (*turar manzili*) qayerdaligini bayon qiladi:

Bu roqimi jaloli maʼvosi qalʼai xon,

Chopxona kotibidir, gar soʻrsa har kim olon².

Tadqiqotda Ibrat sheʼriyati tilidagi forscha oʻzlashmalar xususida bildirilgan quyidagi fikrlar ham ahamiyatli sanaladi: “Soʻfizoda, Sidqiy Xondayliqiy, Isʼhoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy kabi ijodkorlarning sheʼrlari tilida qoʻllangan bir qism forscha oʻzlashmalar hozir isteʼmoldan chiqqan va ular izohtalabdir. Ikkinchi bir qism soʻzlar esa eronlashgan oʻzbek shevalarida u yoki bu darajada uchraydi”³.

Kuzatganimizdek, dissertatsiyada Isʼhoqxon Ibrat sheʼriyatining lugʻaviy tarkibi yuzasidan birmuncha mukammal tahlillar olib borilgan va ishonchli xuloslar chiqarilgan. Biroq bu tahlillar adib sheʼriyati tilining leksik xususiyatlari haqida mukammal tasavvur bera olmaydi. Chunki, ishda sheʼriyat tilining leksik xususiyatlari nomi ostida lugʻaviy qatlam tushunchasiga koʻproq urgʻu berilgan. Vaholanki, sheʼriyat tili leksikasi umumiy planda tekshirilar ekan, poetik nutq va uslubdagi leksikologiyaga aloqador boʻlgan leksik-semantik munosabatlarning voqelanishi, uslubiy chegaralangan yoki chegaralanmagan leksika, leksemalarning semantik tabiati uchun

¹ Сайидов Ё. Жадид бадний асарлари лексикаси. Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – В.32.

² Сайидов Ё. Жадид бадний асарлари лексикаси. Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.20.

³ Shu manba. – В.30.

xos bo'lgan boshqa lisoniy hodisalar ishda baravar tadqiqqa tortilishi lozim edi. Shunga qaramay, mazkur ish biz uchun Ibrat she'riy asarlari tili haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlarni berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Umuman olganda, Is'hoqxon to'ra Ibratning lingvistik faoliyati, yaratgan asarlarining lisoniy xususiyatlari yuqoridagi ishlar istisno qilinganda, alohida tadqiqot obyekti sifatida monografik planda tekshirilmagan. Adib tomonidan yaratilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning lisoniy tahlili XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining shakllanish, rivojlanish va boyish tendensiyalari haqida muayyan ma'lumot bera oladi. Shu nuqtayi nazardan Ibrat asarlarini lingvistik tadqiq obyekti sifatida o'rganish maqsad qilingan mazkur dissertatsion ishimiz tilshunosligimizdagi bu kemptikni to'ldirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy va maishiy holatining aks etishi

Tadqiqotimizning bundan avvalgi bo'limi tahlili natijalaridan ayon bo'ldiki, Is'hoqxon to'ra Ibratning ilmiy-ijodiy merosi tilshunoslik obyekti sifatida ham yuksak e'tiborga loyiqdir. Zero, uning hayotning dolzarb masalalariga hozirjavoblik bilan yozilgan badiiy, tarixiy, pedagogik va ilmiy asarlarida nafaqat xalqning kundalik turmush tarzi, shu bilan birga, har qanday ijod ahli asarlarining g'oyaviy-badiiy, lingvistik qimmatini belgilovchi mezon – davrning ijtimoiy-siyosiy holati ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Quyida shu masalaga alohida to'xtalamiz.

Jadid ma'rifatparvarlari xalqning porloq kelajagiga zo'r umid bilan qaradilar. O'z shaxsiyatida shunday fazilatlarini jo qilgan Is'hoqxon Ibrat “usuli savtiya” maktablarini tashkil etish, ularni darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishiga bosh-qosh bo'ldi. “Matbaai Is'hoqiya”da shunday darsliklar va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirdi. “San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy”, “Ilmi Ibrat” va boshqalar shular jumlasidandir.

Uning publitsistik maqolalari va munozaralarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Is'hoqxon Ibrat bilan Toshkent shahar Sebzor dahasidagi eski maktabdor Mulla Husanxo'ja eshon

o'g'li o'rtasidagi munozara ushbu fikrimizni quvvatlaydi. Bu munozara 1907-yildagi "Turkiston viloyatining gazetasi"da bir necha sonlarda bosilib chiqadi. Undan ma'lum bo'lishicha, Mulla Husanxo'ja domla o'z maktabini yengil-yelpi isloh qilib, "jadid maktabi" deb e'lon qiladi. Ko'plab bolalarni o'z maktabiga targ'ib etadi: "Mulla Husanxo'ja eshon o'g'li ushbu 1907-yilni(ng) birinchi sentyabridan boshlab biz sartiya bolalariga o'qitadurg'on usuli qadimiyamizni usuli jadid tartibig'a olib, jamoa-jamoa qilib o'qitadur. Choraki, mazkur tariqa tartibida maktab bolalarini(ng) tez fursatda savodlari chiqib, ko'b foydalar hosil bo'lur ekan. Yana shulki, bul tartibni(ng) hech nimarsaga moneligi bo'lmas ekan. Sabab shulki, beshinchi jamoa birlan tamom bo'lur ekan. Birinchi jamoa "Haftiyaki sharif", ikkinchi jamoa "Kalomi sharif", uchinchi jamoa "Chahor kitob" bilan "Fuzuliy" yoki "Navoiy", to'rtinchi jamoa "Ilmi faroyiz" o'qub, tamom qilib, muddati ikki yil yoinki uch yil miyonasida madrasalarda o'qimoqni xohlaganlari madrasalarga chiqib o'qimoqg'a qodir bo'lur ekanlar"¹. XX asr boshlarida o'lkamizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy hayotida shu kabi ulkan va jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu holat o'zbek tilimiz lug'at tarkibida ham, albatta, o'z ifodasini topmay qolmadi. Zotan, jamiyat hayotidagi o'zgarish, yangiliklar, avvalo, tilning lug'at tarkibida yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, tilning muayyan davrida ijod qilgan yozuvchi, shoirlar asarlari tilining lug'at tarkibini o'rganish va yoritish orqali til egalarining o'sha davrdagi turmush tarzi, maishiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot darajasi haqida ham keng tasavvur hamda asosli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati ta'minlanadi. Bu esa xalqning xaqqoniy tarixini yaratish, tadrijiy taraqqiyotini ko'rsatishda juda muhimdir.

Gap shundaki, tarixiy haqiqatga ko'ra, jamiyat taraqqiyotida yuz bergan shu bosqichdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy voqeliklar tufayli o'zbek tilining qo'llanish doirasi va miqyosi kengayganligini ayni o'sha davrga oid yozma manbalar orqali kuzatish mumkin. Ularga asoslanib, XX asr birinchi choragida ona tilimizda yaratilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar, ommabop kitoblar, o'quv qo'llanma va darsliklar, lug'atlar hamda chop qilingan gazeta va jurnallar

¹ Исҳоқхон Ибрат. Ислоҳи миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022. – Б.15-16.

ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayot masalalarini o'zida aks ettirishi bilan birga, jamiyat tafakkurining rivojiga ham misli ko'rilmagan darajada ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bu ayni o'sha davrda ijod qilgan Is'hoqxon Ibrat asarlari uchun ham taalluqlidir. Uning asarlari tilida ham yuqorida qayd qilingan ijobiy holatlar o'z aksini topgan. Ayniqsa, uning publitsistik va she'riy asarlarida davr ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayot voqeliklaridan xabar beruvchi so'z va iboralar, o'ziga xos birikmalar keng kuzatiladi. Jumladan, Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona viloyatidagi qadimiy Axxi shahrining tarixi" nomli asari o'sha davrdagi siyosiy holatni aniq aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. Asarda tasvir obykti bitta bo'lganligi sababli "Boburnoma"dan iqtiboslar keltirilib, shu asosda fikr yuritiladi, asosli xulosalar chiqariladi.

Adibning publitsistik asarlaridan o'rin olgan siyosiy mazmunli qarashlari ham e'tiborga loyiq. Shu jihatdan uning "Mezon-uz zamon" nomli publitsistik risolasi ajralib turadi. Asarda kishilik jamiyatini ilm-fanga, taraqqiyotga undaydigan, aslida yashamoqlik dunyoga, nafsga muhtalolik emas, balki inson zotiga mulk qilib berilgan ilm-u ma'rifatni kashf qilmoq, dasturulamal bilmoqlik, zamon va makon tushunchasida barcha mezonlar inson baxti va qadri uchun xizmat qilishliligi xususida fikr yuritiladi. Asarda adibning zamon va jamiyat xususidagi mushohadalari 9 mezonga asoslangan holda muhtasar bayon qilingan¹.

Asar matnida lisoniy va nolisoniy omillarning ta'siri natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy leksik qatlamga mansub lug'aviy birliklar muhim o'rin tutadi. Ularning ayrimlari o'zga tillardan o'zlashgan birliklar bo'lsa, yana bir qismi o'zbek tili lug'at tarkibida avvaldan mavjud bo'lgan leksik birliklarning yangi ma'nolarda qo'llanishidan tashkil topgan ko'rinishlaridir.

Ma'lumki, har qanday davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayoti o'sha davrda yuzaga kelgan, o'sha davr voqeligini yorituvchi asarlarda muayyan darajada aks etib, til leksikasining alohida qatlamini tashkil qiluvchi ijtimoiy-siyosiy mazmunli so'zlar orqali namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy leksika lug'aviy sistemaning

¹ Исҳоқхон Ибрат. Мезон уз-замон. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 28 б.

jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo'lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi o'zgaruvchan qatlamidir¹.

Shu o'rinda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zida aks ettiruvchi, tilning alohida leksik qatlamini tashkil qiluvchi mazkur lug'aviy birliklar tadqiqi xususida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Zotan, bu Ibrat asarlari leksikasining ijtimoiy-siyosiy qatlami yanada aniqroq tasavvur qilishimizga yaqindan yordam beradi. Bu borada H.Dadaboyev, A.Urazboyev, Z.Isaqova, A.To'raxojayeva kabi tilshunos olimlar tomonidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar² amalga oshirilgan. Xususan, o'zbek tilining XI asrdan XX asrgacha bo'lgan davrga mansub ijtimoiy-siyosiy leksikasi H.Dadaboyev, A.Urazboyev, Z.Isaqovalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan bo'lsa, mamlakatimiz mustaqillik yillaridagi o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasi tadqiqi A.To'raxojayevaning nomzodlik dissertatsiyasida o'z aksini topgan. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy leksika yuzasidan qator lug'atlar ham yaratildi: "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati", "Mustaqillik", "Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at" kabilar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy-siyosiy leksika bir qatlam sifatida "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida ham tavsiflangan. Unda ta'kidlanishicha, 'shlab chiqarish usulining rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish jurollarining yaratilishi xalq xo'jaligi va madaniy hayotda yangi predmet, jarayon, tushuncha paydo bo'lishi bilan bog'lanadi³. Bu

¹ Тўрахожаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг таракқиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 24.

² Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ўзгучи, 1991. – 186 с; Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2009. – №3. –Б.21-24; Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати // Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. – Тошкент, 1991. –Б. 68-69; Уразбоев А. Огаҳийнинг "Рисъуд-давла" асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 125 б; Исакова З. Алишер Навоийнинг "Мажolisun-nafhon" асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 128 б; Тўрахожаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг таракқиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 136 б.

³ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.12.

holat esa davr tili leksikasida yangi soʻz va terminlarning yuzaga kelishida bosh omillardan sanaladi. Buning isbotini oʻtgan asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayotimizdagi yangilanish va oʻzgarishlarni, tarixiy davr voqea-hodisalarini aks ettirgan oʻsha davr ijodkorlari asarlari tili tahlili misolida yaqqol kuzatish mumkin. Bu jihatdan, Ibratning publitsistik asarlarining tili, ayniqsa, qimmatli manba hisoblanadi. Ularda oʻsha davr ijtimoiy voqeligini yorituvchi koʻplab lingvistik dalillar oʻz ifodasini topgan. Zero, jamiyatda muayyan bir siyosiy-ijtimoiy davr yoki uning oʻzgarishi bilan bogʻliq yangi axloqiy-falsafiy gʻoyalar shakllanadi. Ana shu zaruriyat yangi-yangi nutqiy ifoda vositalarining paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Bunday ifoda vositalari koʻproq publitsistik uslub orqali namoyon boʻladi¹. Shunga binoan, quyida oʻlkamizning XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayoti bilan bogʻliq holat, oʻzgarish va yangiliklarning oʻzbek tili leksik tarkibida namoyon boʻlish holatini Isʼhoqxon Ibrat qalamiga mansub publitsistik asarlar matni orqali yoritishga harakat qilamiz.

Ibrat asarlarining leksik tarkibiga qaraganda, oʻsha davr oʻzbek tili leksikasida **kalaska aroba** (*Yor-birodar janoblarini ziyoratlari uchun oʻz kalaska arohamiz ila Chustga kelib...²*), **temir yoʻl** (*Namangan temir yoʻlidur. TA 147-bet*), **vokzol, rels** (*Yaʼni vokzoldin, Xoʻqand vokzolidin 28 chaqirim rels temirlarni boshlab bosgan ekan... TA, 147-bet*), **mujik** (*Har ikki mujiklarga bir-ikki tanga berib, alhamdulillah, bizlarga ham rohat boʻladurgʻon vaqti keldi (TA, 147-bet)*), **poʻchtovoy poyezd, iftoroy klas, kollejiski sekretar** (*Kechki poʻchtovoy poyezd ilan iftoroy klasda joy olub, kechasi bir kecha, yaʼni ikki soat turub, yana joʻnab, tamom kun chiqqʻanda Toshkandgʻa, Rusiya ichida Obuxov koʻchada hurmatlu kollejiski sekretar Ibn Yaminbek Xudoyorxon oʻgʻlilarini(ng) 84 hovlisiga qoʻnduk... TA, 147-bet*) kabi yangi soʻz va atamalar kuzatiladi. Bu holat jamiyat hayotiga kirib kelgan yangiliklar bilan bevosita aloqador boʻlib, Ibratning publitsistik asarlarida ham yaqqol namoyon boʻlgan. Qayd qilingan soʻz va atamalar hozirgi

¹ Омонгуриев А. Профессионал нутк эвфемикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. — Тошкент, 2009. — Б. 52.

² Исхоқхон Иброт. Танланган асарлар (напрга тайёрловчилар: У.Долимов, Н.Жабборов). — Тошкент: Маънавият, 2020. — Б. 147. Keyingi misollar ham shu manbadan olindi, TA qisqartma shaklda sahifasi koʻrsatildi.

o'zbek tili adabiy me'yorlariga mos bo'lmasa-da, o'sha davr tili leksikasiga o'zlashayotgan so'zlarning o'zbekcha talaffuz asosida istifoda qilinayotgan shakllar hisoblanadi. Xususan, *vokzol*, *rels*, *poyezd*, *temir yo'l*, *sekretar* kabi so'zlar XX asr o'zbek tili leksikasidan o'rin egallab, o'zbek nutqida faol qo'llanib kelingan leksik birliklar hisoblanadi. Ularning deyarli barchasi hozirgi kun nutqida ham qo'llanadi.

Jamiyat hayotidagi texnika va madaniyat bilan bog'liq yangiliklar ***otash aroba*** (*Ushbu 7-iyulda Namangan otash aroba yo'li bitib, oni ochilganligig'a shukrona bayrami bo'lubdur... TA,149-bet*), ***fotograf***, ***sinimotograf*** (*o'shal asnoda fotograflar va ham alohida chiqarilgan sinimotograf o'shal yerda hozir bo'lub, tasvirlarini olib turibdur... 149-bet*), ***istansiya*** (*Ul poyez Chust istansiyag'a rasmi yurishda yurub borib...TA,149-bet*), ***telegrom*** (*Samso'nuf janoblaridin muborakhod qilib yuborgan telegromni o'qubdurdilar... TA,150-bet*), ***lenta*** (*Mazkur yasatulganni olib kelib siyr tortib qo'ygan lentani kesib, aning ustig'a "Namangang'a salom!" deb yozgan yozuvni vokzolg'a ro'haro' qilib...TA,149-bet*), ***mushak*** (*Ko'b ajoyib mushaklar ham tayyor qilingan ekan...TA,150-bet*) kabi so'z va atamalar orqali ham namoyon bo'lganligini kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Ibratning publitsistik asarlari matnida harbiy sohaga oid o'zgarishlardan dalolat beruvchi o'sha davr tili uchun yangi so'z va atamalarning o'zbek tili leksikasiga oldindan o'zlashgan arabcha, fors-tojikcha so'zlar bilan birga faol qo'llanilgani ham kuzatiladi. Jumladan, ***военный губернатор***, ***ноиб***, (*Farg'ona oblasti janob военный губернаторini noiblarindin, hukumatdordlardan to'suqqa ham otash arobani tezlik birlan kelmog'ig'a inoyat ko'rsatmoqlikni iltimos qilibdurlar...TA,149-bet*), ***politsiya*** (*Ul ko'b hujum bo'lgan sartiylarni politsiyalar mashaqqatlar birlan tarqatib, chekkalarg'a chiqoribdurlar... TA,150-bet*), ***askariya muzikanlar*** (*Ikki nafar askariya muzikanlar nag'ma cholib turubdurlar...TA,149-bet*), ***general gubernator***, ***otliq askar*** (*Turkiston general gubernatori otliq askarlarni ginirali Samso'nuf janoblaridin muborakhod qilib yuborgan telegromni o'qubdurdilar...TA,150-bet*) kabilar.

XX asr boshlarida jamiyatimiz hayotida ta'limdagi o'zgarishlar, matbuot va matbaa sohalarining keng ko'lamda o'zgarishdan dalolat beruvchi **duvuxklasnoy shko'l** (*Toshkandni Xadra mavze'ida bo'ladur gon duvuxklasnoy shko'lda imtihon vaqti ekan...TA, 153-bet*), **imtihon, rusiya zaboni** (*Imtihonda bizni musulmoniya bolalari ham yaxshi, durust rusiya zabonini raso va yaxshi so'zlamogq'a qodir bo'lub, ulug'lar huzurlarida hikoyalarni ikki bola bir-biroviga muqobil savol-javob qilishib, yaxshi imtihon berganlari yana mani shodlandurdi...TA, 149-bet*), **muallim, kaltak, qamchi, alif, babazer, bebazer, o'quv-yozuv** (*Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo'q bahonasi-la besh-o'n sanalar (5-10 yil) osmonga qaratub, "alif, babazer, bebazer", deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o'quv-yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmogq'a taqviyatgina bo'ladur... TA, 155-bet*), **eski maktab, eski domla, yangi usul domla, maktabdor, dehqonchilik hunari** (*Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilgan yangi usul domlalarining himoyasida bo'lgan maktablar vazh etmaki lozimdur. Eski maktabdorlarimiznida dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdur. Bu so'zum janobi muallimlarga – eski va yangi domlalarimizga oxirgi so'zum... TA, 155-bet*), **mullabacha** (*To'rt-besh va yetti-sakkiz sanalar Qo'qong'a yurub, hech narsa bilmagan mullabachalar bitamomihi arabiy mukolamag'a qodir bo'lib, har bir kitoblarni mutolaa etadur gon bo'ldilar... TA, 156-b*), **tuzemniy gazet** (*Tuzemniy gazet idorasig'a bir xabari afsus osor 1910-yilgi ahvoloti xalqiyalarimizdin...TA, 150-bet*), **nomerlik** (*15-nomerlik gazeta bir muhaqqaq Saloh imzosi-la yozgan maqola xo'b durust, to'g'ri maqola ekanki... TA, 151-bet*) kabi so'z va atamalar ham Ibrat publitsistik asarlari matnida faol qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Jamiyat hayoti va sohalaridagi o'zgarish hamda yangiliklarni ifodalovchi **saylov, qozi saylovi, ellikboshi, pristo'f, hokim** (*Har yerda bo'lgan saylovlar xususidagi betartibliklar va befikrliklar millatga oshno kishilarni nihoyatda g'ussa va andishalarga soladur. Chunonchi, O'zgand qozi saylovidek Namangan aholisida ham atroflarida ko'b yerlarda barpo bo'lgan saylovlarda Namangan atrofida bo'lustlar muhofazat qilib, o'z qozilari ilan tortishib,*

ellikboshi degan xalqlarni o'z ixtiyoriga qo'ymaganlarini hamma yerda pristo'f va hokimlar bilib turub man' qilmaganlari fikrga soladurki... TA,151-bet), **milliy qozi, polojeniya** (Milliy qozi bo'lishni polojeniya 223-bobda zikr qilingandurki...TA,151-bet), **idora** (Idoradin: Polojeniya xalq orasida obro' va e'tibori bor odam bo'lsun degan. Albatta, mingboshilikka mingboshi bo'lmoqlikka munosib obro'si bo'lub, qozilikka qozi bo'lmoqqa layoqat va munosabatlik obro' bo'lmoq lozimdur. Polojeniya mulohaza qilmoq kerak...TA,151-bet), **tijorat, zindakorchilik** (Necha ashyoyi jadidalar, chunonchi, ishlarimizda, tijoratimizda, zindakorchiliklarimizni oson bo'lgani, bormak, kelmak yoki bo'lak ish qilmaq oson bo'lgani... TA,152-bet), **moshina** (hamma qo'l ishlariga moshina ixtirolar chiqorilib, oz vaqtda ko'b ish qilishi...TA,152-bet) kabi ko'plab o'z til va o'zga tillarga oid lisoniy-nutqiy birliklar ham yangilik bo'yog'iga ega birliklar sifatida qayd qilinishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, Ibratning publitsistik asarlari matnida faol qo'llangan ijtimoiy-siyosiy leksika tarkibi jamiyat saviyasi, madaniyati va maishiy hayoti bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi o'z va o'zga til elementlaridir. O'zga til elementlari orasida o'zbek tiliga o'zlashib ketganlari ham, yangilik bo'yog'iga ega so'z-atamalar ham bor. Jumladan, **sarf-harajat, ilmsizlik, isrofgarchilik, kukli, rosxud** (Holo ham biz qadimgi, eski andishada mozorlarga sig'inib, o'z dinimizga harakat qilmay. oqcha topsak, xohish uloq, to'ylarga o'n ming sarfi behuda, isrof degan ulamo yo'q. O'lganga besh ming sarf-isrof uchun qaysi ulamo bularga fatvo bergan, halol deb. ... Yoshlar bo'lsa, kukli ila yuradurlar. Qarilar ahli ayolini betartibda, axloqsiz qilib o'sturgan. Uylangandin so'ng rosxud otasidin yedur... TA,154-bet); **gapxona, yong'oq, oshuq, safsata, azkiya, urushmoq, so'kushmoq, maraz dard (jaholat, ilmsizlik), axloqi funun** (Bu muhtalolik, jaholat tartibsiz bo'lub, so'kub, katta qilib, yoshlikda ko'chada yong'oq, oshuq, ondin kattaroq bo'lganda gapxonada safsata, azkiya degan behuda so'z, urushmoq, so'kushmoqni ta'lim oladur. Bu af'oli badlarni, bu maraz dardni dorusi ilmdur... Ilm o'qung, o'qutung, axloqi funun zamonaga darkorlik ilmlar zarur, agar siz shul zamonda turmak bo'lsangiz...TA,154-bet); **shariat, mehrob, ahkomi**

shariat, baytulloh, masjid, jome', amri ba ma'ruf, ba'd az namozi fajr, ba'd az xufton, va'z, mo'min, duo, mav'izan (Biz Turkiston musulmonlari orasinda xilofi shariat odatlarini ko'pligi har kimg'a ma'lumdur. Muning daf'i va islohini kim etar? Bizni fikrimizcha, muning daf'u islohig'a ulamo hazaroti kamari himmat bog'lab, muqaddas mehrob-u minbardan va'z so'ylab, aholig'a ahkomi shariatni bildurub, baytulloh hukmindagi masjid va jome'larida erta-yu kech amri ba ma'ruf va nahy az munkar etib, xaloyiq anglayturgon bir til ilan pandu nasihat etsalar ham muning hech qo'ymasdan har kun ba'd az namozi fajr va ba'd az xufton doim muxtalif mavzu'lardan bahs etsalar, albatta, ta'sirsiz qolmas. Xususan, muqaddas masjidg'a so'ylagan va'z har bir mo'min qalbina du bolo ta'sir etar...TA,156-bet); *olami islom, xalq tili, odobi islomiya, buzuqlik, fasod, zaruriyoti diniya, axloqi islomiya* (Zaruriyoti diniya va axloqi islomiyani alarg'a ta'lim va tanbeh qilmoq kerakdur...TA,157-bet); *ta'lim, hidoyati xalqulloh, jarida* (Sobiq "Samarqand" jaridasi va "Oyna"da ham bir necha daf'a mundan bahs bo'lub edi... TA,157-bet) kabilar.

Ibratning o'z vaqtida mashhur bo'lgan "Mezon-uz zamon" risolasi leksikasi ham o'sha davr hayotining dolzarb masalalari doirasidagi ko'plab tushunchalarni ifodalovchi so'zlarga boy qimmatli manba hisoblanadi. Unda ifoda topgan turli sohalarga oid: *elektriy lamfa, so'm, tiyin, gazlama, bonk, firusent, paxta tijorati, ishtiroy, xizmati milliya* (Bul vaqtinda ulamo va fuzalolardan xalqni taraqqiy va taoliyg'a qo'shmoq yo'lini ko'rsatmak eng katta xizmati milliyadandur...TA,172-bet); *samovar* (Ul nima ekan – yangi samovar chiqqon ekan. Muni ko'rmagon shul xil mubolag'alar qildilarki, bu alomati qiyomatga o'xshar. Na uchunki, ajabo, o'zni ham soladur, suvni ham soladur, bir-biriga aralashmas...TA,173-bet); *gugurd, lamfa, ustalovoy lamfa* (Gugurd yangi kelgonda ko'b kishilar tamoshog'a borgan. Lamfa yangi kelgonda banda bir adad yettinchi ustalovoy lamfa olgan edum, azbaroi yangi va antiqa kitob qo'rmakka deb ani ko'b kishilar otini guhar shabchirog' degan shul emish, deb sodda kishilar ko'b taajjub qildilar...(TA, 173-bet); *paraxo'd* (Farg'onadan bir vaqt ulamo majlisida paraxo'dlarni(ng) oyatda zikri bormu yoki yo'g'mu, deb mukolama bo'lganda...TA,174-bet); *usuli savtiya maktabi, joriy qizlar*

maktabi, uloq, poyga, tamosholik to'y, musofirxona, milyuner, milyun, Amriko (*Amriko shahrida bir milyuner boy necha milyun aqchasini jinni, devonalar foydasiga qo'ygan ekan...TA,178-bet*); *sinimatagrof pardasi (kino ekrani), foytun aroba, kalosh, nizomi siyosiya, Ovrupo liboslari* kabi tushuncha ifodalovchi so'z va atamalarning qo'llanilishi adabiy tilning me'yorlashishiga muayyan darajada hissa qo'sha olgan.

Yuqorida qayd etilgan holatlar asosida Ibrat publitsistik asarlaridan o'rin olgan ijtimoiy-siyosiy leksikasini mavzuiy jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Lavozim, mansabni ifadalovchi so'zlar: *qozi, general, general gubernator, ellikboshi, mingboshi, pristo'f, hokim, milliy qozi, военный губернатор, noib* kabilar;

2. Ma'muriy-hududiy bo'linma va binolar nomi: *viloyat, oblast, uezd, bo'lust, qasaba, qo'rg'on, musofirxona, idora* kabilar;

3. Ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'z va birikmalar: *eski maktab, usuli savtiya maktabi, joriy qizlar maktabi, ta'lim, maktabdor, muallim, kaltak, qamchi, alif, babazer, bebazer, o'quv-yozuv, axloqi funun, ilmsizlik, imtihon, rusiya zaboni, duvuxklasnoy shko'l* kabilar;

4. Matbuot vosita va materiallarini bildiruvchi so'zlar: *gazet, jarida, risola, maqola, Tuzemniy gazet, nomerlik* kabilar;

5. Shaxs otlari: *politsiya, muallim, domla, tijjor, musofir, yo'lchi, milyuner, kollejiski sekretar, askariya muzikanlar, otliq askar* kabilar;

6. Diniy tushunchalar bilan bog'liq so'z va birikmalar: *olami islom, imom, mullabacha, mufti, zaruriyoti diniy, shariat, mehrob, ahkomi shariat, baytulloh, masjid, jome', amri ba ma'ruf, ba'd az namozi fajr, ba'd az xufton, va'z, mo'min, mav'izan, axloqi islomiya* kabilar;

7. Kasb-sohalarni ifodalovchi so'zlar: *paxta tijorati, hammol, dehqonchilik hunari, tijorat, zindakorchilik* kabilar;

8. Ot-ulov, texnika, yo'l bilan bog'liq so'zlar: *otash aroba, foytun aroba, kalaska aroba, paraxo'd, poyezd, ko'nka elektriya, istansiya, temir yo'l* kabilar;

9. Narsa-buyumlarni bildiruvchi soʻzlar: *gugurd, lamfa, elektriy lamfa, elektriya chirogʻ, ustalovoy lamfa, samovar, telegrom, kerosin, kalosh, Ovrupo libosi, gazlama, lenta, mushak* kabilar;

10. Sanʼatga oid yangi tushunchalarni ifodalovchi soʻz va atamalar: *rasm, sinimatagrof pardasi (kino ekrani), fotograf, tomoshaxona* kabilar;

11. Oʻlchov soʻzlari: *soʻm, tiyin, milyun, aqcha, besh ming, oʻn ming* kabilar;

12. Urf-odatlarini ifodalovchi soʻzlar: *uloq, poyga, gapxona, yongʻoq, oshuq, safsata, azkiya* kabilar;

13. Ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar: *bonk, firusent, roxxud, ishtarof, sarf-harajat, isrofgarchilik, saylov, qozi saylovi, polojeniya* kabilar.

Qayd qilinganlardan maʼlum boʻladiki, Isʼhoqxon toʻra Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy tushunchalarini ifodalovchi lugʻaviy birliklar sirasida oʻzbek tilining anʼanaviy tarixiy leksemalari bilan bir qatorda rus tilidan oʻzlashgan yangi tushuncha, narsa-hodisalar nomlari faol qoʻllangan. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hayotning boshqaruv tizimi, iqtisodiy, maishiy sohalaridagi yangilik va oʻzgarishlar bilan bogʻliq tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarga keng murojaat qilinishi kuzatiladi. Bu esa adibning jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi sifatida millatparvarlarning eng oldingi saflarida, qaynoq jabhalarida faoliyat koʻrsatganidan dalolat beradi.

Shoir va nosir, publitsist va noshir, mohir pedagog Isʼhoqxon Ibrat davr ziyoliysi sifatida millat va vatan manfaatlari yoʻlida qizgʻin faoliyat olib borgan jadid maʼrifatparvari hisoblanadi. Adib ijodiga mansub asarlar uning jamiyat ijtimoiy-madaniy, siyosiy hayotidagi faol shaxs sifatidagi oʻrnini, ilmiy-ijodiy merosining ahamiyat darajasini koʻrsatuvchi manba va omillar sanaladi. Ibratning ilmiy, tarixiy, badiiy va publitsistik asarlarida millat yoshlarini vatanga, millatga sadoqat, fidoyilik, ilm-maʼrifatga muhabbat ruhida tarbiyalash gʻoyasi yetakchilik qiladi. Ibrat ilmiy-jodiy merosi boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni yoʻnalishlarini asosida quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) matnshunoslik aspektidagi tadqiqotlar; 2) adabiyotshunoslik

aspektidagi tadqiqotlar; 3) tarixshunoslik aspektidagi tadqiqotlar; 4) lug'atshunoslik aspektidagi tadqiqotlar.

Is'hoqxon to'ra Ibrat ayni paytda o'z davrining yetuk tilshunos olimi ham hisoblanadi. Adibning mazkur davrda milliy tilning sofligini saqlash, uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilini shakllantirish, maktablarda ona tili ta'limini rivojlantirish, ko'ptillilik masalalarida ilgari surgan g'oyalari hozirgi tilshunosligimizdagi nazariy va amaliy mummlar bilan aynanlik kasb etadi. O'zbek milliy tili, tilshunosligining XIX asrning oxiri XX asr boshlari davri bo'yicha amalga oshirilgan ba'zi tadqiqotlarda boshqa jadid ma'rifatparvarlari qatorida Ibratning tilshunoslikka oid qarshlariga, yaratgan asarlarining lingvistik xususiyatlariga ham qisman murojaat qilingan. Biroq adibning tilshunoslik merosi, yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarining til xususiyatlari alohida monografik planda lingvistik tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ibrat publitsistik asarlarida o'z davrining faol ijtimoiy-siyosiy, maishiy leksikasi, madaniy hayoti voqeligini aks ettiruvchi so'z va atamalar qo'llangan. Ular asosan mazkur davr ijtimoiy-siyosiy hayotining boshqaruv tizimi, iqtisodiy, maishiy sohalaridagi yangilik va o'zgarishlar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalardir.

IBRAT ASARLARI LEKSIKASINING TARIXIY- ETIMOLOGIK ASPEKTI VA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ibrat asarlari leksikasida o'z qatlam so'zlari va ularning mavzuviy tasnifi

Har qanday til leksikasining asosiy boyligi so'z bo'lib, jamiyat, til taraqqiyotida ro'y beradigan o'zgarishlar avvalo muayyan tilning lug'at boyligida aks etadi. O'tgan asrning 20-yillarida yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit taqozosi tufayli o'zbek tilining kommunikativ funksiyasi nihoyatda kengayib, leksikologik tadqiqotlar oldiga muhim talablarni qo'ydi. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibini yangicha tamoyillar asosida yoritish, ilmiy-amaliy asoslangan nominativ vositalar bilan boyitish ehtiyoji yuzaga keldi hamda o'zbek tili leksikasini bu xilda yoritish va boyitish ilmiy asarlarda o'z aksini topdi¹. Bu boradagi sa'y-harakatlarda o'zbek tilining lug'at tarkibini tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilish va undagi o'z qatlam hamda o'zlashgan qatlam so'zlarini aniq belgilashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, tadqiqotchi Y.Sayidov doktorlik dissertatsiyasida leksikadagi o'z qatlam tushunchasi keng hodisa ekanligini, shunga ko'ra, o'zbek adabiy tilining o'z qatlam so'zlariga umumturkiy, qadimgi turkiy so'zlar, o'zbekcha va dialektal (o'g'uz, qipchoq kabi) so'zlar kirishini ta'kidlaydi². Til leksikasini tashkil etuvchi so'zlarni bunday yondashuv asosida baholash, tasnif va tavsif qilish – muayyan tilning lug'aviy tarkibi haqida aniq tasavvur hosil qilishda muhim sanaladi.

Tilshunos Y.Sayidovning jadid badiiy asarlari leksikasini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan yuqorida ta'kidlangan doktorlik dissertatsiyasida aniqlanishicha, jadid badiiy asarlari leksik boyligining asosini o'z qatlam birliklari tashkil etadi³. Tadqiqotimiz davomida olimning bu fikri o'z tasdig'ini topdi: Is'hoqxon Ibrat asarlari leksikasining asosini ham o'z qatlam birliklari tashkil etishi

¹ Ўзбек тили лексикологияси // Масъуд муҳаррирлар: А. Ҳожиёв, А. Аҳмедов. – Тошкент, 1981. – Б. 47.

² Сайидов Ё. Жадин бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 86.

³ Shu manba. – B.16.

aniqlandi. U o'z asarlarida o'z qatlamga kiruvchi umumturkiy, o'zbekcha va ayrim lahjaviy so'zlardan unumli va o'rinli foydalanib, o'z qarashlari, fikr-mulohazalarini ommabop usulda ko'pchilik tushunadigan qilib ifodalashga erisha olgan. Shu asosda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra umumturkiy so'zlar ko'pchilik turkiy xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar bo'lib, ular turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan millatlar tiliga mansub leksik birliklar sanaladi. Bunda umumturkiy so'zlar tarkibidagi qadimgi turkiy leksika ham muhim o'rin tutgani kuzatiladi. Zero, qadimgi turkiy tilga oid so'zlar turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining keyingi davrlari leksikasiga ham asos bo'lgan kehg iste'moldagi umumturkiy lug'aviy birliklar hisoblanadi¹. Shunga binoan, Ibrat asarlari leksikasining tarixiy-etimologik, semantik-funksional tavsifini qadimgi turkiy tilga oid leksik birliklardan boshlash maqsadga muvofiq deb topildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiqotimizda Ibrat asarlaridagi qadimgi turkiy tilga oid leksemalar hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi nuqtayi nazaridan baholandi. Til tarixidan ma'lumki, qadimgi turkiy til elementlari o'zbek tilining lug'at boyligida jarqaror o'rin egallab kelayotgan o'z qatlamga oid eng eski umumturkiy lug'aviy birliklardir. O'zbek tilida ijod qilgan har qanday shoir yoki yozuvchi o'z asarlarida ularga murojaat qiladi, chunki ular insonning yashashi, hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-hoatlarni bildiruvchi so'z-atamalardir. Ibrat asarlari tili ham buni tasdiqlaydi. Jumladan, uning she'riy va nasriy asarlarida qadimgi turkiy tilga oid *qut*, *uyqu* kabi umumturkiy so'zlar turli ijtimoiy-maishiy hayot voqeligi tahlili va tavsifida faol qo'llanilgan bo'lib, ular mavhum tushunchani ifodalovchi so'zlar guruhiga kiradi. Masalan:

Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas amal senga qut,
Bekash o'tsang, Ibrat, muhtojo non o'lursan (TA, 54-bet).

G'ofil tursa, g'aflat uyqusidin turguncha, bozori olam o'tub
ketadur (TA, 177-bet); *Subhda Rusiya birdan to'b qo'yganda*

¹ Муталибов С. "Девону дуготит турк"нинг ўзбек тилига муносабати масаласи // Махмуд Қошғарий. Девону дуготит турк. III томлик — Тошкент, Фан, 1960. — I том. — Б. 36.

*uyqu*dagı bechoralar turub qochgani... (TA, 124-bet). Keltirilgan parchalarda kuzatiladiki, ijtimoiy hayotning tubdan o'zgarishi bilan murakkablik kasb etishi *qut*, *uyqu* so'zlarining ma'no ko'lamida yangi ma'no qirralari yuzaga kelishi, ushbu so'zlarning ijtimoiy yuk olishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Umumturkiy so'zlar qatlamidagi qadimgi turkiy tilga oid leksik birliklar orasida kishilarning ishonch-e'tiqodini aks ettiruvchi leksemalar ham o'z o'rniga ega. Tarixning guvohlik berishicha, turkiy xalqlar o'tmishida tangri va tangrichilik tushunchalari alohida o'rin egallagan. O'tmishda tangrichilik diniga e'tiqod qilgan turkiylar bugungi kunda ham tangriga bo'lgan an'anaviy e'tiqodini saqlab kelmoqda. Xususan, oltoy xalqlarida Ko'k tangriga bo'lgan e'tiqod mavjud. Demak, o'zbek tili lug'at tarkibida tangri so'zining barqaror o'rin egallashi qadim tarixga ega xalqimizning o'tmish e'tiqodi bilan bevosita bog'liq. O'zbek tilining keyingi taraqqiyot bosqichida tangri so'ziga nisbatan ma'nodoshlik munosabatini hosil qiluvchi *iloh*, *olloh*, *xudo*, *parvardigor* kabi arabcha, forsha o'zlashmalar o'zbek tilining lug'at tarkibida faollashgan, biroq umumturkiy qatlamga mansub bo'lgan tangri so'zi o'zbek tili taraqqiyot bosqichining barcha davrlarida o'z o'rnı va vazifasini saqlab kelayotganini ham ko'rish mumkin. Bu holatni XX asr boshlaridagi o'zbek tilining o'ziga xos bir nutqiy ko'rinishi bo'lgan Ibrat asarlari tili leksikasi ham tasdiqlaydi:

Tangridin aylamas ibolar,

Ketti hama sharm ila hayolar (TA, 73-bet).

Tana a'zolarining nomini bildiruvchi *ko'z*, *oyog'* (*oyoq*), *yurak*, *yuz*, *qo'l*, *tirnoq*, *bosh*, *bo'yin*, *og'iz*, *bel*, *bag'r*, *quloq* kabi so'zlar: Bu guruhga mansub birliklar Ibrat asarlari matnida faol ishtirok etib, davr voqeligini she'riy va nasriy shakllarda xolis va ta'sirchan ifodalash imkoniyatini ta'minlashga xizmat qilgan: *Chunonchi a'zolaringizdagi ko'z, quloq, qo'l, oyoqlaringiz hamasi bir-biriga xizmat va yordam qiladur* (TA, 170-bet).

Ota, ona, o'g'il, qiz, kelin, er, xotin, bobo, qarindosh, aka, uka kabi qon-qarindoshlikni bildiruvchi umumturkiy so'zlar o'zbek tilining barcha davr bosqichlarida faol qo'llangan lug'aviy birliklar sifatida kuzatiladi. Ularning ko'pchiligi qadimgi turkiy tilga oid leksik birliklardir. Ibrat asarlari matnida ular oddiy xalq hayotiga

oid ayrim ijtimoiy, maishiy masalalar tasvirida yetakchi ifoda vositasi o'rnini egallagan:

Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt.

Nuri diydam, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz (TA, 47-bet).

Oziq (oziq-ovqat ma'nosida), tuz (taom ma'nosida), suv, bol, saryog' kabi oziq-ovqatni bildiruvchi qadimgi turkiy tilga oid umumturkiy so'zlar adibga ijtimoiy hayotning turli muammo va masalalarini tasvirlash, tavsiflashda qo'l kelgan:

Biri der, maydonga suv sep, toza qil,

Biri der, nosog'durmiz uch kishi (TA, 52-bet).

O'quv, yozuv, ip, chiroq, qamchi, beshik, eshik kabi kasb-hunar, mashg'ulotga oid so'zlar insoniyat tarixining barcha zamon va makoni uchun maishiy hayot masalasi dolzarbligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ibrat asarlarida bu masalaga jiddiy e'tibor qaratadi va o'z qatlamga oid mazkur qadimgi turkiy so'zlarni ham o'z ichiga olgan umumturkiy leksik birliklardan unumli foydalangan holda, xalqning maishiy hayot tarzini haqqoniy va ta'sirli qilib ifodalashga erishadi: *Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo'q bahonasi-la besh-o'n sanalar osmonga qaratib, "alif bazavar, bezavar" deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o'quv-yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqg'a taqviyatgina bo'ladi* (TA, 155-bet).

Ta'kidlash joizki, Ibrat asarlari tilidagi qadimgi turkiy tilga oid leksik birliklar orasida atrofimizni o'rab turgan olam, tabiat bilan bog'liq umumturkiy so'zlar muhim o'rin tutadi. Ularni o'z ichida quyidagi mavzuiy guruhlariga bo'lib tavsiflash mumkin:

O'simlik nomini ifodalovchi so'zlar. Bu kabi so'zlar sirasida *o'sma, bug'doy, o'rik, tikan* kabilarni alohida qayd qilib o'tish lozim. Is'hoqxon Ibrat ijodiga mansub asarlar leksikasida kuzatilgan ushbu lug'aviy birliklar poetik fikrni tushunarli va ta'sirchan ifodalashda alohida o'rin tutganligiga guvoh bo'lish mumkin:

O'shal bulbul qilar afg'on sahar vaqti chaman ichra,

Qo'nar gul deb tikan uzra sahar vaqti chaman ichra (TA, 57-bet).

Zoologik leksema-terminlar: *qush, quyruq, ot, teva, tovuq, bo'ri, zog', chayon* kabilar. Davr taraqqiyotining yangi bosqichida ham jamiyat hayotining oldingi davr bosqichlaridan buyon davom

etib kelayotgan hayot voqeligini ushbu guruh tarkibidagi *ot, teva (tuya), bo'ri* singari so'zlar, ayniqsa, yaqqol ifodalab kelgan. Jumladan, umumturkiy birlik bo'lgan *teva* ijtimoiy-maishiy hayotning yangi davrida paydo bo'lgan zamonaviy tushuncha va hodisalardan birini ifodalovchi *poyezd* so'zi bilan bitta jumla tarkibida qo'llanilib, o'sha davr voqeligidagi yangilik tavsifining yorqin ifodasini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilganligini kuzatish mumkin: *Chunonchi, yiroq safarga teva birlan boring desangiz, poyezd turganda (yoki qaniqli degan qalmoq chiqargan sardiya arobasiga izboschik turganda taklif qilinsa), albatta qabul qilmaslar* (TA, 182-bet).

Oy, quyosh, yulduz kabi osmon jismlari nomini bildiruvchi so'zlar. Bu kabi leksik birliklar Ibrat asarlarida ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanib, metafora, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy tasviriy vazifani bajargan:

Oy yuzlari bog'i chaman,

Ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 49-bet).

Sipohi yulduzlar qadar ko'p podshohimki, uning farmon nuri xuddi aylanuvchi quyoshdek barcha mamlakatlarda hokim edi (TA, 99-bet).

Tog', yer, soy, ko'l kabi yer va uning relyefi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Ibrat ijodiga mansub asarlar matnida yer va uning sathi ko'rinishlarini ifodalovchi so'zlar sirasida boshqa tillardan olingan so'zlar ham mavjud bo'lsa-da, o'z qatlamga oid umumturkiy birliklar tarkibidagi qadimgi turkiy so'zlar ustuvorlik qiladi. Bu holatni Ibrat asarlari leksikasidagi hudud geografiyasiga oid so'zlar misolida kuzatish mumkin:

...Havosi yaxshi, tog' yaqin uchun ko'bda issiq bo'lmaydur (TA, 143-bet); *...O'rtasidan Koson soyi o'tadur* (TA, 143-bet); *Xaloyiq ish boshlashib pastu baland, ko'l ila cho'lga* (TA, 64-bet); *Bir kichkina bosh katta yer yuziga sig'may, emdi Xudo va payg'ambarini dargohidan umid etub...* (TA, 134-b).

Tun, kun, tong, kecha, bukun (bugun), erta, kech, ilgari kabi vaqt na'nosini ifodalovchi so'zlar. Ibratning badiiy va tarixiy, publitsistik asarlarida vaqtni ifodalovchi ushbu birliklarning deyarli barchasi qadimgi turkiy tilga oid umumturkiy so'zlardir. Ular turli g'oyaviy-badiiy, uslubiy ma'no-vazifalarni ifodalashga xizmat

qilganini kuzatish mumkin: *Kechasi tun yarmi edi. Ya'qubbek o'g'li Haqqulibek hovlisiga qo'ndim; Ilgari vaqtlarda musulmoniya hukumatida Xo'qand xonlari tarafidin idora qilinadurgon bir hukumati mustaqala edi* (TA, 96-bet).

*Kel ey, **bukun**, ko'zi xumor,*

Ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 49-bet).

Kun so'zining qo'llanilishida o'ziga xos usulni ham uchratdik: ***Hech kun** urushdan xoli turmay, oxirulamr Imom Qutayba amirlashkar erdilar...* (TA, 88-bet).

Qish, bahor, kuz, yoz kabi fasllar nomini ifodalovchi so'zlar. Ushbu guruh so'zlari Ibratning nasriy, she'riy asarlari matnida faol qo'llanishda bo'lib, tabiiy va ijtimoiy voqelikning obyektiv-hayotiy va badiiy tasvirini berishda muhim ifoda vositasi vazifasini bajargan: *Xo'qand askari ilan **qish** vaqtida Chimkandga keldi* (TA, 73-bet); *Ham **bahorda** kim qilur har erda qari birla yosh* (TA, 47-bet); *O'shal vaqt **kuz** vaqti hijriy 1293-94-edi* (TA, 127-b); *O'lturub yetkarur hama ishni, Bilmagay hech **yoz** ila **qishni*** (TA, 68-bet).

Sir emaski, insonning ijodiy mehnati mevasi bo'lgan narsalarning markazida inson va jamiyat turadi. Shuning uchun har qanday ijodkor asarlarida o'zi yashagan va yashayotgan ijtimoiy tuzum bilan bog'liq so'zlarga keng va faol murojaat qiladi. Insonparvar, millatparvar ijodkorlar uchun bu ular yaratgan asarlar tilining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu jihatdan o'zbek adabiyotida jadid harakatchiligi namoyondalariga teng keladigani yo'q. Is'hoqxon to'ra Ibrat ana shunday namoyandalardan biridir. Shu sabab Ibrat asarlarining markazida ham jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va masalasi asosiy o'rin egallaydi va bu holat adib asarlari leksikasida ham o'z ifodasini topgan. Uning nasriy, nazmiy asarlarida ijtimoiy-siyosiy tuzum, davlat tizimi, uning turli sohalari bilan bog'liq leksik birliklar yetakchilik qiladi. O'z-o'zidan tushunarliki, bunday birliklarning ham ko'pchiligi umumturkiy so'zlar bo'lib, ular orasida qadimgi turkiy tilga oid leksik birliklar ham kuzatiladi. Zero, Ibrat, garchi so'nggi choragida bo'lsa-da, ko'priq uzoq asrlardan buyon hukm surib kelayotgan feodalizm jamiyatida yashab ijod qildi. Shu sabab ular adib yashagan davr, voqelik talqini va tavsifida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asosan quyidagi ma'noviy-mavzuiy guruhlariga mansubdir: *xon, bek* kabi

mansab-lavozimni bildiruvchi soʻzlar. Jumladan:*Oxirulamr sakson aroba koʻch xazina va oimlar, beklar, yetti aroba tanga ilan Xoʻqanddan Toshkandgʻa joʻnadi* (TA, 123-bet); *1177-yili Sulaymonbek ibn Shodibekni xon koʻtarub, olti oy bayninda azl va baʼdahu qatl etildi* (TA, 92-bet); *Ul vaqtda Xiva xoni Abdurahimxondin ham elchi kelib...* (TA, 96-bet).

Qilich, qalqon, qoʻshun (qoʻshin), oʻq kabi harbiy sohaga oid soʻz-atamalar. Ushbu soʻzlar bevosita tarix, harbiy yurish, mustamlakachilik siyosati bilan bogʻliq voqelik talqinida faol ishlatilgan. Ibrat oʻzining tarixiy asarlarida aks ettirgan moziyga oid voqea-hodisalar tavsifida ana shu kabi soʻzlardan foydalangan, ular koʻproq harbiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar hisoblanadi: *Shul holda gubernatur yonidan qilichni oʻshal xon oʻlturgon uyni derazasini(ng) oynasiga sekingina urdi, yoniga soldi* (TA, 131-bet); *Buxorogʻa tobeʻ qilib, bir mulk bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon boʻlur edi* (TA, 102-bet); *Oʻq-dori va asbob-u advotlarini tashlab, Buxorogʻa ketdilar* (TA, 122-bet).

Hozirgi oʻzbek tilidagi *qoʻshin* soʻzi Ibrat asarlari matnida *qoʻshun* shaklida qoʻllanilgan boʻlib, bu holat oʻzbek tili tabiatiga xos singarmonizmdan dalolat beradi: *Soʻzi amiri Buxoro qoʻshuni Xoʻqandni qamab, oxiri olub, Muhammad Alixon va Mahmudxonlarni oʻldurub...* (TA, 106-bet); *Jamʼi qoʻshuni Margʻinongʻa borub, anda Sulton Sayyid aʼrajni xon koʻtardi* (TA, 116-bet).

Yolgʻiz, ulugʻ, qizil, qora, buzuq, eski, ogʻir, egri, sovuq kabi belgi-xususiyat bildiruvchi soʻzlar. Shunisi xarakterliki, Ibrat asarlarida bunday soʻzlar oʻz maʼnosidan koʻra koʻproq ijtimoiy-siyosiy maʼno boʻyogʻiga ega birliklar sifatida qoʻllangan. Jumladan, *buzuq* soʻzi koʻchma maʼnosida ishlatilgan boʻlib, ijtimoiy maʼnodagi xususiyat va belgini obrazli ifodalashga xizmat qilgan: *Koʻrdiki, xalqni(ng) atvori buzuq* (TA, 126-bet); *Agar nosharʼiy yoki avlodlaringiz ilmida buzuq ilmlar boʻlsa...* (TA, 175-bet).

Yuqorida qayd qilingan leksik birliklar tavsifidan ayon boʻlyaptiki, Ibrat asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksikaning muhim qismini ijtimoiy-siyosiy atamalar, qavm-qarindoshlik, inson tana aʼzolari va vaqt, belgi-xususiyat tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tashkil etadi. Kasb-kor, diniy tasavvur, osmon jismlari, geografik tushunchalarni ifodalovchi lugʻaviy birliklar miqdori

nisbatan oz bo'lsa-da, o'sha davr voqeligini hayotdagidek ifodalashda muhim tasviriy vosita vazifasini o'tagan. Ammo, qayd etilgan leksik birliklarning Ibrat asarlari tilidagi ulushi, amaliy-uslubiy ahamiyati yuqoridagilar bilangina cheklanmaydi. Shunisi xarakterliki, ularning ko'pchiligi umumturkiy so'zlar sifatida turkiy tillarning deyarli barchasida hozirda ham keng iste'molda qo'llanadi. Ibrat ilmiy-ijodiy asarlari tilida aynan shu tipdagi, ya'ni umumturkiy so'zlarga keng murojaat qilingan. Aytish mumkinki, Ibrat asarlari tili leksikasining salmoqli qismi umumturkiy so'zlardan iborat. Shunga ko'ra, qadimgi turkiy so'zlarni ham o'z ichiga olgan leksik qatlamni alohida mavzuiy guruhlariga bo'lgan holda yanada kengroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Quyida ana shu maqsadni amalga oshirishga harakat qildik.

O'zbek tilshunosligida mavzuiy guruh tushunchasini atroflicha o'rgangan E.Begmatov bu xususda quyidagilarni ta'kidlaydi:

1) so'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish til leksikasini sistema sifatida tavsiflash va o'rganish usullaridan biridir;

2) so'zlarni u yoki bu mavzuiy guruhga mansub deb bilish: a) so'zlar orasidagi ma'no munosabatlariga; b) so'zlarning ashyoviylik (predmetlilik) xususiyatiga, ya'ni so'zning qanday predmet haqidagi tushunchani ifodalashga; d) so'zlarning nominatsion belgilariga bog'liqdir;

3) so'zlarni mavzuiy guruhlariga bo'lishda asosiy o'lchov predmetlilik va nominatsion tomon hisoblanadi¹.

Yuqorida qayd qilinganlarga tayangan holda, Is'hoqxon Ibrat asarlari matnidagi o'z qatlamga mansub umumturkiy so'zlarni quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratish mumkin:

1. Inson tana a'zolarining nomlari: *qo'l, qad, qosh, qon, bag'ir (ko'krak, ko'ks), kiprik* kabilar. Bular sirasida *qo'l* so'zining ham she'riy, ham nasriy asarlar matnida faol qo'llanishi o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, *qo'l urmoq, qo'l bermoq, qo'l solmoq, qo'l qovushtirmoq, qo'l uzatmoq, qo'l ostiga o'tmoq, qo'l ishi, qo'l hunari* kabi barqaror birikmalar tarkibida *qo'l* so'zining ma'no va vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi: *bul jumladan o'zini(ng) qo'l bergan pirini darrag'a yotquzub edi; hukumatga atrofidin qo'l solib;*

¹ Begmatov Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 42.

Rusiya ilan bartaraf bo'lgandan so'ng Buxoro muzofotiga **qo'l uzatib**, ming ikki yuz sakson beshinchi hijriyda Samarqandni oldi: Yarim podshoh **qo'l uzatdi**. Xon **qo'l berdi**. Xonni qo'lini ushlab turub, ancha so'zlar gapurdi; hamma **qo'l ishlariga** moshina ixtirolar chiqorilib; Xudovandi olam ne'mati ilohiyasiga **qo'l urmay**; **qo'l hunarlaridan** har xil va hamma xillari, to'qiladurgan nimarsalar... Misollardan anglashiladiki, Ibrat jamiyat hayotining muhim ijtimoiy masalalari talqinida **qo'l** so'zi bilan bog'liq iboralarning turli ma'no nozikliklarini ilg'agan holda o'ziga xos tarzda samarali foydalana olgan. Shuningdek, **qo'l** so'zi bilan birga qayd qilingan **kiprik**, **qosh**, **qad**, **til**, **bag'ir** kabi so'zlar ham shoirning she'riy asarlarida poetik vazifa bilan birga muhim ijtimoiy mazmunning talqini uchun ham xizmat qildirilgan:

*Xudodin yoki xat oldingmu o'lmaslikka dunyoda,
Qo'lingda bo'lsa ko'rsat o'lmasingga bir xattu hujjat.
Tilingda handaman dersan, qo'lingdan kelmagay bu ish,
Tasarruf aylamay dunyoni nafsingga qilib jur'at.
G'amingda Qozi quling yig'layur hama doyim,
Qoshingni yoy etibon, kiprikni qaro qilasiz* (TA, 76-bet).

2. Qarindoshlik tushunchasini anglatuvchi terminlar: *bobo*, *ota*, *er*, *xotun*, *bola*, *o'g'il*, *qiz*, *ini*, *qaynota*, *orqadosh* kabilar:

Bu Hojibek Sheralixonning atosi Xudoyorxonning bobosidur (TA, 78-bet).

Murodxonni(ng) otasi Olimxon qatlidan so'ng... (TA, 107-bet); *Umarxonning hamshirasi Oychuchuk oyimni eri To'raqo'rg'on hokimi Is'hoqxon to'rani Farg'onadan Buxoro ixroj qilgan* (TA, 101-bet); *Bizlar o'z mahallamizdagi xotunlar, bolalar ilan qochib, hir bog'da yotduk* (TA, 125-bet).

*O'n to'rt o'g'il, yetti qiz bersun Xudovandi jahon,
Uning, o'sing, ey bo'tam, kelin oyim, xush keldingiz* (TA, 47-bet).

Bas, hamalaringiz bir kishini(ng) farzandi: o'g'ul-qiz, og'a-ini (TA, 167-bet).

*Qaynotangiz davlatin Sizga nasib etsun egam,
Toleing bo'lsun baland, yonsun chiroq, xush keldingiz.
Dunyo aylab safarlar, topmadim xo'b orqadosh,
Hasrati dilni deymolmay, hech etmay sirni fosh* (TA, 47-bet).

3. Geografik joy nomlari va relyef otlari: *Farg'ona, To'raqo'rg'on, Toshkand, Xorazm, Buxoro, Samarqand, O'sh; soy, to'qay, yer, ko'l, cho'l, yo'l, tog'* kabilar. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy voqelikning obyektiv yoki badiiy, poetik tasviri va talqinida hududga xos joy nomlari bilan birga hududning geografiyasiga aloqador tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ham o'ziga xos vazifa va ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday so'zlar Ibrat asarlari leksik tarkibida ham muhim o'rin tutadi. O'zbek xalqining tarixi va madaniyati bilan bog'liq epik-etnografik tushuncha, voqea-hodisalar ushbu turkum so'zlari orqali ona tilimizning beminnat vositachiligida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda. Bu borada Ibrat kabi ijodkor ziyolilarimizning asarlari beminnat xizmat qilishi shubhasiz.

*Xaloyiq ish boshlashib past-u baland, ko'l ila cho'lga,
Bihamdullah, bu ishda keldi ko'bni maqsadi qo'lga,
Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi (TA, 64-bet).*

*To'raqo'rg'onda ikki xishtin madrasa, bir hammom, to'rt paxta
zovud, o'n beshdan ziyoda paxta saroy bo'lub, o'rtasidan Koson
soyi o'tadur (TA, 143-bet).*

*Vajhi tasmiyai Xo'qand budurki, xavoqini Xo'qanddan ul
shahar bo'lmagan vaqtda Xo'qand o'rni to'qay va qamushzor
yerlar bo'lub... (TA, 90-bet).*

*Afrosiyob Turon podshohi bo'lib, Andijonni poytaxt qilib,
Ko'nikdar shahridin goho Toshkand va Andijon kelur ekan (TA,
'40-bet).*

*Sheralixon qo'shuni Chirchiqdan o'tkanda Toshkanddan
'oliqni(ng) qo'shuni chiqub... (TA, 101-bet).*

4. Shaxs yoshini ifodalovchi so'zlar. Ibrat asarlari tilida har bir tilda o'ziga xos ma'no va munosabatlarni ifodalashda alohida o'rin egallaydigan shaxs, kishi sotsial belgilaridan bo'lgan yosh belgisi bilan bog'liq tushunchalarni bildiruvchi so'zlar faol qo'llangan. Adib asarlarida xususan, *yigit, qari, yosh, bola, chol* kabi so'zlar nolisoniy omillar sanaladigan jamiyat hayoti muammo va masalalarining badiiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy talqinida muhim ijtimoiy-lisoniy vosita vazifasini bajarib kelgani kuzatiladi. Quyidagilar fikrimiz dalilidir:

***Yigit** qadri it qadridin bo'lsa kam,*

Bo'lurmu yana mundin ortuq alam (TA, 110-bet).

***Yoshlar** bo'lsa, kukli ila yuradurlar, **qarilar** ahli ayolini betartibda, axloqsiz qilib o'sturgan* (TA, 154-bet).

*Yigirmadan ziyoda kichik **bolalar** "alif nima?" degan savolina "kaltak" deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg'on bo'ldilar* (TA, 155-bet). Keltirilgan misollar tarkibidagi *yosh, yigit, bola, qari* kabi so'zlar shaxs va uning yoshi bilan bog'liq shunchaki tushunchalar ifodasi sifatida emas, balki jamiyat hayotida shaxsning tutgan o'rni, burchi va vazifasi, yoshiga nisbatan alohida-alohida mavqe egallashi nuqtayi nazariga ko'ra tanlab ishlatilgan. Shu sababli ularning har biri o'ziga yuklangan ma'no va vazifani aniq va izchil ifodalab kelyapti. Bunday nuqtayi nazar ibratga xos ijodiy o'ziga xoslikdan dalolat beradi. Adib quyidagi mavzuiy guruhlariga ham ana shu g'oyaviy-badiiy asosda murojaat qilgan.

5. Vaqt tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *tun, kecha, oy (bir necha oy), kun, tong, bugun, erta, ilgari, mangu, o'tmish, yil* kabilar:

Bosib xalqi jahonni, aylatoroj o'g'rilar,

*Salomat yotdingizmu, bo'yla **tunlardan** qalaysizlar?* (TA, 50-bet).

*O'sh tarafinda tog'ga ketib, har **kecha** yurub, **tong** otguncha yurub, **ertasi** ko'rsalarki bir farsaxdan ortuq yurmagon ekanlar* (TA, 101-bet).

6. Hayvon tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *qurt, quzg'un, zog', chayon, qush, ot, bo'ri, teva (tuya), it, tovuq, eshak* kabilar:

Bo'ldi bari kibr ila havolig'.

***Qurt** tushub dumog'iga navolig'* (TA, 71-bet).

Ma'lumki, *tovuq* so'zi umumturkiy bo'lib, hozirgi kunda ham barcha turkiy tillarda faol qo'llanadi. Tilshunos olim B.Bafoyev tadqiqotida ushbu so'zning etimologiyasi va turli variantlari bilan bog'liq quyidagi qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan: "Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida *tovuq-tovug'* kabi variantlarda uchraydi... Mazkur so'z O'rxun-Enasoy yozma manbalarida *tabugu* – kuritsa chag; Mahmud Koshg'ariy lug'atida *taqag'u* – bu so'z xo'roz va tovuqlarning har ikkisiga teng qo'llanib, erkagiga *erkak taqag'u*, urg'ochisiga *tishi taqog'u* deb farqlanadi... X-XIII asr boshqa turkiy

manbalarda *tabiku-tavuk* ko‘rinishlarda uchraydi”¹. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Ibrat asarlari matnida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi kabi *tovuq* shaklida qo‘llanilgan: *Podshohga arzi ahvol qilmoq bo‘lib, peshkash uchun non-tuz o‘rnig‘a bisotlaridagi tovuqlarini pishurub non ilan hazrat Iskandarga tutgon ekonlar* (TA, 84-bet).

7. O‘simlik nomlari: *bug‘doy, qovoq, tikan, o‘rik, olma, yong‘oq, zig‘ir* kabilar. Mazkur so‘zlar Ibratning she‘riy va nasriy asarlari matnida ham ancha faol ishlatiladi. *Bug‘doy* so‘zi ayniqsa faol. Adib undan turli uslubiyl ma‘no-vazifalarda unumli foydalangan. Masalan:

Sanga osmondin yog‘urmu aqcha yo bug‘doylar,

Qilma eldin san umidu o‘z ishing o‘zing hajar (TA, 55-bet).

Yoki:

... Ziroati milliyarlari: ***bug‘doy*** va *juvari, arfa ekmoq yo‘q bo‘lib, eslaridan chiqarub, 1913-milodiyda paxta ziroat va tijoratiga o‘rgangan kishilar qarz daryosiga g‘arq bo‘lganlarini mushohada qilib, emdi aqliyat ilan avvalgi ekinlariga muhabbat qilib, avqoti ekmakka tushdilar* (TA, 89-bet).

Ma‘lumotlarga qaraganda, “Hozirgi turkiy tillar lug‘atlarida: qirg‘iz tilida *buuday*, turkman tilida *bugday*, qoraqalpoq tilida *biyday*, turk tilida *bug‘doy*, ozarbayjon tilida *bug‘da*, o‘zbek tilida *bug‘doy*, uyg‘ur tilida *bug‘day*, tatar tilida *boday*, oltoy tilida *buuday*, mo‘g‘ul tilida *ulaan buuday* tarzida keladi”². Quyidagi gaplar tarkibida esa ta‘kidlaganimiz boshqa xildagi o‘simlik nomlarini bildiruvchi umumturkiy so‘zlar so‘zlovchi maqsadining xalqchil ifodalanishini ta‘minlashga xizmat qilayotgani kuzatiladi: *Nikoh to‘ylar mahallaga bir osh, zig‘ir yog‘i ilan tortub, aqd xolos edi* (TA, 89-bet); *Qurudi o‘rik, olma, yong‘oqlar, Xo‘jasini qo‘yub bag‘riga dog‘lar* (TA, 89-bet).

8. Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi so‘zlar. Ibratning asarlarida katta ijtimoiy masalalar talqini bilan birga maishiy hayot masalalari tahlili ham jiddiy yondashuvlar asosida yoritilganligi uning asarlar leksikasi orqali ham o‘zining ishonchli ifodasini topgan. Ibrat asarlari matnidagi, *chiroq, ip, pichoq, qozon, eshik, yostig‘ini quritmoq* kabi so‘z va iboralarning ishlatilishida ana shu

¹ Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б 114.

² Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б 41.

holatni kuzatish mumkin: *Yarim podshoh keldi, eshikdan kirdi. Bir tilmoch ilan kirib, xonga salom qildilar* (TA, 131-b); *Qaro chiroq yoqar erdilar, elektriy lamfa qandog' rohatdur* (TA, 89-bet).

9. Oziq-ovqat va ichimlik tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar: *sut, un, suv, qaymoq, saryog' (sariyog'), tuz* kabilar. Bu soʻzlar ham boshqa soʻzlar guruhi singari oʻzbek tilining lugʻat boyligida alohida oʻrin egallab turadi. Ibrat ijodiga mansub asarlarda inson hayoti, tirikchiligi va kundalik tashvishlari bilan bogʻliq tushunchalarni ifodalovchi soʻz va iboralarning qoʻllanishi jamiyat hayotining mazkur leksik birliklar nomlab kelayotgan narsa-hodisalar bilan bogʻliq kundalik, maishiy masalalarning adib tomonidan muhim ijtimoiy muammo sifatida qaralganidan dalolat beradi:

Xoʻraklari boʻlsa, milliy bugʻdoy oshi – goʻja, qarilar – atala, gohi tariq oshi, sut-qatiqdan iborat edi (TA, 186-bet); *Podshohga arzi ahvol qilmoq boʻlib, peshkash uchun non-tuz oʻrnigʻa bisotlaridagi tovuqlarini pishurub non ilan hazrat Iskandarga tutgon ekonlar* (TA, 84-bet); *Qishloq fuqarolari taraflarindin mutasaddilar qarshi chiqib, non-tuz ushlab; shahar qilmoq boʻlganda, oʻshal yerni(ng) daryo tarafi butun shoʻr koʻl boʻlub yotgan tuz ekan* (TA, 141-bet). Qayd qilingan misollarda *tuz* soʻzining juft shaklda qoʻllanishi oʻziga xos boʻlib, bunday qoʻllash ishonch, oʻzaro hurmat-izzat, samimiy munosabatga xos maʼnolarni ifodalashga ham xizmat qilgan.

10. Masofa tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: *uzun, yaqin, yiroq* kabilar:

Uzun umri-la olam ahligʻa shoh oʻldi ul Qorun,

Oʻlib ketdi, hama dunyosi qoldi, oldimu muhlat (TA, 110-bet).

11. Tomon, oʻrinni ifodalovchi soʻzlar: *oʻng, soʻl, tomon, yon, chet, oldin, ost, orqa* kabilar.

Ming uch yuz-u yigirma sakkiz erdi bu temir yoʻlga,

Kelib ish boshlagan erdi qaramay oʻng ila soʻlga... (TA, 76-bet).

12. Tabiat hodisalarini ifodalovchi soʻzlar: *shamol, bulut, chaqmoq* kabilar:

Fisq loyigʻa botqon bosh-oyogʻimni koʻrgach; ... bolani(ng) boshida bulut soya qilgan ekan, kiyik emizub turgan ekan va qush

soya solgan ekan, deb xalqni(ng) qulog'ig'a o'rnatub... (TA, 92-bet).

13. Osmon jismlarining nomlari: *oy, quyosh, yulduz* kabilar:
Sipohi yulduzlar qadar ko'p podshohimki, uning farmon nuri,
Xuddi aylanuvchi quyoshdek barcha mamlakatlarda hokim edi
(TA, 99-bet).

14. Harbiy terminlar: *o'q, yoy, xanjar, qilich, qalqon, qo'shin,*
o'rdu, yoy kabilar:

Ul ham: "Murtad deb sani ayturlar, yurtningni poymol qilib,
musulmonlarni ayog' osti qilding!" deganda, xon qilich sug'urub,
ul ham qilich olganda qazoq askarlar xonni muhofazat qilib,
jo'natub yubordi (TA, 129-bet).

15. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *ishchi, boy, qul, solig',*
ellikboshi, xon, qorovul, yo'lovchi, bosmachi, boshchi, to'ra, urush
kabilar:

Bular fursat berganda arablar ilan urush qilmoqg'a qodir
bo'lmay, O'ng'or hokimi Karvonbas degong'a qochub borib,
maslahat so'ragon (TA, 86-bet).

Ibrat olsunlar hama ishchi buning mazmunidin,

Ishlasang, qandingni ol, gar dangasa bo'lsang zahar (TA,
55-bet).

16. Etnonimlar (urug' va xalq nomlarini bildiruvchi so'zlar):
turk, chig'atoy, o'zbek, qoraqalpoq, turkiy, qipchoq kabilar:

"And" turk urug'ini(ng) o'zbeklarini aytur (TA, 139-bet);

Chig'atoyda "kon" yoki "g'on" yo "qon" bo'ladur (TA, 141-bet);

Farg'ona aholisi aksariyatda o'zbek, sort, tojik, qoraqalpoq,
qipchoq tog' taraflarinda ... qirg'iz – yerli xalqlar bulardin
iboratdur (TA, 89-bet).

17. Mavhum tushunchalarni anglatuvchi so'zlar: *uyqu, yod,*
qut, ish, qo'rquv, ko'ngil kabilar:

Haqqulibek uyquda ekan, darhol uyg'onib chiqdi, xonni(ng)
xatini qo'liga berdim (TA, 130-bet).

Ming uch yuz-u yigirma sakkiz erdi bu temir yo'lga,

Kelib ish boshlagan erdi qaramay o'ng ila so'lga... (TA, 64-
bet).

18. Holat-xarakterni ifodalovchi so'zlar: *qorong'u, to'g'ri,*
yangi, go'zal, ochiq, tentak kabilar:

Ne bu yerga qo'yib ketma, sarf qil, illo keyin

Qorong'u gor ichida ushbu sango ofatdur.

Agarda yangi ilm, yangi yo'l, yangi olam, yangi asrdin bid'atni oroda qilib, so'filik qilurman desalaringiz, xotiri jam' bo'ling. Eski nimarsa qolgan? (TA, 64-bet).

19. Rang-tus, maza-ta'm, haroratni bildiruvchi so'zlar: *qizil, ko'k, qora, tus, oq, sovuq, quruq, suchuk, shirin* kabilar:

Berahm zolim, qizil qonga bo'yading. Sen ham mendek nuri chashmingdan ajrab, xonavayron bo'l! — deb alfoz ila og'ziga nima kelsa qaytarmay, amirni hech pisand qilmay turganda, oni yaqinlarini(ng) hammasini so'ydirgan ekan (TA, 102-bet).

Og'zidan la'l sochadigan ul suxandonning,

Bugun og'ziga qora tuproqdan muhr bosilgan (TA, 64-bet).

Suchuk til bila tabassum qilib, so'rab holim,

Avvalda va'da berib, oxiri jafo qilasiz (TA, 57-bet).

Shirin zabonim sen eding.

Ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 49-bet).

20. Narsa-buyum nomlari: *kiyim, eshik, qamchi, beshik, qum, tosh, omoch, mola, sirka, yeng, ko'ylak, yog'och, tuproq-tufrog', to'qmoq, o'tin, to'n, tarozu, nos, o'sma, chiroq, belbog'* kabilar:

O'tin yorsang, tepada yormay, pastga tushib yorgil, xonni tepasida taraq-turuq qilma (TA, 138-bet); Bu Oltun beshikni(ng) xalq'a xonzoda ekanin ravshan qilmoqda necha ilova so'zlar qo'shulub, bolani(ng) boshida bulut soya qilgan ekan (TA, 91-bet).

21. Miqdor, hajm, o'lehovni anglatuvchi so'zlar: *bir, ikki, to'rt, yuz, besh, oz, ko'p, butun, ortiq, og'ir, kichik, ming* kabilar:

Sipohi yulduzlar qadar ko'p podshohimki, uning farmon nuri

Xuddi aylanuvchi quyoshdek barcha mamlakatlarda hokim edi (TA, 99-bet).

Rusiya askari bularni(ng) beparvoligidan istifoda qilib, oz askar ila ba'zilar besh yuz, ba'zilar ming miqdorda edi, deyдилar (TA, 122-bet).

22. Shaxs tushunchasini bildiruvchi so'zlar: *men//man, san//sen, o'z, biz, ul, alar//ular, birov, kimsa, shu//shul, bu, barcha, kishi* kabilar:

Men o'zum ham o'zumd'a qarashlik o'nta-o'n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim

achib, Qozon tarafında bir muallim jalb edub, maktab qilib verdim (TA, 155-bet).

23. Harakat-holatni bildiruvchi soʻzlar: *sol(moq), ket, tur(moq), koʻr, boq(ing), oʻrgul, toʻk(ub), ista(r), kelmoq, yigʻlamoq, aytmoq, ushlamoq, boqmoq* kabilar:

Boqing, mahalla maktabida usuli qadimda yetti yil umrni zoyiʻ etub, oʻquv-yozuvni bilgon edum (TA, 176-bet); *Har kim oʻz bolasiga qulochini yozub yigʻlamoq, qariyb bir yarim soat yigʻlashub, soʻngra bizlarni va birga borganlarni toʻydurub, farsi ahvol boʻldi* (TA, 125-bet).

Yuqorida amalga oshirilgan tasnif va tahlillardan anglashiladiki, Ibrat asarlaridagi umumturkiy soʻzlarning aksariyati, ayniqsa, shaxs, qarindoshlik munosabati, hayvon, qush, oʻsimlik, tabiiy hodisalar va geografik obyektlarining nomlari, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi soʻzlar hozirgi tilimizda deyarli oʻzgarishsiz qoʻllanadi. Ibrat asarlarida harakat-holat, narsa-buyum, geografik joy nomlarini ifodalovchi umumturkiy soʻzlar salmoqli oʻrin egallaydi.

Demak, oʻzbek tilining oʻz qatlami taniqli lugʻatshunos E.Begmatov taʼidlaganidek: a) umumturkiy soʻzlardan; b) umumturkiy soʻzlardan yasalgan oʻzbekcha soʻzlardan; d) chet til elementi negizida oʻzbek tilining oʻzida, oʻzbekcha affikslar qoʻshib yasalgan soʻzlardan; e) oʻzbekcha soʻzlarga chet tillardan oʻzlashgan qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilingan soʻzlardan hamda lahjaviy soʻzlardan iboratdir¹.

Hozirgi oʻzbek tili leksikasining turkiy asoslari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Chunki turkiy obidalar tilida uchrovchi soʻzlar bu obidalar egasi boʻlgan turkiy urugʻ va qabilalar tilida VII-VIII asrlardan avval ham mavjud boʻlgan. Binobarin, qadimgi turkiy soʻzlarning oʻziga xos muhim xususiyati ularning deyarli barcha turkiy tillarda uchrashidir. Boshqacha aytganda, qadimgi turkiy leksikaning asosiy negizini tashkil etuvchi, eng faol va hayotiy soʻzlar barcha turkiy tillar leksikasi uchun umumiydir. Turkiy soʻzlarning bir qator turkiy xalqlar tillarida mavjudligi va asrlar davomida bu tillarda qoʻllanib kelayotgani, hozirda ham saqlangani turkiy tillar leksikasida umumiylikni, oʻxshashlikni, yaʼni oʻxshash

¹ Begmatov E. Hozirgi ʻzbek adabiy tilining leksik katamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B.57.

lugʻat fondini yuzaga keltirgan. Shunga koʻra, ular umumturkiy soʻzlar deb ataladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Isʻhoqxon Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi sifatida umrini Vatan va millat manfaatiga qaratgan jadidlarning yirik namoyondalaridan biri boʻlib, tilni soflashtirish maqsadida badiiy asarlari tilida, qadimgi turkiy tilga oid umumturkiy oʻz qatlam soʻzlarini, uning asosini tashkil qiluvchi lugʻaviy birliklarni keng qoʻllashga harakat qilgan. Shuning uchun adib asarlarining tili yerli xalq tiliga hamohangdir.

Ibrat asarlari leksikasida oʻzlashgan va oʻzga til elementlari

Maʼlumki, oʻzbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqada boʻlib kelgan. Bu holat oʻzaro aloqada boʻlgan xalqlarning tiliga muayyan darajada oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmaydi, albatta. Oʻzaro taʼsir natijasida tilning barcha sathlarida (fonetika, leksika, grammatika) oʻzgarishlar yuz beradi. Tildagi oʻzgarish va rivojlanish boshqa sathlarga nisbatan leksikada yaqqol namoyon boʻladi.

Tilda baʼzi soʻzlarning eskirishi natijasida isteʼmoldan chiqishi qonuniy holat boʻlgani kabi, yangi soʻzlarning yuzaga kelishi ham tabiiydir. Yangilik boʻyogʻi bor boʻlgan til birligiga neologizm sifatida baho beriladi. Neologizm yunoncha *neos* – *yangi* demakdir.

Tilda ikki xil holatda neologizmlar yuzaga kelishi kuzatiladi:

1. Yangi voqelikning nomi sifatida yuzaga keladi. Bu koʻproq muayyan tilda oʻzga tilga oid soʻzning dastlabki qoʻllanish davriga toʻgʻri keladi.

2. Avvalda nomlangan voqelikning yangi nomi sifatida yuzaga keladi: Masalan, *jamoat xoʻjaligi* (kolxoz oʻrnida), *tuman* (rayon oʻrnida), *viloyat* (oblast oʻrnida).

Til birliklarining yangilik boʻyogʻiga egaligi nisbiy holatdir. Soʻz har doim neologizm boʻlib turavermaydi. U keng isteʼmolga oʻtishi bilan yangilik buyogʻini yoʻqotib, odatdagi soʻzga aylanadi¹. Ayni shu tipdagi soʻzlar doirasida oʻzlashma yoki oʻzlashgan soʻzlar ham qayd qilinadi. Hozirda oʻzbek tilida uch xil tipdagi oʻzlashma

¹ Ўзбек тили практикуми. 1-кисм. // Масъуд муҳаррири: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005. – Б.71.

soʻzlar qatlam holiga kelgan. Bular: 1) fors-tojikcha oʻzlashma soʻzlar qatlami; 2) arabcha oʻzlashma soʻzlar qatlami; 3) ruscha-baynalminal oʻzlashma soʻzlar qatlami. Biroq Ibrat yashagan davrda rus tiliga oid soʻzlar hali oʻzlashma maqomiga oʻtmagan, oʻzbek tili uchun yangilik boʻyogʻiga ega neologizm edi. Shu sababli ularni oʻzga til elementlari deb atashni maʼqul topdik.

Albatta, Ibrat asarlarida qoʻllangan fors-tojik va arab tillariga oid soʻzlar ham turkiy (oʻzbek) tilga kirib kelgan davrda yangi soʻz neologizm hisoblangan. Biroq dastlabki davrda neologizm xarakterida boʻlgan soʻzlar keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga boʻysunishi, xuddi oʻz soʻzidek tabiiylik va aniqlik kasb etishi, ommalashishi, fonetik qayta shakllanishi, grammatik singishi, soʻz yasash tizimida faol ishtirok etishi, oʻzbek tili nutqida takror-takror va faol qoʻllanishi tufayli uning yot elementligi sezilmay qoladi, qabul qiluvchi til tomonidan oʻzlashtiriladi, oʻzlashma soʻzga aylanadi. Binobarin, XX asr boshida oʻzbek tilidagi fors-tojikcha, arabcha soʻzlar allaqachon oʻzlashib, oʻzlashma soʻzlar qatlamini hosil qilib boʻlgandi.

Oʻzbek xalqi oʻziga qardosh boʻlmagan tojik xalqi bilan qadimdan yaqin aloqada boʻlib keldi. Shuningdek, ijtimoiy-tarixiy sabab va omillarga koʻra arablar, moʻgʻullar, ruslar bilan ham aloqa munosabatida boʻlgan. Hozirgi davrga kelib yangi sharoitda bir qancha xorijiy davlatlar bilan ham oʻzaro hamkorlik munosabatlari oʻrnatildi. Ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bugungi kunda oʻzbek tili leksikasidagi koʻplab chet soʻzlarning oʻzlashish jarayoni ketmoqda.

Demak, oʻzbek tili lugʻaviy tarkibining oʻzlashmalar qatlami – oʻzbek tiliga qarindosh boʻlmagan tillardan turli davrlarda oʻzlashgan soʻzlardan iboratdir. Tarixda, yuqorida taʼkidlanganidek, fors-tojik, arab tillaridan koʻplab soʻzlar oʻzlashtirilgan. Keyingi davrlarda, xususan, XX asrda rus tilidan soʻz oʻzlashtirish kuchli boʻldi¹. Hozirgi paytda ingliz, arab tillaridan soʻz oʻzlashtirish kuchayib bormoqda.

Maʼlumotlarga koʻra, dunyo tillari orasida ogʻzaki va yozma muloqotni faqat oʻz lugʻat boyligiga tayanib, amalga oshiradigan birorta til yoʻq. Har bir tilda oʻz soʻzlari bilan birga oʻzlashma

¹ Ўзбек тили практикуми. I-қисм. // Масъул мухаррир: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005. – Б. 66. – 96.

soʻzlar qatlami ham mavjud. Shu sababli til sathlari orasida eng oʻzgaruvchan sath leksik sath hisoblanadi. Bu holat oʻzbek tilining lugʻat tarkibida yaqqol kuzatiladi.

Oʻzbek tili lugʻat boyligini tashqi manbalar hisobiga boyitish, kengaytirish – chet tillardan soʻz oʻzlashtirishni koʻzda tutadi. Yuz yildan ortiq vaqt mobaynida rus tilidan va u orqali boshqa tillardan oʻzbek tiliga koʻp sonli soʻz va terminlar oʻzlashtirildi. Shuningdek, oʻzbek tilidagi tarixiy oʻzlashma qatlamlarning imkoniyatlari – oʻzbek tilidagi arabcha, fors-tojikcha soʻzlar qatlami ham yangi maʼno va terminologik funksiyalarda aktivlashtirildi. Natijada oʻzbek adabiy tilining (umuman oʻzbek milliy tilining) lugʻat sostavi yangi-yangi soʻzlar, terminlar, iboralar hisobiga boyidi, uning leksik-semantik sistemalarida yanada rivojlanish, silliqilanish, oʻtkirlashish, toʻlishish yuzaga keldi¹.

Oʻzbek tiliga turli davrlarda, turli tillardan oʻzlashgan soʻzlarni tadqiq qilish boʻyicha maʼlum tadqiqotlar amalga oshirilgan². Olib borilgan ilmiy izlanish natijalariga qaraganda, oʻzbek tilining lugʻat boyligidagi oʻzga tillardan oʻzlashgan soʻzlarning asosiy salmogʻi arabcha, fors-tojikcha va ruscha (rus tili va u orqali oʻzlashgan) soʻzlarga toʻgʻri keladi va 30-35 %ni tashkil etadi³.

Biz Ibratning barcha asarlari (nasriy va nazmiy) tilidagi forscha, arabcha va ruscha soʻzlarni ular bir-biridan maʼlum darajada farq qilgani sababli mavzuiy guruhlar boʻyicha alohida-alohida tasniflashni maʼqul koʻrdik. Dastlab oʻzlashmalar ichida eng qadimgisi hisoblangan fors-tojikcha soʻzlar qatlamiga eʼtibor qaratdik. Ibrat ijodiga mansub asarlar tilidagi fors-tojikcha soʻzlarni ajratishda qator manbalar bilan birga, F.Isomiddinov, H.Doʻsmatov va J.Juma hammuallifligida yaratilgan “Oʻzbek tilining fors-tojikcha

¹ Ўзбек тили лексикологияси // Масъуд муҳаррирлар: А.Хожиев, А.Ахмедов // – Тошкент, 1981. – 315 б. – Б.47.

² Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1946; Усмонов О., Хамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960; Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараккиятининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974; Бафоев Б. Павоний асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг тарихий-этимологик қатламлари // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981; Далабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.

³ Назаров П. Ўзбек тилига ўзлашган сўзлар ҳусусида // Хорижий филология. № 4. 2019. – Б. 54-58.

o'zlashmalar lug'ati¹dan foydalandik¹. Ushbu o'quv lug'ati o'zbek tilidagi fors-tojikcha o'zlashmalarga bag'ishlangan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"²dagi so'zlar asosida tuzilgan. Lug'atda o'zlashmalarning komponentlari, qaysi tilga oidligi, morfemik tarkibi (ma'noli qismlari) maxsus jadval asosida qayd qilingan. Bu holat esa lug'atdan foydalanuvchining fors-tojikcha o'zlashmalar haqida keng va batafsil ma'lumotga ega bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Mazkur manba asosida Ibrat asarlarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarni quyidagi mavzuiy guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Narsa-buyum nomlarini ifodalovchi so'zlar: *parda, toj, taxt, xirmon, xok, gavhar, chimmat, zanjir, zahar, qog'oz, kamar, sham, durbin-durobin, chodir, gardish, domon-doman, ro'mol, zar, tarozu, belhog', aroba, gugird, dom, dori, ful-pul, giribon, dar, dahana, xisht, gard, paymona, darvoza, xas, surma, namak, noma, tillo, afsar, ohan, otash, charx, dud, oyna, guhar, dor, rishta, sim, chimmat, ko'za* kabilar.

2. Qarindoshlikni anglatuvchi nomlar: *birodar, do'st, farzand, jigarpora, domod, zan, pusht, mehmon, mezbob, damsoz, xesh, padar* kabilar.

3. Mansab va kasb-kor nomlari: *shoh, savdogar, dehqon, so'fi, podshoh, usta, xo'ja, rahbar, do'kondor, eshon, sozanda, duradgor, gado, nonvoy, dahog'in, xoja, ustoz, mardikor, dahon, ohangar, payk, joh, sarkor* kabilar.

4. Tabiat hodisalari va osmon jismlarining nomi: *gardun, hur, axtar, osmon, moh, sitora* kabilar.

5. Fitonimik tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: *sarv, gul, nargis, sabza, paxta, alaf, giyoh, dona, kunjut, bang, barg, daraxt, xirmon, lola, meva, g'uncha, rayhon, karam* kabilar.

6. Zoonimlar: *ohu, murg', darranda, mohi, sher, zog'* kabilar.

7. Mavhum tushunchalarni bildiruvchi so'zlar: *dard, umid, baxt, anduh, andisha, afg'on, bahona, gumon, gunoh, fig'on, sharm, ozod, motam, bazm, orzu* kabilar.

8. Oziq-ovqat nomlari: *non, osh, go'sht, xo'rdani, xo'rish, palov* kabilar.

¹ Исомиддинов Ф., Дўсематов Х., Жума Ж. Ўзбек тилининг форс-тоjikча ўзлашмалар лугати. – Фаргона, 2022.

9. Diniy tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi soʻzlar: *xudo, pari, motam, namoz, musulmon, afsona, paygʻambar, jon, parizod, banda, behisht, gunoh, ajdaho, zunnor* kabilar.

10. Harbiy terminlar: *sipoh, tiyr, nayza* kabilar.

11. Odam va hayvon aʼzolari nomi: *tan, chehra, dil, lab, zulf, chashm, zabon, ustuxon, xol, poy, diyda, dandon, miyon, goʻsh, gardan, ogʻush, panja, badan, xun, dimogʻ, bozu, ruh, mardum, roʻy, kokil, dahan, dast, kamar, sar* kabilar.

12. Belgi-xususiyat bildiruvchi soʻzlar: *shoʻr, toza, mehribon, dilbar, bemor, kambagʻal, parishon, bandi, barno, durdona, daroz, baland, past, xoʻb, dardkash, shirin, biyobon, mastona, xasta, sargardon, parvona, aftoda, koʻhna, xursand, mast, mardona, dilozor, pokiza, gung* kabilar.

13. Vaqt, zamon tushunchasi bilan bogʻliq soʻzlar: *bahor, dam, shom, hafta, jahon, zamon, shab, yaldo, shabiston, goh* kabilar.

14. Shaxs tushunchasi bilan bogʻliq soʻzlar: *jonon, yor, juvon, mardum, banda, kas, mard, bonu, bachcha* kabilar.

15. Joy tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: *zamin, saroy, koʻcha, shahar, gulzor, bogʻ, hovli, biyobon, mozor, maydon, joy, mayxona, dasht, koʻh, goʻr, bozor, korxona* kabilar.

16. Bogʻlovchilar: *chunki, yoki, garchi* kabilar.

Qayd qilinganlar koʻrsatib turibdiki, fors-tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tilining oʻz soʻzlari qatorida qabul qilinadigan, oʻzga tilga mansubligi sezilmaydigan ijtimoiy-maishiy hayotning turli jabhalarida faol qoʻllanishda boʻlgan keng isteʼmol leksik birliklardir.

Ibrat asarlari matni lugʻaviy tarkibidan joy olib, turli lisoniy-nutqiy maʼno-vazifalarda ishlatilgan fors-tojikcha soʻzlar qatnashgan quyidagi misollar fikrimizning dalilidir: *Ansorki ahli Madina, muhojirki ahli Makkadurlar, oʻrtalariga birodarlik solub, birodari zohiriyni birodari botiniy arqoni bila boyladilar, mahkam qildilar, chunonchi, akdi rasul botin edi, paygʻambarlikki rasuli zohirdur, muayyad qildilar* (TA, 91-bet); *Forsiy lafzi birla namakon – namak kondur. Muni(ng) maʼnisi shul ekanki, bizni Chigʻatoy tilida asli gon yoʻq, bu shevai forsiydur* (TA, 141-bet); *Panjshanba kuni kelib, shabi panjshanba degan osh...emdi oʻlikka* (TA, 178-bet); *Imtihonda bizni musulmoniya bolalari ham yaxshi, durust rusiya zabonini raso va yaxshi soʻzlamogʻa qodir boʻlub...* (TA, 153-bet);

Ommaga hiyot zamin-yerlarga faxol-xoshok solub o'tquzub... (TA, 187-bet); *Kassobu qo'yfurushlar – jangu jadal urushlar, Bechoralar fuliga go'sht ustixon bo'lubdur* (TA, 51-bet).

Guvohi bo'lyapmizki, keltirilgan nasriy va nazmiy asarlar matnida *birodar*, *namak*, *shab*, *zabon*, *zamin*, *ustixon* kabi forscha-tojikcha so'zlar xalqimiz ijtimoiy-maishiy hayotiga oid muhim voqea-hodisalarni ifodalashda o'z qatlam so'zlari bilan birga faol ishtirok etgan. Fors-tojikcha *zamin* so'zining o'zbekcha muqobili *yer* leksemasi bilan birga juft holda qo'llangani, adibning *namak* so'zining forsiy ekanligiga o'zi izoh berib o'tgani ham shundan dalolat beradi. Buning natijasida, hozirgi o'zbek tilida ko'plab o'z qatlam so'zlari o'zlarining sinonimlariga ega bo'lgan. Masalan, *buloq* (o'zb.) – *chashma* (toj.), *yaproq* (o'zb.) – *barg* (toj.), *butoq* (o'zb.) – *shox* (toj.), *manglay* (o'zb.) – *peshona* (toj.), *oltin* (o'zb.) – *tilla* (toj.), *quyosh* (o'zb.) – *oqfob* (toj.) kabi¹.

Yuqorida keltirilgan leksemalardan o'zbek tiliga fors-tojik tilidan ko'proq ot turkumiga oid so'zlar o'zlashtirilganini ko'rish mumkin. Biroq uzoq yillik doimiy aloqa-munosabat tufayli tilimizga sifat va ravish turkumiga oid fors-tojikcha so'zlar ham o'zlashgan. Jumladan, *dardkash*, *dilbar*, *astoydil* kabi. Fors-tojik tilidan nafaqat mustaqil so'zlar, balki yordamchi so'zlar, jumladan, bog'lovchilarning faol o'zlashgani ham kuzatiladi. Ibrat asarlari tilining leksik tarkibi ham buning isboti:

Guldek yuzingni, dilbarim,

Ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 48-bet).

Farg'onaga kelib, anda bo'lgan mo'g'ullar ilan muhoraba qilib... (TA, 85-bet).

Turkiy tillar orasida ko'proq o'zbek tilida kuzatiladigan ushbu holat o'zbek va tojik xalqining uzoq zamonlardan buyon bir hudud, bir makonda yonma-yon, qo'ni-qo'shni bo'lib yashayotgani, tili boshqa bo'lsa ham, dili, dini, urf-odatları bir xil ekani bilan izohlanadi. Ko'pni ko'rgan ulug'larimiz o'zbek va tojik ikki tilda gaplashuvchi bitta xalq deyishadi. Bu do'stlik, birdamlik olis tarixga borib taqaladi. Manbalarning guvohlik berishicha, turkiy urug'-

¹ Ўзбек тили практикуми. 1-қисм. // Масъуд муҳаррир: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005. – Б. 69. – 96 б.

qabila tillarining, keyinchalik o'zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi¹:

1. Turkiy urug', qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug' tillari bilan aloqasi va qo'shilishi (qadimiy davrlarda).

2. O'zbek tilining fors-tojik adabiy tili (IX-X, XI-XV asrlar) bilan aloqasi.

3. O'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha). Qadimiy eroniy tillar, tojik xalq tili, tojik adabiy tili va tojik xalq shevalari bilan o'zbek tilining tarixiy aloqalari o'zbek tiliga eroniy va tojik tilidan ko'pgina so'zlarning kirib kelishi va o'zlashishiga asos bo'ldi. O'zbek tilida yaratilgan, ijod qilingan asarlarning leksikasi, shu jumladan, Ibrat asarlarining tili buning to'la-to'kis tasdig'i. Fors-tojikcha o'zlashmalar o'zbek tilining lug'at fondida ham salmoqli o'rin tutadi. Ularning ko'pchiligi o'zbek tilining o'z so'zlari bo'lib ketgan, o'zlashmaligi umuman sezilmaydi. Chuqur ilmiy izlanishlar, etimologik kuzatishlar natijasidagina ularning fors-tojikcha ekanligi aniqlangan. Ibrat asarlari tilidagi fors-tojikcha o'zlashmalar haqida ham shunday deyish mumkin.

Yuqorida ko'rdikki, Y.Sayidovning hisob-kitobiga ko'ra arabcha o'zlashmalar Ibrat asarlari leksikasida fors-tojikcha o'zlashmalardan biroz ko'proq, ya'ni 27%ga 52% nisbatda. Biroq hozirgi o'zbek adabiy tilida arabizmlarning nisbati bu darajada emas. Ma'lumki, turkiy tillarga arabcha o'zlashmalar va grammatik elementlar dastlab xalqni islomlashtirish natijasida kirib kelgan. VIII-XV asrlarda ulkan xalifalik davlatining barpo etilishi va Markaziy Osiyo xalqlariga islom sivilizatsiyasining kirib kelishi natijasida boshqa tillar qatorida turkiy tillarga ham arabizmlar o'zlashishiga qulay sharoit yaratildi. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan adiblar o'z asarlari tilida o'zbek tilining lug'aviy boyligidan foydalanganlari holda, an'anaviy arab tili leksik boyligidan ham keng foydalanishgan. Islom dini tili arab tili bo'lganligi, madrasa va maktablarda shu tilda ta'lim berilganligi, ta'lim tizimidagi o'quv adabiyotlari, umuman yozma manbalarning aksariyati arab tilida bo'lganligi, o'zbek mumtoz adabiyotida keng

¹ Ўзбек тили лексикологияси // Масъуд муҳаррирлар. А.Ҳожиев, А.Аҳмедов. – Тошкент, 1981. – Б.79

qo'llangan arabcha poetik leksikani qo'llash an'anasi hali o'z kuchini yo'qotmaganligi, ko'plab ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy, diniy, falsafiy va boshqa xil tushunchalar arabcha so'z va terminlar yordamida ifodalanganligi mazkur lingvistik jarayonning asosiy sabab va ildizlarini topishga imkon beradi. Bizningcha, Ibrat asarlarida arabcha o'zlasmlarning hozirgidan farq qilib 32% nisbatda bo'lishi ham shu bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan materiallar Ibrat asarlarida qo'llangan arabcha o'zlashmalarni quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratish imkonini berdi:

1. Diniy-afsonaviy tushuncha va tasavvur nomlari: *ruh, fol, abul bashar, ahodis, vahdat, vojib, vojib ul-vujud, zulfiqor, kalami qadim, kuffor, muvahhid, mushrik, sahoba, sirot, sunniy ul-mazhab, tavhid, xatmi Qur'on, mo'min, g'ayb, jannat, bid'at, islom, badaviyat, Rab, qiyomat, imon, oshiq, zuhd, malak, fano, farishta, farz, mahshar, jahannam, jinon, sanam, hadis, fatvo, ummat, islom, kofir* kabilar.

2. Ilm-fan bilan bog'liq so'zlar: *kutub, manqaba, ma'ol, maoniy, muxoraba, sanoe', tadvin, funun, ariza, fan, qalam, madaniyat, ilm, sahna, san'at, sahifa, kitob, rasm, haykal, handasa, ma'rifat, tarbiya, maorif, islohot, ta'lim, tamaddun, maktab, dars, nashr, ulamo, tahsil* kabilar.

3. Makon-zamon tushunchalari bilan bog'liq so'zlar: *avon, azal, aknof, alhol, arz, aflok, kurrai arz, mavzi', maqarri hukumat, tavorix, Mag'rib, Mashriq, mamlakat, qal'a, masjid, sahar, vaqt, avval, tarix, asr, madrasa, taraf, olam, subh, dahr, nahor, Sharq, qabr, tabiat, dunyo, oxir, qibla, zamon, davr, G'arb, mahalla, maskan, vatan, samo, fasl, davr, makon, nahr, hilol, qasaba, janub, ramazon, takya, idora, manzil* kabilar.

4. Belgi-xususiyat anglatuvchi so'zlar: *zolim, mazlum, munis, qallob, harom, faqir, aziz, ahmoq, mag'rur, asir, mag'lub, asabiy, qimmat, vahshiy, g'ofil, miskin, ulfat, mahbub, fotih* kabilar.

5. Antroponim va toponimlar: *Laylo, Ra'no, Adan, Rasul, Huvaydo, Sulaymon, Misr, Ayman, Rahim, Shirin, Ka'ba, Shom, Fir'avn, Mashrab, Sa'diy, Odam, Ismoil, Umar, Usmon, Yasor* kabilar.

6. Mavhum tushuncha ifodalovchi soʻzlar: *balo, davo, xayol, qimmat, hayot, qadr, hol, haq, la'nat, fikr, ta'sir, nur, alam, zulm, muqaddas, saodat, jahl, umr, g'am, arz, rohat, hajr, qalb, quvvat, g'azab, vafu, halokat, ishq, illat, madh, jafu, shafqat, xizmat, qasam, muhabbat, hasrat, intiqom, haqiqat, qahr, zahmat, insof* kabilar.

7. Mansab, unvon, kasb-hunar tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar: *tolib, kotib, sulton, hoji, noshir, xodim, tujjor, muxbir, jarroh, muhandis, hakim, mudarris, qozi, vakil, akobir, anbiyo, zobit, nabi, nadim, najjor, talaba, umaro, fuzalo, havuqin, shoir, ulamo, mulla, olim, amir qassob, tojir, allof, fohisha, shayx, jallod, so'fi, muarrix, hokim, tabib, kasb, imom, zohid, hoji, mufti, a'lam, rais* kabilar.

8. Inson tomonidan yaratilgan narsa-buyum nomlari: *marqat, ma'vo, ma'kulot, qabr, rasm, taom, sandal, imorat, sandiq, kabob, libos, xamir, shakar, atlas, mato, sikka, mansujot, soat, bino, kafan, sham, sadaf, dur, qafas, madrasa, ovqat, jubba, xat, qalam, masjid* kabilar.

9. Qush, parranda va hayvon nomlari: *bulbul, tovu, hayvon, mol* kabilar.

10. O'simlik va daraxt nomlari: *sunbul, rayhon* kabilar.

11. Shaxs va jamiyat tushunchasi bilan bog'liq soʻzlar: *anom, a'lam, ahkom, ahvod, mannuha, ma'shar, millat, ism, odam, inson, majlis, xalq, xaloyiq, suhbat, zavja, jabha, sabiy, umm, bashariyat, oila, saltanat, ittifoq, inqilob, firqa, avlod, qavm, taloq, ajal, mashvarat, tujjor, qabila, umum, nikoh, millat, raiya/fuqaro, volida* kabilar.

12. Etikaga oid soʻzlar: *shukur, hazrat, taklif, tabassum, va'da, muborak, hurmat, xayr, tasadduq, takalluf, marhamat, iltifot, salom, haqorat, rahmat, marhum, muhtaram, munosabat, mukofot, janob, sohib* kabilar.

13. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari: *alfoz, lafz, lison, sukun, tavzih, hikoyat, taxallus, alifbo, ijod, asar, maqol, ash'or, masnaviy, qof, shoir, she'r, hikoya, maqol, mazmun, marsiya, bob, tasvir, osor, sarf, takallum* kabilar.

14. Harbiy terminlar: *asbobi harb, zobit, muxoraba, muhosara, muqofizat, solor, g'oziy, sayf* kabilar.

15. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *sarir, inqilob, iqtisod, istiqloq, ittihad, hukumat, muxolif, muqovola, muxtor, davlat, zakot, jadic, islohot, nizom* kabilar.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, Is'hoqxon Ibrat asarlarida qo'llangan arabcha o'zlashmalar kishilik jamiyati hayoti va faoliyatining turli sohalariga tegishli bo'lsa-da, ko'proq din, ta'lim, ilm-fan, iqtisod, siyosat bilan bog'liq jabhalarga tegishli narsa-hodisalar, tasavvur-tushunchalarni ifodalovchi lug'aviy vositalar bo'lib, adibning turli mavzulardagi she'rlari va nasriy asarlari leksikasida muhim o'rin tutadi. Muallif ulardan asar g'oyaviy-badiiy mazmunining keng xalq ommasiga tushunarli va ta'sirli bo'lishi uchun o'rinli foydalangan.

Aytilganlarning isboti sifatida Ibrat asarlari matnida qo'llangan arabcha o'zlashmalarga misollar keltiramiz: *Valhosilki bular da ilmga ahamiyatlari bo'lmoqlik uchun bu xalqimiz nodon, omilarimiz ko'b bo'lib, avlodlari o'yun- kulgiga mashg'ul bo'lub ...* (TA, 156-bet); *Imom Qutayba bin Muslim kelib, Buxoro tarafda bu mamlakatni butun islomobod qilib, bu shaharlardan ko'b ulamo va fuzalolar chiqmish ekon* (TA, 85-bet); *Hattoki, bir ansorni(ng) ikki zavjalari bo'lsa, birini taloq qilib, digarlariga qabuli nikohladilar* TA, 171-bet); *Mullalarni(ng) urgan yeridan qiyomatda gul o'karur, o'tda kuymas, qamchi tekkan yeri og'rimas deb musohala qilib, taftishidan ibo va haqiqatidin imtino' etmishlar ekan* (TA, 113-bet); *Karvonbasga noma kirguzgonlarida yalg'ondan iymon kelturub, musulmon bo'lub, istiqbollariga chiqib, o'rdasiga taklif qilib, necha kunlar ziyofat qilib, bir sohibjamol qizini berdi* (TA, 86-bet); *Andijon lafzi asli Andigon bo'lsa kerak. Bu Forsistondan qo'shulgondur* (TA, 139-bet).

Ayon bo'lyaptiki, yuqorida keltirilgan misollarda qo'llangan *avlod, ulamo, fuzalo, zavja, qiyomat, iymon, lafz* kabi arabcha leksemalar Ibratning shaxs va jamiyat munosabatlariga oid qarashlarining ta'sirli, xalqqa yaqin qilib ifodalashda muhim tasviriy vosita vazifasini o'tagan. Shunisi xarakterliki, ularning aksariyati hozirgi adabiy tilimizda ham faol ishlatilmoqda. Demak, Ibrat arabcha o'zlashmalardan ham o'rinli foydalanib, o'ziga xos so'z qo'llash mahoratini ko'rsata olgan. Umuman olganda, adibning nazmiy, nasriy asarlari leksikasida yuqorida keltirilgan genetik

jihatdan fors-tojikcha hamda arabcha soʻzlarning uchrashi va ulardan shoirning oʻrinli va mohirlik bilan foydalanishi muallifning arab va fors-tojik tillarini, shuningdek, oʻzbek mumtoz adabiyoti tili meʼyorlarini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Taʼkidlash joizki, Ibrat asarlarida qoʻllangan rus tili va u orqali kirib kelgan yevropa tillariga oid baynalmilal leksik birliklarning aksariyati davr neologizmlari hisoblanib, adabiy til lugʻat tarkibiga singmagan edi. Oʻz davrining ilgʻor fikrli, yangilik, yangilanishlar tarafdori boʻlgan Ibrat ruscha va u orqali oʻzlashgan baynalmilal leksik birliklarga nutq vaziyati talablariga koʻra ancha faol murojaat qilgan. Shu oʻrinda aytib oʻtish joizki, hali soʻz qabul qilish, imlo tamoyillari ishlab chiqilmagani bois, ular hozirgidan jiddiy farq qiluvchi, shaxsiy qarash, yondashuvga asoslangan holda oʻziga xos qoʻllanish xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ular salmoqli miqdorni tashkil qilmasa-da, quyidagi mavzuiy guruhlar tarkibida kiritish mumkin:

1. Antroponimlar: *Kaufman, Samsoʻnov.*

2. Toponimlar: *Maskov, Rusiya, Petrograd//Petrograd, Ades, Fransiya, Faris//Farish, Berlin, Vena, Madrid, London//Lundun, Rumo, Vashington, Tokio//Tokiyo, Istanbul.*

3. Vaqt, son-miqdor tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar: *mart, desyat.*

4. Savdo va moliya sohasiga oid terminlar: *belat, kridit//kredit, summa, zakaz, torgovli.*

5. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *rayon, sud, partiya, zakun, rapurt.*

6. Sanoat va transport sohalariga oid nomlar: *vagon, traktur, avtomobel//aftomobel, konka//koʻnka, foyiz, iliktr//elektr, ayruflon, mashina//moshina, texnika, zavod, pechka.*

7. Narsa-buyum nomlari: *kamzul, tort, samavar//samovar, koʻfiya, lampa//lamfa, gramafon, fonar.*

8. Mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar: *general, gubernator, imperatur, doʻxtir, gosudar.*

9. Oziq-ovqat va ichimlik nomlari: *tort, fiva.*

10. Aloqa sohasi leksikasi: *tilifonist, tilifun, tilgirom-telegram, tilfonogram.*

11. Etnik nomlar: *oʻrus, farang, yunon, lotin, nemis.*

12. Harbiy sohaga oid terminlar: *geniral*.

13. O'rin-joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *vokzol, adres*.

14. Madaniyat, san'at va maorifga oid terminlar: *jaz, ro'l, gimnastika, gazet, jurnal-jurnol, slovar*.

15. Poliz ekinlari nomi: *pomidor, karto'shka*.

E'tibor qilinsa, keltirilgan so'zlarning aksariyati keyinchalik o'zbek tilining lug'at boyligidan joy oldi, o'zlashtirildi. Ammo Ibrat yashagan davr uchun ular yangilik bo'yog'iga ega o'zga til elementlari edi. To'g'ri, ular orasida *Paris, desyat, torgovli, zakun, ko'nka* kabi so'zlar o'zbek tiliga o'zlashmaganlari ham bor, biroq ular o'zlashganlariga nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Kuzatishlarimizga qaraganda, Ibrat asarlarida rus va u orqali o'zlashgan baynalmilal leksik birliklardan toponimlar, sanoat va transport sohalariga oid, mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi so'zlar hamda madaniyat, san'at va maorifga oid terminlar salmoqli o'rin egallaydi. Bu holatni o'sha davr ijtimoiy tuzum, siyosiy hayot voqeligi asosida izohlash mumkin. Ayon bo'ldiki, adib asarlarida XX asr boshlarida rus tilida faol qo'llangan aksariyat so'zlar hozirdagiday o'z asliga mos fonetik shaklda berilmay, o'zbekcha talaffuzga mos yozma shaklda berilgan.

Ibrat asarlarida qo'llangan ruscha-baynalmilal va o'ziga xos leksik qo'llashlar o'sha davr jamiyati hayotidagi o'zgarishlar, ijtimoiy tuzum voqeligi ta'siri natijasidir. Bu holatni quyidagi matnlar misolida yaqqol kuzatish mumkin: *Muni matbuot vositasi qalam ilan aytsak, aksar bu ulamolarimiz jaridotlar (gazet-jurnallar)ni ham bid'at va harom bilib, ahli ilmni o'qumoqdan, avomunnosni eshitmakdan man' qilur* (TA, 170-bet); *14-avgust edi. Ya'ni, vokzoldin, Xo'qand vokzolidin 28 chaqirim rels temirlarni boshlab bosgan ekan* (TA, 147-bet); *Asrimiz madaniyati bor edi... Chunonchi, otash aroba, telegram, telefon, elektr fonarlar, necha xil uchadurgan ayruflon, gramafon, litograf, tifograf, aftomobil, tilsiz telegramlar, necha-necha ashyoviy jadidalar, anvoyi adidalar hammasi mavjud edi* (TA, 20-bet); *Bir hammom, bir nechta zavodi bor. Chustni(ng) sharq tarafiga yangi shahar deb o'ruscha shahar bino qilingan edi* (TA, 127-bet); *So'z shul ekanki, xon kelur, general gubernatur xonni ko'rgani kelur, omonlashur, so'ngra ayturki: "Gosudar imperaturni borib ko'rub kelasiz!" der* (TA, 130-

bet); *Dehqoniy ishi bularda paxta ham rivojda va lekin xususiy dehqonchilik karto'shkaga bular ko'b mutaxassis bo'lganlar* (TA, 127-bet).

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, o'zbek tilining lug'at tarkibiga XX asr boshlarida ruscha va baymalmilal leksik birliklar shiddat bilan kirib kela boshlagan. Chor Rossiyasi hukumatining umumruslashtirish siyosati rus tilining milliy tillarga, shu jumladan, o'zbek tiliga ham ta'sirini o'tkazgan. Tarixiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy omillar tufayli o'zbek tiliga o'zlashgan fors-tojik, arab, rus tiliga oid so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibida sezilarli iz qoldirdi. Leksik qatlamlarni yuzaga keltirdi. Buning o'ziga xos ijtimoiy-lingvistik sabab va omillari mavjud. Bunday sabablarning muhimlaridan biri o'zbek tilining fors-tojik, arab va rus tillari bilan aloqasida o'zbek tilining egasi bo'lgan xalqda ikki tillilikning yuzaga kelganligidir. Tillarning o'zaro aloqasi va hamkorligi ko'p holda ushbu tillar orasida so'z almashishga, bir tildan ikkinchi tilga so'z olishga sabab bo'ladi. Bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi uchun muayyan ijtimoiy-madaniy sharoit, muhit lozim. Bu sharoit ikki tilning shunchaki aloqasi, yonma-yon yashashi, hududiy yaqinlashishi emas, balki o'zaro ta'siri, hamkorligi, bu asosda yuzaga keluvchi ikki tillilik hodisasidir. So'z o'zlashishi uchun qabul qiluvchi til egalari yoki ularning ma'lum qismi qabul qilinuvchi element mansub tilni ma'lum darajada bilishi lozim¹.

Xulosa qilish mumkinki, Is'hoqxon Ibrat o'z asarlari matnida qo'llagan o'zga tillarga oid so'z va birikmalar ijtimoiy hayot muhiti, tarixiy zarurat asosida baholanmog'i lozim. O'sha davrda ijod qilgan boshqa o'zbek ijodkorlari singari Ibrat ham o'zbek tilining boy lug'ati bilan birga o'zga til birliklari, ya'ni genetik manbai forscha, arabcha, ruscha-banalminimal bo'lgan o'zlashma leksik birliklardan ham o'rinli foydalangan, o'z qarashlarini an'anaviy va o'ziga xos uslubda ifodalashga erisha olgan.

¹ Ўзбек тили лексикологияси // Маъсул мухаррирлар: А.Ҳожиев, А.Ахмедов. – Тошкент, 1981. – Б.80-81.

Ibrat asarlarida qoʻllangan soʻzlarning leksik-semantik munosabatlari tavsifi

Maʼlumki, badiiy, publitsistik asarlarda ijodkor individual uslubiga xos xususiyatlarni, lisoniy imkoniyatlardan qay darajada foydalanish mahoratini aniqlashda lugʻaviy birliklarning leksik-semantik munosabatiga, asarlar matnida ularning qay tarzda voqelanishi masalalariga ham eʼtibor qaratiladi. Mazkur muammoni Isʼhoqxon toʻra Ibrat asarlari tahlili misolida koʻrib chiqamiz.

Sinonimlar. Maʼlumki, shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli boʻyoq va ifoda tusi bilan ifodalaydigan sinonimik birliklar oʻziga xos lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularning yuzaga kelishida ichki va tashqi lisoniy manbalar ishtirok etadi. Sinonim leksemalar orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil boʻlib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida *yuz–bet–aft–bashara–turq* qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Maʼnodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: *“odam boshi old tomoni”*, *“peshonadan iyakkacha”*. Ammo ifoda semalari har bir leksemada oʻziga xos. Aniqrogʻi, *“shaxsiy munosabat”* har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon boʻlgan. U *yuz* leksemasida *“shaxsiy betaraf munosabat”* koʻrinishida boʻlsa, *turq* leksemasida *“oʻta kuchli shaxsiy salbiy munosabat”* tarzida¹.

Maʼnodosh soʻzlar muayyan tilning lugʻaviy jihatdan boylik darajasini koʻrsatib beruvchi oʻziga xos lingvistik hodisa, vosita hamdir. Tilda maʼnodosh soʻzlarning miqdoran koʻp boʻlishi tilning estetik vazifasini yanada toʻliq bajara olishini osonlashtiradi. Bu holat qadimgi davrlardan beri anglangan, idrok etilgan va oʻrganilgan. Oʻzbek tili ham maʼnodosh soʻzlarga juda boy tillardan sanaladi. Ijodkorlar tilimizdagi maʼnodosh soʻzlar orasidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan soʻzni topib, tanlab, oʻz asarlari matnida qoʻllashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik

¹ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 87.

qirralarigacha aniq, ifodali, ta'sirchan qilib ko'rsatib berishga erishadilar¹.

Mahoratli, tajribali, zukko ijodkorlarning asarlari sinonimik birliklardan unumli va samarali foydalanish namunalari ham hisoblanadi. Ulardagi sinonim so'zlar nutqni chiroyli, ta'sirchan va ravon qilishda, so'z sehrini namoyish etishda, ortiqcha takrorlarga yo'l qo'ymaslikda, bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashning eng muhim vositalaridan biriga aylanadi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, badiiy matndagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri, muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifoda maqsadi va mazmuni uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi, ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir². Ibrat ijodiga mansub asarlarda yuqorida qayd qilingan har ikki holat ham kuzatiladi. Misollarga murojaat qilamiz: *Bir asokiri shonahu ilan o'tub borub turur ekan, bir hammomdan obi musta'mal chiqib, navdan oqib turgan ekan. Ulamolarga xitob qilibdurki: "Bul suv hukmi shari'atda nimadur?" deb* (TA, 94-bet). Ushbu o'rinda *suv* va *ob* so'zlarining ma'nodoshligi asosida umumiy fikr yo'sinida har ikki ma'nodosh ham o'z o'rnini va vazifasida qo'llangan.

Quyidagi nutq parchasida qo'llangan *zamin* va *yer* sinonim so'zlari esa juft holda ishlatilib, fikrning ta'sirchanligiga erishishni ta'minlash bilan birga matn muallifining o'ziga xos ifoda uslubini namoyon qilishga ham xizmat qilgan: *Ommaga hiyot zamin-yerlarga faxol-xoshok solub o'tquzub...* (TA, 186-bet).

Ilmiy manbalarda aniqlanishicha, sinonimik munosabatda bo'lgan so'zlar o'zbek tili lug'at boyligining turli leksik qatlamlariga mansubdir. Masalan, anglamoq (o'zb.) – tushunmoq (o'zb.); go'zal (umumtil) – suluv (dial.); xat (ar.) – maktub (ar.) – noma (f-t.); kishi (o'zb.) – odam (ar.); ko'k (o'zb.) – osmon (f-t.) – falak (ar.); analiz (r-b.) – tahlil (ar.); tema (r-b.) – mavzu (ar.) kabi³.

¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б.51.

² Shu manba. – Б.51.

³ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2005. – Б.169.

Yuqorida keltirganimiz parchalarda qoʻllangan *ob* va *suv*, *zamin* va *yer* sinonim soʻzlari ham shunday tabiatlidir, yaʼni *ob*, *zamin* fors-tojik tiliga, *suv*, *yer* esa oʻzbek tiliga, uning oʻz qatlamiga oid leksemalar hisoblanadi. Sinonim soʻzlarni hosil qilishning bir qator yoʻllari mavjud. Shulardan biri soʻz oʻzlashtirish natijasida sinonimlar hosil qilishdir. Ular orasida juft soʻz shaklidagilar ham koʻp. Muallif asarlarida maʼnodoshlikning shunday tiplaridan ham oʻrinli foydalana olgan: *Oʻz uyimizda **validai** marhumamdan oʻqub savod chiqardim. Ikki sana **qiblagoh**imdan husnixat mashq etdim* (TA, 176-bet).

Muallif mazkur matnda *ona* va *ota* tushunchalarini ifodalashda oʻzlashma qatlam birliklari boʻlgan *valida* bilan *qiblagoh* soʻzlarini *ona* va *ota* soʻzlari qoʻllanishi lozim oʻrinlarda qoʻllab, nutq taʼsirini, ekspressivligini oshirishga erishgan. *Valida*, *qiblagoh* soʻzlarining badiiy uslubga xoslik belgisiga egaligi muallifning kommunikativ maqsadini samarali taʼminlash omili boʻlib xizmat qilgan. Mazkur soʻzlar maʼno munosabatiga koʻra uyadosh soʻzlarning oʻziga xos bir koʻrinishi boʻlib, ayni matnda ham uyadoshlikka asoslangan va maʼno-vazifasi faollashtirilgan. Adib bunga birining oʻz maʼnosi, ikkinchisining koʻchma maʼnosi asosida erishgan.

Ibrat asarlarida sinonimiyaning feʼl shakllari bilan bogʻliq oʻrinishlari imkoniyatlaridan ham unumli foydalanilgan. Quyidagi ap tarkibida adibning *ado qilur* bilan *bitirur* feʼllari sinonimligidan samarali foydalanganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin: *Shaharni(ng) ehtiyojini qishloq **ado qilur**, qishloqni(ng) ehtiyojini shahar **bitirur**...*(TA, 161-bet). Ibrat asarlarida adib zamonasidagi oʻzbek nutqiga xos ifoda va uslub koʻrinishlari shu tarzda oʻziga xoslik kasb etib, oʻquvchi diqqatini oʻziga jalb qiladi. Bunda maʼnodoshlikning barcha turlaridan ustalik bilan foydalanadi. Quyidagi parchalardagi sinonimlarga eʼtibor qaratamiz: *Shaharlar **ozoda**, changdan, boʻyi baddan **toza** boʻlsa...* (TA, 27-b). Mazkur jumlada *toza* va *ozoda* sifat soʻzlari sinonim sifatida qoʻllanib, takrorning oldini olish bilan birga, fikr taʼsirchanligi va nutq ravonligini oshirishga xizmat qilgan. “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati”da ushbu soʻzlarning sinonimik qatori quyidagicha

berilgan¹: “toza, ozoda, pok, pokiza, sof, musaffo, beg‘ubor, g‘uborsiz. Ifloslikdan, gard-g‘ubordan holi. **Toza** juda keng qo‘llanadi. **Ozoda** so‘zida belgi darajasi kuchliroq. **Pok** nisbatan kam qo‘llanadi. **Pokiza** ma‘noni bir oz kuchliroq ottenkada ifodalaydi. **Sof, musaffo** shu ma‘noda kitobiy hisoblanadi va ikkalasi ham ko‘pincha havoga nisbatan qo‘llanadi. **Musaffo** ma‘noni kuchli ottenkada ifodalaydi”. Izohlardan ma‘lum bo‘ladiki, *toza* so‘ziga nisbatan *ozoda* so‘zida belgi darajasi kuchli. Shu sabab lbrat shaharning ifloslik va gard-g‘uborlardan xolilik darajasiga nisbatan *ozoda* so‘zini qo‘llagan, *toza* so‘ziga nisbatan *ozoda* so‘zida qayd qilingan belgining kuchliligi shunday samarali yo‘l tutish omili bo‘lib xizmat qilgan.

Qurug‘aydi ko‘z yoshim ul parilar ilkidin,

Seli ashkimni ko‘rgach, chekti barcha domonlar (TA, 48-bet).

Ushbu jumla tarkibida shoir *ko‘z yosh* va *ashk* so‘zlarining sinonimik munosabatidan unumli foydalanib, o‘ziga xos poetik tasvirni yaratgan. Zero, *ashk* forscha so‘z bo‘lib, izohli lug‘atda ko‘z yoshiga sinonim sifatida quyidagicha tavsiflangan: **ASHK** [*f.* – ko‘z yoshi] *esk. kt.* **1.** Ko‘z yoshi, yosh. *Ohim bila eshikda o‘t, ashkim bila devor nam. A.Navoiy. Bulut bag‘rin oy hajri go‘yo so‘kar, Nedin yo‘qsa ashkini yummay to‘kar. A.Navoiy*². Demak, adib asarlarida sinonimik qatordagi ayrim eskirgan so‘zlarni ham faollashtirgan.

Quyidagi she‘riy parchada esa *ulfat, o‘rtoq* so‘zlarining o‘zaro ma‘nodoshlik munosabatidan samarali foydalanilgan:

Uchimiz te‘dod etay, yaxshi biling,

Ulfat-u o‘rtog‘durmiz uch kishi (TA, 52-bet).

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *ulfat* va *o‘rtoq* so‘zlariga quyidagicha izoh berilgan: **ULFAT** [*a.* – rozilik; ittifoqlik, inoqlik; yaxshi ko‘rish, mehr, muhabbat] **1.** Suhbat, ziyofat va sh.k. da doimiy birga bo‘ladigan kishilar birligi, shunday kishilardan iborat bo‘ladigan yig‘in; ulfatchilik. **2.** Shunday yig‘in, ulfatchilikning har bir qatnashchisi, a‘zosi (boshqalariga nisbatan); jo‘ra. **3.** Umuman,

¹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 194-195.

² Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилдди, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.148.

shubbat, ziyofat va sh.k. uchun to'plangan (ikki va undan ortiq) shaxslar. ulardan har biri (bir-biriga nisbatan). 4. *ayn. ulfati*. 5. *ko'chma* Doim birga bo'luvchi narsa; "sherik". 6 Ulfat (erkaklar va xotin-qizlar ismi)¹.

O'RTAQ 1. Yoshi teng yoki yaqin bo'lib, o'zaro yaxshi aloqada bo'lgan tengdoshlar (bir-biriga nisbatan); birga o'sgan; tengdosh. *do'st. oshna*. 2. Dunyoqarashi, faoliyati, yashash sharoiti va sh.k. jihatidan bir, g'oyaviy jihatdan yaqin kishi; hamfikr, hamg'oya. 3. *rasm*. Kishilarga murojaatda, odatda ularning familiyasi, kasbi, unvoni va sh. k. bildiruvchi so'zga qo'shib ishlatiladi. 4. *s.t. ayn. turmush o'rtog'i*; er yoki xotin, rafiq yoki rafika. 5. Biror ish-faoliyatda birga bo'luvchi, biror narsani baham ko'ruvchi; sherik².

Anglashilyaptiki, *ulfat* va *o'rtoq* ko'p ma'noli so'zlar bo'lib, *do'st, oshna* ma'nosida o'zaro sinonimlik hosil qiladi. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da ham mazkur so'zlar sinonim sifatida ko'rsatilib, quyidagicha tavsiflangan³: "O'rtoq, do'st, og'ayni, oshna, jo'ra, ulfat, birodar, hamdam, dugona, tomir, cho'qqot. Qarashlari, faoliyati va sh.k. tomonlari bilan o'zaro yaqin bo'lgan shaxs; do'stlik, o'rtoqlik munosabatidagi shaxs. **Do'st** so'zida o'rtoqlik munosabatidagi yaqinlik yana ham kuchliroq bo'ladi. **Oshna, og'ayni** yozuv tiliga nisbatan so'zlashuv tilida ko'proq qo'llanadi. *Jo'ra, birodar, ulfat* so'zlari *o'rtoq, oshna, og'ayni* so'zlariga nisbatan kam qo'llanadi. *Hamdam* eskirgan. *Dugona* xotin-qizlar o'rtoqligi, do'stligini ifodalash uchungina qo'llanadi. *Tomir* juda kam qo'llanadi". Ko'rinadiki, Ibratning ham nasriy, ham nazmiy asarlarida nutqning aniqligi, ta'sirchanligi ekspressivligini oshirishda muhim vosita bo'lgan, nutq egasiga cheksiz imkoniyatlar yaratadigan sinonim so'zlardan unumli va o'rinli foydalanilgan. Shu sababli ular fikrni ta'sirchan, aniq va to'g'ri ifodalashga, holatga hissiy rang berishga, takrorlardan qochishga xizmat qilgan.

¹ Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилдди. 1-жилд – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 298.

² Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилдди. 5-жилд – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2020. – 592 б. – Б. 181.

³ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 245.

Antonimlar. Biz o'zimizni qurshab turgan olamni sezgi a'zolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun bilish faoliyatimiz zidlashlarga asoslanadi. Obyektiv borliq munosabatlaridagi ziddiyat va zidlanish har qanday tilda aks etganidek, o'zbek tili tabiati, qurilishi, tashkil etuvchi element va birliklarida ham o'z ifodasini topgan. Antonimlar buning tipik misolidir. Zero, antonimlar doimo zid ma'noli ikki qarama-qarshi a'zodan iborat bo'ladi. Shuning uchun ularning birini eslasak, ikkinchisi ong-u shuurimizda gavdalanadi, biri boshqasini taqozo qiladi. Shunga ko'ra, leksik antonimiya (gr. *antionymo* – "zid nom") leksemalar orasidagi ma'noviy zidlik munosabatidir: *katta-kichik, yosh-qari, mitti-ulkan, oq-qora* va hokazo. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo'lishi lozim. Masalan, *katta* va *kichik* leksemalari umumiy – "sifat", "ko'lam" semasi bilan birga, qarama-qarshi – "nisbatan ortiq" (*katta*) va "nisbatan katta bo'lmagan" (*kichik*) semasiga ham ega¹.

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashning qulay va samarali vositalaridan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan².

Antonimlar she'riy asarlar uchun juda zarur bo'lgan badiiy san'atlardan biri tazod san'atini hosil qilishni asosiy vositasidir. Bu san'at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi³. Yevropa filologik an'anasida bu san'at "antiteza" deb yuritilsa, badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda bu hodisaga nisbatan *zidlantirish, qarshilantirish* atamalaridan foydalanilib kelinmoqda. Har xil nomlanishidan qat'i

¹ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 88.

² Иўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвopoетик тахлил асослари. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б. 54.

³ Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976 – Б. 64.

nazar, o'zaro zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash (tazod) orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi¹.

Is'hoqxon Ibratning ijodiga mansub asarlar matnida ham antonimik birliklar tazod usulida faol qo'llanilib, muallifning badiiy, tarixiy, ijtimoiy g'oya va qarashlari, talqin-u tavsiflarining hayotga mutanosib-muvofiq chiqishini ta'minlab o'quvchilar tomonidan to'g'ri va tez, anglanilishida muhim o'rin tutadi. Masalan, *Murodxonni hukumati bir haftaga yetdi, olami foniydан ketdi, baqo mulkiga yetdi, rahmatullohi alayh!* (TA, 107-bet).

Mazkur jumla tarkibida qo'llangan *olami foniy* o'tkinchi hayot, ya'ni mavjud real voqelikni, *baqo mulki* esa boqiy, ya'ni narigi dunyoni ifodalab, o'zaro antonimik munosabat va tushunchalar ifodasi sifatida muallif ijodiy maqsadini namoyon qilishga xizmat qilgan. Ushbu o'rinda inson, kishi hayotiga nisbatan qo'llanuvchi *ketmoq (olami foniydан)* va *yetmoq (baqo mulkiga)* fe'llarining "hukumat" tushunchasi bilan aloqadorlikda qayd qilinishi ham matn muallifining o'ziga xos uslubi va mahoratidan dalolat beradi:

Gar to'g'ri so'z qilursan, ul fahm egri aylar,

Anga tushuntururga dardi dahon o'lursan (TA, 53-bet).

Yuqoridagi parchada *to'g'ri* va *egri* antonimlari ularning "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"dagi 3-ma'nosiga muvofiq qo'llangan²: (ya'ni, sen haqiqiy holatga mos gapirasan, u bo'lsa yanglish (noto'g'ri) tushunadi).

Ibrat olsunlar hama ishchi buning mazmunidin,

Ishlasang, qandingni ol, gar dangasa bo'lsang zahar (TA, 55-bet).

Ushbu baytda *qand* va *zahar* so'zlarining o'zaro kontekstual antonimligi asosida fikrni ta'sirchan, badiiy tasvirni yorqin ifodalashga erishilgan. Gap shundaki, *qand* so'zida "shirin", *zahar* so'zida esa "achchiq" ma'no semalari mavjud. So'zlardagi ana shu semantik xususiyat o'zaro qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi antonimik munosabatni ta'minlash asosi bo'lib xizmat qilgan. *Shirin* va *achchiq*, *qand* va *zahar* so'zlari o'zaro zidlik munosabatidagi

¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б.55.

² Рахматуллаев Ш. ва б. Ўзбек тили антонимларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б.178-179.

tushunchalarni nutqda yorqin ifodalash vositasi faol qo'llanadi. Birinchi juftlik to'g'ri ma'nosi, ikkinchisi esa ko'chma ma'nosi asosida zid ma'nolilikni hosil qilgan. Ibrat *qand* va *zahar* so'zlaridagi ana shu ichki zid ma'nolilik xususiyatlarini e'tiborga olib, ularni antiteza usuluda o'zaro zid ma'noda faollashtirgan. Natijada kontekstual antonimiya namunasi yuzaga kelgan.

Gazetdur jahon ahliga bir lison,

Muayyan erur anda yaxshi-yu yomon (TA, 56-bet).

Mazkur baytda antonimik juftlikning birinchi komponenti *yaxshi* ijobiy sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan, ijobiy baholanadigan, talabga javob beradigan, ikkinchi komponenti *yomon* esa salbiy sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan, salbiy baholanadigan, talabga javob bermaydigan ma'nosida¹ qo'llangan.

Asardurki olamg'a o'lg'ay nishon,

Kishi beasardur ketar benishon (TA, 14-bet).

Husn ichra vafo yo'q emish, jon,

Ki san kibi bevafo bo'lubdur (TA, 56-bet).

Ushbu baytlarda *nishon-benishon*, *vafo-bevafo* so'zlari asli antonim bo'lmasa-da, o'zaro zid ma'noli vositalar sifatida qo'llangan, bu yerdagi zid ma'nolilik *be-* old qo'shimchasi orqali hosil qilingan.

Ammo millat uchun ahamiyatlik yoki ahamiyatsizligi haqidagi tanqid va fikrlarni ilm va fan hurmatina ahli qalam, fan suygan odamlarning diqqatlariga topshiram (TA, 20-bet). Bu misolda nazarda tutilgan obyektning qarama-qarshi, o'zaro zid ma'nomunosabati antonimik birliklardagi so'z yasovchi *-li* va *-siz* qo'shimchasi orqali yuzaga kelgan.

Avvali holimiz ul, emdi bul, olam yurishi shul. Binobarin, tajdidi ahvol va atvor ibrat bo'lur ekan (TA, 19-bet). "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da *avval* so'ziga antonim sifatida *keyin*, *so'ngra*, *ba'daz* so'zlari keltirilgan². Ammo yuqoridagi parchada *avval* ravishiga qarshilantirish usulida *emdi* (*endi*) so'zi antonim bo'lib kelgan: *emdi* so'zi *avval* so'ziga *hozirgi payt* ma'nosida zidlantirilgan. Zidlanish ma'nosining kuchayishida *ul* va

¹ Раҳматуллаев Ш. ва б. Ўзбек тили антонимларининг изохли лугати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б.76-77.

² Раҳматуллаев Ш. ва б. Ўзбек тили антонимларининг изохли лугати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б.20.

bul olmoshlarining qarshilantirilishi ham o'ziga xos rol o'ynagan. Bunda ularning ishora ma'nolariga asoslanilgan.

Ma'lumki, kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. Jumladan, yuqoridagi tavsiflaganimiz *ul* va *bul* olmoshlari kontekstual antonimlikni hosil qilgan, bu orqali muallif avvalgi va hozirgi ahvol holatning keskin farqini xalqona ifoda shaklida kuchaytirib tasvirlashga erisha olgan. Tilshunoslikda mustaqil so'z turkumlaridan son va olmoshda antonimlik hodisasi kuzatilmaslighi qayd etiladi. Ammo matn tarkibida vaqtincha antonimik munosabat hosil qilishi, o'zaro zidlanuvchi tushuncha ifodalovchisi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ibrat asaridan olingan yuqoridagi nutq parchasida har ikki juftlikda xuddi shu holat kuzatiladi.

Endi quyidagi matndagi ta'kidlangan so'zlarning ma'no munosabatiga e'tibor qarataylik: *Madaniyat xotiraga o'xshagan yangi taomil, yangi so'z, yangi xat joriy bo'lib, eski nimarsalar, diniy ishlar, bo'laklari hammasi bitkul qolib, yangi yurib ketar ekanlar... Uyingizda hozir turubdur ayon... chunonchi: chiroq qoldi – lamfa (chiqdi), chaqmoq qoldi – gugurd (chiqdi)... choyjo'sh qoldi – choynak (chiqdi), qumg'on qoldi – samovar (chiqdi) va hokazo yangi nimarsalar ko'b joriy bo'lib qolgan (TA, 19-bet).* Tilimizda *yangi-eski* so'zlari quyidagi ma'nolarda antonimiya hosil qiladi¹: **Eski 1** (iste'molda uzoq bo'lgan, anchadan beri ishlatib kelingan) – **Yangi 1** (iste'molda juda oz bo'lgan, yaqinda ishlatila boshlagan). **Eski 2** (iste'moldan chiqarilgan, bekor qilingan) – **Yangi 2** (yaqinda iste'molga kiritilgan, joriy qilingan); **Eski 3** (ilgaridan mavjud bo'lgan) – **Yangi 3** (yaqinda paydo bo'lgan); **Eski 4** (anchadan beri ishlab, tajriba orttirgan) – **Yangi 4** (yaqinda ishlay boshlab, hali tajriba orttirmagan).

Demak, yuqoridagi matn mazmuniga ko'ra *eski* so'zi *iste'moldan chiqarilgan, bekor qilingan, yangi* so'zi esa *yaqinda iste'molga kiritilgan, joriy qilingan* ma'nosi bilan qo'llanib, zidlik hosil qilgan. Mazkur parchada kontekstual antonimiya ham mavjud bo'lib, ifoda ravonligi, ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilgan.

¹ Shu manba. – B. 200-201.

Jumladan, *qolmoq* fe'li *yurib ketmoq* hamda *chiqmoq* bilan zidlik hosil qilgan. *Qolmoq* so'zi *modasi o'lmoq*, *davri tugamoq* ma'nosida qo'llangan bo'lsa, *chiqmoq* va *yurib ketmoq* esa *urfga kirmoq* ma'nosida ularga zidlantirilgan. Bu so'zlar matndan tashqarida zid ma'noli emas, muallif ularni ushbu vaziyatdagina antonim sifatida qo'llab, tasvirda o'ziga xos hayotiylik, ifodalilik yarata olgan.

Quyidagi misralarda odatdagi zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanilgan, ya'ni *yangi* so'ziga *ko'hna*, *janubga shimol* so'zi antonim bo'lib kelgan:¹

Ko'hna omoch-u mola odamdin erdi meros,

Emdi usuli yangi ish boshlagay traktur (TA, 55-bet).

Chust shahri Namanganni(ng) g'arb tarafida, 136 chaqirim g'arbda bo'lub, oni qiblasi Pop qasabasiga, janubi daryoga muttasil bo'lub, shimoli Olmos va Chodak qasabasiga yopishadur (TA, 27-bet).

Ma'lumki, leksik antonimlar juft so'z hosil qilishning keng tarqalgan usulidir. O'z asarlarida juft so'zlarga keng murojaat qilgan Ibrat qarama-qarshi ma'noli so'zlardan ham faol foydalangan. Masalan:

Olish-berish tijorati Xo'qand ilan bo'ludur... (TA, 27-bet).

Ushbu misolda *olish* va *berish* antonim so'zlari juftlashib, juft so'z sifatida qo'llanib, jamiyat kishilari o'rtasidagi yangi tushunchani, *savdo*, *aloqa* tushunchasini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu tushuncha bu yerda *olish* va *berish* antonym leksemalaridan yangi so'z yasalganligining isbotidir.

Omonat qo'ymoq uchun *xiyonat* qilmaydurgan omonatxonalar bo'lsa, *ahli ilmlarning qadri yaxshi bo'lsa, nodonlarni o'z holiga qo'ymasa, fikr va ilmu hunar o'rgatsa...**kechalar ham kunduz kunidek savdo-sotiqalar bo'lsa...* (TA, 27-bet). Keltirilgan matnda bir nechta leksik antonim qo'llanilgan. Ular jamiyat hayotining ziddiyatli tomonlariga e'tiborni jalb qilish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida matn muallifi tomonidan faol nutq tarkibiga olib kirilgan. Antonimik munosabatdagi ta'kidlangan *omonat-xiyonat*, *ahli ilm-nodon*, *kecha-kunduz*, *mashg'ul bo'lmoq-bekor o'lturmoq* juftliklari muallifning ana shu maqsadini amalga oshirishiga bexato

¹ Рахматуллаев Ш. ва бошқ. Ўзбек тили антонимларининг изохли дугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.197.

xizmat qilgan. Bu o'rinda *nodon* so'ziga izofali birikma zidlantirilgan. Bunda ifodaning ma'no munosabatidagi daholik bilan bog'liq ma'no xususiyati faollashtirilgan.

Quyidagi ta'kidlangan holatlarda ham adib antonimiyaning tasvir va ta'sir kuchidan unumli va o'rinli foydalangan:

*Hech vaqti teng kelurmu husnida ham quvvati,
Ham bahorda kim qilur har yerda qari birla yosh (TA, 47-bet).
Guldek yuzingni, dilbarim, ko'rgoni keldim sog'inib.
Sen shohi olam, men gado, ko'rgoni keldim sog'inib
Ko'yingda, dilbar, zor-zor, shomu sabo, laylu nahor.
Yo'q emdi bizda ixtiyor, ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 48-bet).
Boy ila kambag'al yo'q, yo'q zanlarini farqi,
Barcha libosi haftrang, bir nogahon bo'lubdur (TA, 52-bet).*

Ko'riyaptiki, leksik antonimlar o'zbek tilidagi muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajarib, shu orqali narsa-hodisalar va holatlardagi qarama-qarshiliklar ziddiyatlarning badiiy talqinini ta'minlab kelyapti. Demak, tilda antonimlarning mavjudligi haqiqatni idrok etishimizning barcha murakkabligida, qarama-qarshiliklarning birligi va kurashida o'z ifodasini topadi. Zero, antonimlar ifodalaydigan ma'no-tushunchalar nafaqat zid, balki bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli tilda antonimlardan to'g'ri foydalanish obyektlar, hodisalar, jamiyat sifatlarining zid tabiatini aniqlashga va anglashga yordam beradi.

Omonimlar. Ma'lumki, tildagi so'zlar ma'no jihatdan bir xil (ma'nodosh), bir-biriga yaqin yoki aksincha, zid ma'noli bo'ladi. Ba'zi so'zlar esa ma'no jihatidan har xil bo'lsa-da, ko'rinishi, shakli, imlosi, talaffuzi bir xil bo'ladi. Tilda har xil ma'noli, shakli bir xil yoki o'xshash so'zlar ham bor. Ma'lumki, bunday so'zlar guruhi tilning leksik sistemasida umumlashtirilib omonimlar deyiladi.

Tilshunoslikda leksik omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi. Bular omoleksema, omograf va omofonlar. Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatdan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo'ladigan bir xillik ham hisobga olinadi¹. Masalan, *qovoq I (inson a'zosi) – qovoq II (o'simlik nomi)*. Omograflar esa harfiy jihatdan bir xil bo'lib,

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.45.

talaffuzi farqli bo'ladi: *tom I (uyning tomi) – tom II (jild)*. Omofonlar esa talaffuz jihatidan teng kelish hodisasidir: *bor (-bob)* – *bor*. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, omonimlarning tilda mavjudligi, uning shakllanishi, rivoji, ta'rifi va guruhlanishi bo'yicha yakdil fikrni uchratmaymiz. Biroq omonimlar umumlingvistik belgiga ega bo'lganligi uchun tilshunoslikda umumiy ta'rifga egadir. **Bu** hol tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi o'ziga xos tabiatidan kelib chiqadi. Kishilik jamiyatida bir so'zning har xil ma'nolari yuzaga kelishi uzoq davom etadigan jarayon ekanligini inobatga olgan holda, omonimlarni tilda qadimdan mavjud bo'lgan hodisa sifatida e'tirof etish o'rinli.

Har bir tilda har xil ma'no uchun bir so'z-nom omonimning mavjudligi tilning qashshoqligi ko'rsatkichi emas, balki leksik fond (jamg'arma)ning boyligi va xilma-xilligi ko'rsatkichidir¹. Omonim so'zlardan badiiy nutqda keng va unumli foydalaniladi. Adabiyotda omonim so'zlar tuyuq janrini, tajnis va iyhom san'atlarini yaratishda asosiy o'rin tutishi barchaga ayon. Shu munosabat bilan Ibrat asarlarida qo'llangan omonim so'zlarga e'tibor qarataylik:

*Ko'zum qarosi kuygayki, boshqaga qarasam,
Agar gapursam, tilimni tilim-tilim qilasiz* (TA, 58-bet).

“O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati”da *til* omonim so'zining quyidagi izohlari keltirilgan:

Til I ot. Anatomiya termini. Ta'm-maza bilish organi; **Til II** fe'l. Uzunasiga kesib, qismlarga ajratmoq².

Yuqoridagi misrada qo'llangan *tilim* omonim so'zi tarkibidagi *-im* qo'shimchasi ham omonim: 1) I shaxs (birlik) egalik shakli; 2) so'z yasovchi qo'shimcha. Baytdagi *tilim* so'zlari quyidagicha tahlil qilinadi: *til (ot) + -im (egalik sh.)*; *til (fe'l) + -im (so'z yasovchi q.)*. Ko'rinadiki, omonim asosga omonim qo'shimcha qo'shilgan. Shoir shu o'rinda badiiy san'at yaratish bilan bir qatorda, so'z o'yinini vujudga keltirgan.

*Yoshlar bazm-u taashshuq suhbatlari gul chehralar
Birla doim ijtihodu qarilar ko'zida yosh* (TA, 47-bet).

¹ Гулямова Ш. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари. – Фарғона, 2022. – Б. 75

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 129.

“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”da *yosh* omonim so‘zining quyidagi izohlari keltirilgan¹: **Yosh I** ot. Umrning yilma-yil hisobi. *U mendan ikki yosh katta*; **Yosh II** sifat. Umrning vaqt (yil, oy, kun) hisobi nisbatan oz. *U mendan ancha yosh*; **Yosh III** ot. Yig‘laganda, hayajonlanganda, shamollaganda ko‘zdan chiqadigan suyuqlik. *Chin ko‘ngildan yig‘lasa, so‘qir ko‘zdan yosh chiqar. Maqol.* Yuqoridagi baytning **yoshlar** *bazmu taashshuq suhbat* *gul chehralar* misrasida *yosh* so‘zi inson hayotidagi bosqich, davr, umr ma‘nosida, *Birla doim ijtirodu qarilar ko‘zida yosh* misrasida esa yig‘laganda, hayajonlanganda, shamollaganda ko‘zdan chiqadigan suyuqlik ma‘nosida qo‘llangan. Ushbu o‘rinda omonim so‘zlar she‘riy nutq ta‘sirchanligi, badiiyligini oshirishga xizmat qildirilgan.

Omonimlar badiiy adabiyotda nozik so‘z o‘yinlarini yaratish, so‘zlarning ma‘no tovlanishlarini oshirish, qofiyalarni tugal voqelanitirishga keng imkon beradi. Ular fikrni yashirin, ishorali ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Shuning uchun u tinglovchi yoki o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilib, mushohadaga undaydi. Yetuk so‘z san‘atkorlari omonimlarning ana shu xususiyatlaridan mohirona foydalanganlar. Leksik birliklardan o‘z o‘rnida foydalana olish ijodkordan til ilmini teran bilish, zukkolikni talab etish bilan birga, ulardan muayyan muloqot maqsadi va nutq sharoiti, vaziyatiga mosini tanlab ishlatish mahoratini ham talab qiladi. Aynan shunday talab vaziyatini to‘g‘ri anglagan Ibrat o‘z asarlarida shakldosh til birliklaridan unumli va samarali foydalanib, o‘zbek tilining imkoniyatlarini namoyon qila olgan.

Is‘hoqxon to‘ra Ibrat asarlari leksikasining tarixiy-etimologik aspekti shuni ko‘rsatdiki, adib XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek tili leksikasining boy imkoniyatlaridan yaratgan asarlarining mavzusi va mazmuniga mos tarzda o‘rinli foydalangan. U asarlari tilida, birinchi navbatda, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilgan. Nazmiy, nasriy asarlari tilida qo‘llangan umumturkiy, o‘zbekcha so‘zlarning asosiy qismini qarindoshlik nomlari, inson tana a‘zolari, belgi-xususiyat va vaqt

¹ Shu manba. – B. 63.

tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar hamda kasb-kor, mansab-unvon, diniy tasavvur, osmon jismlari, geografik tushunchalarni ifodalovchi lugʻaviy birliklar tashkil etadi. Bularning aksariyati umumxalq uchun tushunarli leksemalar hisoblanadi. Etimologik jihatdan arab va fors-tojik tilidan oʻzlashgan ilm-fan bilan bogʻliq tushunchalarni anglatuvchi, narsa-buyum nomlarini ifodalovchi, tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlarini ifodalovchi, oziq-ovqat nomlarini anglatuvchi, diniy tushuncha, tasavvurlarni ifodalovchi soʻzlarning koʻpchiligi oʻzbek mumtoz adabiyoti tilida anʼana sifatida qoʻllanib kelgan lugʻaviy birliklardir. Muallif bunday soʻz va iboralardan xalqqa, millatga murojaat, yurt, vatanga muhabbatni, maʼrifatga undash, safarbar qilish bilan bogʻliq gʻoya va intilishlarni asarlari mazmuniga singdirishda maqsadli foydalangan. Ibrat asarlarida ruscha va rus tili orqali kirib kelgan yevropa tillariga oid leksik birliklar alohida lugʻaviy guruhni tashkil etadi. Ular tarkibida antroponimlar, toponimlar, vaqt, son-miqdor tushunchalarini ifodalovchi soʻzlar, savdo va moliya sohasiga oid terminlar, sanoat va transport sohalariga oid nomlar, oziq-ovqat va ichimliklar nomi, etnik nomlar, madaniyat, sanʼat va maorifga oid terminlar alohida oʻrin egallaydi. Ibrat asarlarida rus va u orqali kirib kelgan baynalmilal leksik birliklar doirasida toponimlar, sanoat va transport sohalariga oid, mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar hamda madaniyat, sanʼat va maorifga oid terminlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Bu holat mazkur davr ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub oʻzgarishlar bilan izohlanadi. Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy hayoti, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, maʼnaviyatiga doir tushunchalarni aks ettiruvchi lugʻaviy birliklar aks etar ekan, muallif leksemalar voqelanishidagi shakldoshlik, maʼnodoshlik, zidlab tasvirlash kabi lisoniy hodisalardan, usullardan umumli fodalangan.

IBRAT ASARLARI TILINING DERIVATSION VA MORFOLOGIK ASPEKTI

Ibrat asarlarida qoʻllangan yasama soʻzlarning umumiy xususiyatlari

Turkiy tilshunoslikda soʻzlarning morfologik tarkibi, yasalishi, sintaktik munosabati masalalariga oid ilmiy kuzatishlar Abu Rayhon Beruniyning soʻzlarni morfemalarga ajratish borasidagi qarashlarida, Mahmud Koshgʻariyning soʻzlarni yasalganlik – yasalmaganlik belgisiga koʻra tub va yasama soʻzlarga ajratib, affiksatsiyani soʻz yasashning eng mahsuldor usuli sifatida belgilashiga oid fikrlarida ilk bor qayd etib oʻtilgan.¹ “At-tuhfatuz zakiyatu fil-lugʻatit turkiya” asarida ham XIII-XIV asrlarda tilshunoslikning lugʻatshunoslik masalalari bilan birga, soʻz yasalishi va bunda yuz beradigan morfemik, morfologik oʻzgarishlar masalasiga muallif toʻxtalib oʻtgan, ayrim affikslarning soʻz yasalishida ishtirok etishini qayd etgan.² Asarda muayyan bir turkumga kiruvchi soʻzlardan boshqa turkumga kiruvchi yasama soʻzlar hosil qiluvchi qoʻshimchalar ot yasovchi, sifat yasovchi, feʼl yasovchi affikslar sifatida qayd etiladi, ularning qanday maʼnoli soʻzlar yasashi, shuningdek, qoʻshma soʻzlar yasay olishi borasida ham ancha aniq dalillar, nazariy fikr keltirilgan. Turkiy tilshunoslikda soʻz yasalishi masalalarining oʻrganilishi alohida kuzatishlarni talab qiladi. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlansa, soʻz yasalishiga oid masalalar doim diqqat markazida boʻlganligi, jarayon keyingi davrlarda ham toʻxtab qolmaganligi, til taraqqiyoti boyish manbalari tadqiqiga jiddiy yondashgan olimlar bu masalaga alohida eʼtibor qaratganliklari, usbu hodisaning u yoki bu jihatlarini yoritib oʻtganliklarini koʻramiz. Masalan, Alisher Navoiy ham oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida affikslarning soʻz yasashdagi ishtirokiga alohida eʼtibor qaratganligi kuzatiladi³. Soʻz yasalishi masalalari oʻzbek tilshunosligida XX asr boshlarida ham

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002 – Б.44-45; Ўринбосов Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарканд: СамДУ, 2006. – Б.45.

² Фозилов Э., Зияева М. Изысканный дар тюркскому языку (Туркий тил хақида ноёб тухфа). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.78-88.

³ Аlisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn. (Nashrga tayёрlovchi Porco Shamsiev). – Тошкент: Ўқитувчи, 1940. – 54 б.

davr talabi doirasida o'rganildi. Bu borada, ayniqsa, A.Fitratning xizmatlari kattadir. Uning "Sarf" asarida so'z turkumlari bilan birga so'z yasalishi masalalari ham yoritilgan. Biz olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, turkiy tilshunoslikda so'z yasalishiga oid masalalar alohida holda, keng ko'lamda va chuqur ilmiy asoslarda o'rganilmagan bo'lsa-da, bu hodisaga yondashuv, uni qayd etish, so'z yasash usullari, tayanch tushunchalarini belgilash, asosiy holatlarni qayd etish olimlar diqqatini o'ziga jalb etgan. "At-tuhfa" asarida bu masalaga ancha jiddiy yondashilgan, bir qancha yasalmalar misolida derivatsion tahlil amalga oshirilgan. Ta'kidlash joizki, so'z yasalishi masalalarining muayyan shoir, yozuvchi asarlari tilidagi yasalma so'zlar misolida o'rganilishi ham muhim ilmiy, amaliy ahamiyatga molikdir. Chunki badiiy asarlarda nafaqat uzual, ya'ni odatdagi yasalmalar, balki okkazional yasalmalar ham asar muallifining o'zi tomonidan yaratilgan muhim tasviriy vositaga aylanadi. Tadqiqot jarayonida so'z yasalishiga doir bu kabi masalalar Ibrat asarlarida o'zining yorqin ifodasini topganiga guvoh bo'ldik. Shu sababli biz ushbu bobda yasama so'zlarning, xususan, okkazional yasalmalarning derivatsion, morfologik o'ziga xosliklarini yoritishga harakat qilamiz. Zotan, so'z yasalishi grammatika, xususan, morfologiya bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek tilidagi eng faol, unumli so'z yasash usulining morfologik usul deb ham atalishi shundan dalolatdir. Qolaversa, so'z yasalishini so'z turkumlaridan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, har qanday so'z yasalishi so'z turkumining son va sifat jihatidan o'zgarishidir. Buni Ibrat asarlaridagi so'z yasalishi ham tasdiqlaydi. Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

Ibrat asarlari leksikasida ot yasalishi. Manbalarda qayd qilinishicha, hozirgi o'zbek adabiy tilida 50 dan ziyod ot yasovchi qo'shimcha mavjud. Lekin ularning hozirgi so'z yasalishidagi ishtiroki bir xil emas. Ayrim qo'shimchalar yordamida ko'plab otlar yasalayotgan bo'lsa, ba'zilar sanoqli miqdordagi otlar yasaydi. Bu yasovchilar orasida *-lik* qo'shimchasi serunum sanalib, asosan ot, sifat va ravish turkumiga oid so'zlardan ot yasaydi¹. *-lik* qo'shimchasining unumdorligi quyidagilarda o'z isbotini topgan: 1.

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалishi. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б.42.

Ot turkumiga oid leksemalardan yasalgan soʻzlar yasovchi asos anglatgan narsa-predmetning xususiyati bilan bogʻliq holda turli maʼnolarni bildiradi: 1) shaxs bildiradigan soʻzlardan yasalganda: a) qarindoshlik, tugʻishganlikka oid soʻzlardan yasalgan otlar shu maʼnoni umumlashtirib, holat tarzida ifodalaydi: *otalik, onalik, togʻalik*; b) hayotning maʼlum belgilar bilan xarakterlanuvchi davrini bildiradigan soʻzlardan yasalgan otlar asosdan anglashilgan maʼnoga xos holatni bildiradi: *bolalik, yigitlik, oʻsmirlik, kelinlik, kuyovlik* kabi; d) kasb, amal-unvon yoki boshqa ish-faoliyat egasini anglatuvchi soʻzlardan yasalgan otlar shu kasb, shu-faoliyat, amal-unvon nomini bildiradi: *mudirlilik, oʻqituvchilik, qassoblik, chorvadorlik, tabiblik, suvchilik* kabi; e) shaxs bildiruvchi ayrim soʻzlarga qoʻshilganda asosdan anglashilgan narsa bilan bogʻliq boʻlgan ishni bajarish jarayonini, shu ish bilan shugʻullanishni bildiruvchi ot yasaydi: *oshxoʻrlik, kitobxonlik, sheʼrxonlik* kabi; h) kasb egasini bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilib, shu kasb-hunar egalari ish bajaradigan, shu kasb-hunarga oid joy maʼnosini bildiruvchi ot yasaydi: *taqachilik, koʻnchilik*; 2) asosdan anglashilgan narsa ishgʻol etgan obyekt, hududni bildiruvchi ot yasaydi: *botqoqlik, qumlik, muzlik* kabi; 3) yer sathining yasovchi asosdan anglashilgan qismini bildiruvchi ot yasaydi: *jarlik, doʻnglik, qiyalik, pastlik, ichkarilik, yalanglik* kabi¹.

Xuddi shu maʼno-vazifadagi otlar Ibrat asarlari tilida ham uchraydi. Quyidagi misolda koʻrsatilgan *kelinlik* soʻzi hayotning maʼlum belgilar bilan xarakterlanuvchi davri nomini bildiradigan asosdan anglashilgan maʼnoga xos holatni bildiruvchi ot yasalishi modeliga mos keladi:

*Ham kelinlik davrini sursang kerak bir necha vaqt,
Nuri diydami, tojsar, kelin oyim, xush keldingiz* (TA, 47-bet).

Quyidagi kontekstda qoʻllangan *faqirlik* soʻzi asosdan anglashilgan belgili holatni bildiradi:

*Faqirliqqa aylamaslar majlisingni orzu,
Soʻzlama dahr ahliga, Ibrat, solib ogʻzingga tosh* (TA, 47-bet).

Biroq u sifatdan ot yasalish modeliga mos keladi. *-lik* qoʻshimchasi belgi bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilib, belgi oti yasaydi:

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаллини. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б.42-43.

qizillik, semizlik, xursandlik, aniqlik, bema'nilik, tezlik, mardlik, xafalik, ko'ngilsizlik, mustaqillik, saxiylik kabi. Odatda, asosdan anglashilgan belgili holatni bildiradi: *shodlik, tinchlik, erkinlik, xursandlik* kabi; shaxsning xarakter, xususiyat, qiliq, xatti-harakatini bildiradi: *olifalik, ezmalik, ayyorlik, axloqsizlik, ahillik, bachkanalik, jasurlik, kamtarlik, laganbardorlik, noshukurlik, xiralik, erkalik, o'jarlik, hovliqmalik* kabi¹.

Xuddi shu kabi holat quyidagi matn parchasida ham uchraydi: *Xonning muqobala qilmoqg'a qodir bo'lmay, fuqaroni(ng) berag'batligi, aning ustig'a Rusiya tarafidan Xo'qand o'tgan bir savdogarni(ng) moli Mahram degan yerda talon bo'lub* (TA, 83-bet). Shu o'rinda ta'kidlash joizki, misollarda keltirilganlar *-lik* qo'shimchasining singarmonizm ta'sirida fonetik o'zgarishga uchragan shakllari qo'llangan. Bu esa Ibrat yashagan davrda o'zbek tilida singarmonizm hozirgiga qaraganda kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Chunki hozir badiiy uslubning ayrim ko'rinishlarini hisobga olmaganida mazkur holatlarda *-lik* shakli ishlatiladi. Ibrat asarlari tilida esa *-lik* qo'shimchasining singarmonizmli tarixiy varianti *-liq* shakli yordamida ham, *-lig'* shakli yordamida ham yasalgan so'zlar faol qo'llanadi: *Emdi siz janobni hukumatlaringiz qirq yil bo'lib, hukmronlig' muncha muddat saltanat surgan kishi xavoqini Xo'qandda yo'q, munga shukr etilsa bo'lur* (TA, 43-bet).

Bermas munga har kishi rizolig',

Tong yo'qki qilsa din judolig' (TA, 83-bet)

Yuqorida keltirilgan misollardagi *hukmronlig'*, *rizolig'*, *judolig'* so'zlari asosdan anglashilgan belgili holatni bildirgan.

Xursandlik so'zida belgi bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, belgi oti yasalgan hamda bu model ham o'zbek tili yasallishiga xos. Ammo bu yerda singarmonizmdan chekinish holati uchraydi. Masalan:

Har kishi ish ishlasa, doim ishi xursandlik,

Ishlamaslar o'z boshig'a urg'usi tig'i batar (TA, 37 bet).

-chilik qo'shimchasi shaxs oti yasovchi *-chi* va mavhum ot yasovchi *-lik* affiksining birikuvidan hosil bo'lgan qo'shma affiksdir (*chi+lik>-chilik*). U, asosan, otlardan, shuningdek, belgi bildiruvchi so'zlardan asosdan anglashilgan narsaga oid, shu narsa bilan

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалishi. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б. 42-43.

belgilanuvchi (xarakterlanuvchi) ish, faoliyat, xatti-harakatni bildiruvchi ot yasaydi: *ulfatchilik, mehmondorchilik, qudachilik, qarindoshchilik, sherikchilik* kabi¹. Ibratning shu qolipga mos keluvchi yasama soʻz qoʻllangan matniga eʼtibor qaratamiz:

Boʻlsa sanda siymu zar, har kim qilur ulfatchiliq.

Qayda boʻlsang suhbatingni aylagaylardi talosh. (TA, 47-bet).

Matndagi *ulfatchiliq* soʻzi tarkibida *-lik* qoʻshimchasining tarixiy shakli qoʻllangan. Demak, Ibrat ijod qilgan davr singarmonizm mavjud boʻlgan, ammo shu bilan birga, uning kuchsizlana boshlashi ham kuzatilgan davr deyish mumkin.

Oʻzbek tilida *-chi* affiksi ham unumdor soʻz yasovchi hisoblanadi. U yordamida quyidagi maʼnoli shaxs otlari yasaladi: 1) kasb-hunar, mashgʻulotning umumiy nomini bildiruvchi soʻzga qoʻshilganda shaxsning asosdan anglashilgan sohaga mansubligini bildiruvchi ot yasaydi: *sportchi, sanʼatchi* kabi; 2) ish-faoliyatning konkret bir sohasini anglatadigan soʻzlarga qoʻshilganda shu sohaga mansub shaxsni bildiruvchi ot yasaydi. Qiyoslang: *sportchi, poygachi, uloqchi, futbolchi, xokkeychi, tennischi, bokschi, kurashchi*; 3) *-chi* affiksi yasovchi asos bildiradigan narsa-hodisalarning xususiyatiga qarab ish-faoliyatning maʼlum bir sohasiga mansub boʻlgan turli maʼnodagi otlar yasaydi: *pechkachi, pillachi, qorakoʻlchi, uzumchi; suvchi, tunukachi, oynachi; lugʼatchi, siyosatchi, tarbiyachi*².

Ibrat asarlarida ham ot yasalishining ushbu *-chi* yasovchisi yordamida yasalgan soʻzlar koʻp uchraydi. Masalan:

Bu holda xon oldida hozir kishidan mullo Maʼruf dodxoh.

Mirzo hokim farmonachi birla man eshikni tashida turub edim (TA, 88-bet).

Bu oʻrinda *-chi* qoʻshimchasi asosdan anglashilgan narsaga oid ish bilan shugʻullanadigan, kasbi shu ish boʻlgan shaxsni bildiruvchi ot yasagan. Oʻzbek tilida bu qolipda quyidagi kabi soʻzlar yasaladi: *aloqachi, bichiqchi, suvoqchi, temirchi, ixtirochi, loyihachi, lugʼatchi, siyosatchi, tarbiyachi, hisobchi, qoʻshiqchi, fokuschi,*

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалishi. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 43

² Shu manba. –Б. 37.

*razvedkachi, remontchi, karikaturachi, grimchi, gipnozchi, svarkachi*¹.

Ibrat asarlarida fe'l yasalishi. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Ibrat asarlarida kompozitsion usulda yasalgan fe'llar ko'p uchraydi. Quyida shu tipda yasalgan fe'llarning derivatsion, morfologik xususiyatlariga to'xtalamiz.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tilida ma'no va vazifasi jihatidan teng bo'lgan komponentlardan kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma fe'llar juda kam: *sotib olmoq, olib kelmoq, borib kelmoq* kabi. Lekin *qil, et(ayla)* va *bo'l* fe'llari yordamida yasalgan qo'shma fe'llar juda ko'p miqdorni tashkil etadi. Bunday qo'shma fe'llar tarkibida *qil, et (ayla)* va *bo'l* fe'llari so'z yasovchi (yasovchi formant) vazifasida bo'ladi, ular yordamida hosil bo'lgan fe'llarga xos so'z yasalish ma'nosi ana shu *qil, et, bo'l* fe'lga oid bo'ladi (*ayla* fe'lining bu vazifada qo'llanishi eski uslubga xos matnlarda, she'riy asarlarda uchraydi: *qabul ayla, yod ayla, bayon ayla* kabi)². Quyidagi jadvallarda Ibrat asarlaridagi qo'shma fe'llar va ularning yasalish modellari aks etgan:

Misol	So'z yasalish modeli
<i>Bechoralig'din o'zga ish ixtiyor qilma, Harchand xo'b bo'lsang, dardi zamon o'lursan. Kelgay zaif xayli, sanga jadali mayli, O'qini shast qilg'ay, san bir kamon o'lursan.</i> (TA, 54-bet).	Sifat+fe'l Ot+fe'l
<i>Bizdin erur nishona sarlavha bu gazetga, Tavon qilib yubordim, ziynat tobar bu "Tujjor"</i> (TA, 61-bet).	Ot+fe'l
<i>Amal qil o'z so'zingg'a, bo'lma nosih xalqqa munda, Amallik banda bo'lsang, topkay erding dunyoda izzat</i> (TA, 76-bet).	Ot+fe'l
<i>Alar maishati va foydasig'a anvo'i favokihot va ni'amotlarni kurrai arzda xalq etib, mujdai "xalaqa lakum ma fil-arzi jami'an" ... Siz uchun Yerdagi barcha narsani yaratdi ("Baqara" surasi, 29.) oyatin yubordi.</i> (TA, 79-bet).	Ot+fe'l

¹ Shu manba. –B.40.

² Shu manba. –B.104.

<i>Va ham siyosiy tarafiga bu kitob munosib zabon va asbobi ovon bo'lib, zarurligi ma'lum o'ldi. (TA, 81-bet).</i>	Sifat+fe'l
---	------------

Tadqiq obyektimizda qo'shma fe'llarni qo'llashda odatdagidan farq qiluvchi o'zgargan tartibli qo'llanish ham kuzatiladi. Bu holat, asosan, she'riy uslub talabiga ko'ra ro'y beradigan inversiya bilan izohlanadi:

Misol	So'z yasalish modeli
<i>Gar hukm joriy qilsang, norozi har ikkisi, Men sudga arza bergum, anda yomon o'lursan</i> (TA, 54-bet).	Ot+fe'l
<i>Yurdi rahi ma'siyatga mardum, Oyini musulmonlig' ayladi gum</i> (TA, 71-bet).	Ot+fe'l
<i>Jon vahmini qilmayin hamisha, Qilduk mudom gunohi pasha. Haqni rioya aylamasdin, Poymol o'lur shar' demasdin</i> (TA, 71-bet).	Ot+fe'l Sifat+fe'l
<i>Ko'b bo'lsa har kishida sim ila zar, Yursa qayonda qildi kar-kar</i> (TA, 71-bet).	Taqlid+fe'l

Sifat va ravish yasalishi. Tadqiq obyektimiz ustida olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, Ibrat ijodida o'zbek tilida sifat yasalish modellaridan unumli foydalanilgan. Biroq hamma o'rinlarda ham ushbu model so'z yasalishi uchun xizmat qilmagan, undan shakl yasalishi uchun ham foydalanilgan. Gap shundaki, o'zbek tilidagi ayrim qo'shimchalar ham so'z yasash, ham shakl yasash xususiyatiga ega. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida *-li* affiksi so'z yasash bilan birga shakl yasash vazifasini ham bajargan. Akademik A.Hojiyev ushbu qo'shimchani xususiyatini quyidagicha izohlaydi: "U shaxs yoki predmetning asosdan anglashilgan narsaga egaligini, unda shunday narsa borligini bildiruvchi shakl yasaydi. Otning bu shaklida *-li* affiksining ma'nosi *bor*, *ega* so'zining ma'nosiga teng bo'ladi, ya'ni u otning leksik ma'nosini o'zgartirmagan holda, unga "*bor*", "*ega*" degan ma'noni qo'shadi: *Rais kabinet eshigidan qaytdi-yu, to'g'ridagi eshikdan tollar qurshovidagi hovuzli bog'chaga chiqdi*. Shuni aytish kerakki, *-li*

affiksining otlardan aytib o'tilgan ma'nodagi shakl yasashi juda chegaralangan so'zlar doirasida uchraydi, u boshqa shakl yasovchilar, masalan, ko'plik, egalik formasini yasovchilar singari barcha otlarga qo'shilavermaydi. Shaxs yoki predmetning biror narsaga egaligi, unda shunday narsa borligi ma'nosi hozirgi o'zbek tilida *bor*, *ega* so'zlari orqali ifodalanadi. Shuning uchun *-li* affiksini haqiqiy ma'noda forma yasovchilar qatoriga kiritish qiyin. Lekin shu narsa xarakterliki, *-li* affiksining yuqoridagi ma'noda (grammatik ma'no bilan) ot so'zga qo'shilishi juda umumiy holat hisoblanadi: *oliy ma'lumotli*, *yuqori martabali*, *o'n gektarli*, *past bo'yli*, *yuqori hosilli* va b¹.

Ibrat asarlarida *-li* qo'shimchasi bilan birga unga o'xshash vazifali bo'lgan, odatdagi, nutqiy muloqotlarda ishlatiladigan *-lik* affiksi (ba'zan *-liq* varianti) bilan yasalgan so'zlar faol qo'llangan: *Ahli balog'atlar ba'zi she'rlarini kutubi ma'oniya irod etgan ekanlar va manfaatli omma uchun musora'at va ahkomi shari'atda bazlu mu'ovnat husni tadbirlik va siyosatga sa'yi va mubodaratlik bir xoni nomdor va bir podshohi komkor edi* (TA, 66-bet);

Bu yangi fikrlardin gar bo'lsa manfaatlik,

Xalqqa eshittirurga yozmoq kerak bu darkor (TA, 42-bet);

Badaviylik erur halokatlik,

Ilmi axloq yo'q. falokatlik (TA, 49-bet).

Mazkur misollardagi *tadbirlik*, *manfaatlik* so'zlari hozirgi o'zbek tilida *tadbirli*, *manfaatli* shaklida qo'llanadi. Shuningdek, kuzatishlarimiz davomida *-li* qo'shimchasi o'rnida *-luq* va *-lig'* varianti qo'llanishi aniqlandi:

Sarv bo'yluq xush qadam ra'no sifat, xush keldingiz.

Yurishing tovuş kibi barno sifat, xush keldingiz (TA, 47-bet).

Bo'ldi bari kibr ila havolig',

Qurt tushub dumog'iga navolig' (TA, 71-bet).

Demak, Ibrat ijodida sifat yasovchi *-li* qo'shimchasi o'rnida ko'proq *-lik*, *-luq*, *-lig'* shakllari qo'llangan. Is'hoqxon Ibrat asarlarida qo'llangan sifatlar orasida *be-*, *ba-*, *bo-* old qo'shimchalari bilan so'z yasaliş holati keng tarqalgan. Buni asarlar matnidagi

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаллиши. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б. 53.

misollarning ko'pligi ham tasdiqlaydi. Ammo *-li* qo'shimchasidan farqli o'laroq bu yerda shakl yasalishi holati yo'q. Akademik A.Hojiyevning yozishicha, *ba-* old yasovchi affiksi yordamida yasalgan so'zlar ko'p emas va bu so'zlarning asosiy qismi ham forsoj tojik tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Bu tipdagi sifatlar ham asosdan anglashilgan narsaga ortiq darajada egalikni bildiradi: *badavlat, baquvvat, bahaybat* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *ba-* affiksi yordamida so'z yasalishi kuzatilmaydi¹. Ammo badiiy adabiyot tili, jumladan, Ibrat asarlari tili haqida bunday deb bo'lmaydi, adib ijodiy laboratoriyasidan badiiy muhitga yo'l olgan lug'aviy birliklar orasida *ba-* affiksi bilan so'z yasalish holatlari ko'p kuzatiladi:

Bo'ldi ulug' jinon bag'rat,

Yuqorida joyidur bahurmat (TA, 71-bet).

Hozirgi o'zbek tilida *be-* affiksi, asosan, tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida uchraydi. Ushbu affiks yordamida yasalgan so'zlar asosdan anglashilgan narsa-hodisaning yo'qligini (inkorini) bildiradi: *beminmat, beadab, beziyon, bepardoz, besabab* kabi². Ibrat asarlari tilida bunday qolipli so'zlar miqdori ko'p:

Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'lubdur,

Beandisha xaloyiq fe'li yamon bo'lubdur (TA, 50-bet).

Yoki:

Ahli Turkiston bu kunda, shukr, beislolh emas,

Intishori Ma'rifat xattida beimlo emas (TA, 63-bet).

Bular hammasi o'zlarini befikr, beilmlik, siyosati askariyadan bexabarligimizdan. Axloq yo'q, tadbirsiz hukumati musulmoniyada qonuni askariy yo'qligi sabab, zohiriy va botiniy iroda Alloh'ga marbut (TA, 128-bet).

Tilshunos olim A.Hojiyev sifat yasovchi qo'shimchalarni atroflicha izohlar ekan, *bo-* affiksini chetlab o'tadi. Lekin boshqa darsliklarda *be-*, *ba-* affikslari qatorida *bo-* qo'shimchasi ham keltiriladi. Bunga *boadab, bohuzur* kabi so'zlarni misol qilish mumkin. Ibrat asarlari matnida ham shunday yasalish kuzatiladi: *Ul kishi bu aqcha bilan Maskov borub, bohuzur aysh qilib yotgan ekanlar* ("Hikoya"). Bundan ko'rinadiki, *bo-* qo'shimchasi o'zbek

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалishi. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б.62

² Shu manba. — Б. 68

tiliga fors-tojik tilidan kirib kelgan yasalmalar orasida uchraydi. Ibrat tilimizdagi ana shu imkoniyatni ro'yobga chiqargan.

O'zbek tilida *-ona* affiksi yordamida yasalgan ravishlar harakat-holatning asos bildirgan ma'nodagi tarzda bajarilishini bildiradi: *mohirona* (*bajarmoq*), *alpona* (*qadam tashlamoq*), *xolisona* (*xizmat qilmoq*) kabi. Bu affiks asosan shaxs bildiruvchi yoki shaxsga xos belgi-xususiyatni anglatuvchi ravish yasagan. *-ona* affiksi yordamida yasalgan ravishlar, asosan, shaxsga oid harakat-holatning belgisini bildiradi. Qiyoslang: *qahramonona jang qilmoq* – *qahramonlarcha jang qilmoq*, *do'stlarcha yordam bermoq* – *do'stona yordam bermoq*. Lekin, birinchidan, *-ona* affiksi yordamida yangi ravishlar yasalishi kuzatilmaydi, *-larcha* affiksi esa so'z yasash funksiyasini to'xtatgan emas. Ikkinchidan, *-larcha* affiksi bilan yasalgan ravishlarda *-lar* ko'rsatkichiga xos xususiyat seziladi, ya'ni bularda ko'plik, umumlashtirish ottenkasi, shuningdek, shaxs tushunchasi sezilib turadi. *-ona* affiksi bilan yasalgan ravishlarda esa bunday ottenka, ayniqsa, ko'plik, umumlashtirish ottenkasi yo'q. Qiyoslang: *do'stlarcha* – *do'stona*, *mardlarcha* – *mardona*, *vahshiylarcha* – *vahshiyona*¹.

Ibrat asarlari tilining ta'sirchanligini oshirish maqsadida *-ona* affiksi bilan yasalgan ravishlardan ham unumli va o'rinli foydalangan:

Millatimiz tili jaroiddur,

*So'zlar endi bular **dalirona**.*

Ismi noshirki Obidu Mahmud,

*Chiqsa shoyad **muvaqqafiyatona**.*

Yo'q bu vaqtda hech nosihlar,

Qilsa to pand har musulmona (TA, 60-bet).

Demak, Is'hoqxon Ibrat asarlaridagi yasama so'zlar o'zbek tili so'z yasalish modelloriga bo'ysunadi, ularning ko'pchiligi o'zbek tili lug'at tarkibidan muhim o'rin olgan lisoniy birliklardir. Biroq Ibratning badiiy asarlarida nutqiy-okkazional yasalmalar ham o'z o'rniga ega. Shunga ko'ra, tadqiqotimizning keyingi bo'limi adabiyotlarda uzual va okkazional yasalma so'zlar deb yuritiladigan mazkur masalani alohida o'rganishga bag'ishlangan.

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалishi. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 96.

Ibrat asarlarida qo'llangan uzual va okkazional yasama so'zlarning derivatsion xususiyatlari

Tadqiqotimizning uchinchi bobi birinchi bo'limida Ibrat asarlari tilida so'z yasashining umumiy masalalarini yoritgan edik. Ayni bo'limda ushbu masalani maxsus o'rganishga jazm qildik. Chunki u Ibrat asarlari tili uchun xarakterli bo'lgan leksik-grammatik jihatlardan biridir. Kezi kelganda so'z yasashining grammatika, xususan, morfologiya bilan bevosita aloqadorligi, so'z yasashining ushbu faol usuli morfologik usul deb ham atalishi bejiz emasligini, yasama so'zlarning ko'pchiligida morfologik (turkumiy) ma'no o'zgarib ketishini ta'kidlab, eslatib o'tish joiz deb bilamiz. O'ylaymizki, quyidagi ma'lumot va kuzatishlarimiz qayd etilganlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Zotan, so'zda hosila ma'noning yuzaga kelishi leksik ma'no denotatining obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat va belgi kabilar bilan munosabatiga ko'ra sodir bo'ladi¹. Bu esa yangi turkumiy ma'no yuzaga kelishi, yani o'zgarib ketishini anglatadi. Shu munosabat bilan tadqiqotchi G.Paul kuzatishlari e'tiborga loyiq. Olim uzual va okkazional ma'nolarni ajratib o'rgangan. Ma'lumki, uzual va okkazional ma'nolar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uzual ma'no nutqdan ashqarida ifodalanishi bilan bog'liq². Shu o'rinda ushbu ma'noning a'rif-tavsifi to'xtalib o'tish joiz:

Uzual ma'no (lot. usus – odat, qoida). So'zning lug'aviy sifatida bor, umum tomonidan qabul qilingan, umum qo'llanishdagi ma'no. Mas., *bosh* so'zining "tananing bo'yindan yuqori qismi", "boshliq", "rahbar" ma'nolari; *katta* so'zining "hajm, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan", "yosh jihatdan ortiq" ma'nolari uzual ma'nolardir. Qiyos. Okkazional ma'no³.

Uzual ma'no so'zning semantik tarkibida mavjud bo'lgan ma'nosidir. U har gal nutqda yaratilmaydi. Til birligi sifatida, ma'lum kontekstda, boshqa leksik birliklar qurshovida o'z lug'aviy-grammatik (turkumiy) ma'nosi va shu turkumga xos grammatik

¹ Qarang: Реформатский А.А. Введение в языковедение. Изд. 4-ое, испр. – Москва: Просвещение, 1967. – С.75

² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 41.

³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – Б.113.

shakl tashishi bilan namoyon bo'ladi. Buni *chiqmoq* fe'li misolida ko'rishimiz mumkin: 1. *So'fi mezonaga chiqib azon aytdi (A.Qodiriy)* 2. *Uning bosimi ikki yuzga chiqdi.* 3. *Shu vaqtda ichkaridan Oybodoq chiqib, Otabek yoniga keldi (A.Qodiriy).* 4. *Chigit unib chiqdi.* 5. *Quyosh chiqdi.* 6. *Uzunning suvi chiqdi.* 7. *Yiqilib qo'li chiqdi.* 8. *Kitob nashrdan chiqdi*¹.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, so'zning uzual ma'nosi tilda barqarorlashgan, ijtimoiy shartlanganlik xususiyatlariga ega bo'ladi va shu asosda lisoniy ma'no sifatida qaralishi lozim. Shu o'rinda har qanday badiiy asar mazmuniy maydonini shakllantirishda ishtirok etishi, biroq uzual ma'nodan alohida tarzda mavjudlik kasb etuvchi okkazional ma'no tushunchasi bilan bog'liq atamalar semantik tabiati va tarkibini yoritish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular ham Ibrat asarlari tilining lug'aviy-grammatik xususiyatini hosil qiluvchi muhim nutqiy unsurlar hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar va lug'atlarda bu haqda quyidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan: **Okkazionalizm**. Mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm².

Okkazional ma'no (lotincha tasodifiy) – Q. Muvaqqat ma'no³.

Muvaqqat ma'no. So'zning ma'no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma'lum individual qo'llanishda yuzaga chiqadigan ma'no: *Fan, san'atning gullari butun, to'plangandi suhbat uchun (Oybek).* *Kun haliyam issiq bo'lsa-da, har holda shabada yo'rg'alardi (M.Musayev)*⁴.

M.Mirtojiyev ushbu tushunchani shunday ta'riflaydi: "Okkazional ma'noli so'z doimo nutq tarkibida namoyon etuvchi so'z yoki so'zlar qurshovida bo'ladi. Chunki busiz okkazional ma'no hayot emas"⁵. Olim okkazional va uzual ma'no deb atalgan ushbu ikki tushunchaning farqini aniq ko'rsatadi: "Uzual ma'no okkazional ma'nodan farqli holda, faqat bir so'zning semantik

¹ Ўзбек тили практикуми. I-кисм. – Тошкент, 2005. – Б.46.

² Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – Б.74.

³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – Б.74.

⁴ Shu manba. – Б.67.

⁵ Миртожиёв М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент. Мумтоз сўз, 2010. – Б.42.

tarkibiga kiradi. Masalan, “suyukli bola” okkazional ma’nosining ijobiy emotsional komponenti bilan *qo’zichoq*, *bo’taloq*, *toychoq*, *shunqor*, *do’mboq* kabi so’zlarda ifodalash mumkin. Ruslarda *parasenok* so’zida ham ifodalanadi. Uzual ma’noni bir so’z ifodalaydi, ya’ni uni yana ikkinchi bir so’zda ifodalab bo’lmaydi. Okkazional ma’no mohiyati bilan nutq hodisasi bo’lib, o’ziga xos lug’aviy grammatik qurshovda namoyon bo’ladi, umumlisoniy mohiyat kasb etmaydi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda bunday ma’noni “okkazional ma’no”, “nutqiy ma’no”, “kontekstual ma’no”, “individual ma’no” kabi atamalar bilan nomlab kelinadi. So’zning bunday ma’no bilan qo’llanishi esa “leksik qo’llash” deb yuritiladi¹.

Ibrat asarlarida har ikki turdagi ma’noli yasama so’zlarning qo’llanishi ham o’ziga xos. Yuqorida aytilganidek, Ibrat o’zbek tili so’z yasalishi qoliplariga mos keladigan yasama so’zlardan unumli foydalangan. Ammo uning badiiy asarlari tilida kamunum so’z yasovchilar bilan yasalgan yoki o’ziga xos yasalish qolipiga ega yasama so’zlar ham kuzatiladi. Quyida Ibrat asarlari tilida uchragan *uzual yasalish qoliplaridan* o’ziga xos ravishda foydalanish holatlarini kuzatamiz.

Is’hoqxon Ibrat ijodida *chopmaxona*, *e’timodxona*, *chopxona*, *g’ussaxona*, *ilojxona* kabi *-xona* affiksoidi bilan hosil qilingan o’ziga xos yasalmalarni kuzatish mumkin. A.Hojiyev *-xona* yasovchisini quyidagicha baholaydi: “O’zbek tilidagi ba’zi lug’aviy birliklar morfema vazifasida ham qo’llanadi (morfemalik xususiyatiga ega) va so’zga qo’shib yoziladi. Masalan, *qabulxona*, *dorixona*, *darsxona*; *talabnoma*, *taklifnoma* so’zlaridagi *xona*, *noma*. Bunday birliklar adabiyotlarda *affiksoid* deb yuritilishi ham ma’lum. Lekin, bizningcha, bunday terminni qo’llashga ehtiyoj yo’q. Chunki, so’zga qo’shib yozilishi hamda morfemaga xos vazifaga egaligi ularni ham affiks (qo’shimcha) deb atayverishga asos bo’la oladi”². Demak, Ibrat uslubiga xos ushbu keltirilgan yasama so’zlar o’zbek tilida keng tarqalgan yasovchi qism vositasida yasalgan bo’lib, ularning ayrimi uzual, ba’zilari okkazional ma’no

¹ Ўзбек тили практикуми 1- кит. / Масъул муҳаррир Қ.Сапаев – Тошкент: ТДПУ, 2005. – Б. 46.

² Shu manba. – Б. 43

kasb etgan. A.Hojiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, *-xona* qo'shimchasi "so'z yasalish asosidan anglashilgan ish, harakat, narsa amalga oshiriladigan joy" ma'noli otlar yasaydi: *qabulxona*, *dorixona*, *darsxona* kabi. Shu xususiyatiga ko'ra *-xona* yasovchisi *tanqid* so'ziga birikib, so'z hosil qilishi mumkin edi, ya'ni *tanqid* so'zi bilan *-xona* so'z yasovchisining birikish imkoniyati (so'z yasash imkoniyati) bor. Lekin o'zbek tilida *tanqidxona* so'zining yo'qligi ma'lum. Sababi shuki, *tanqid* uchun maxsus joy bo'lmaydi (maxsus joy belgilanmaydi). Demak, bu – so'z yasash imkoniyatining obyektiv holat bilan cheklanishidir¹.

Endi Ibrat asarlari tilidagi yasalmalar misolida bu qo'shimchaning so'z yasash imkoniyatini tahlil qilishga harakat qilib ko'raylik.

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona

Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona (TA, 139-bet).

Yoki:

Bu roqimi jaloli ma'vosi qal'aixon,

Chopxona kotibidur, gar so'rsa har kim olon (TA, 40-bet).

Mazkur ikki parchadagi ajratib ko'rsatilgan yasama so'zlar o'zbek tili uchun uzual yasalish sanaladi, chunki o'sha paytda o'zbek tilida shunday usulda hosil qilingan yasalmalar mavjud bo'lgan.

Yil-u oyi om bo'ldi bu yil g'ussaxonada,

Ko'rmay ko'zi aylandi bo'lub dom-donada (TA, 40-bet).

Mazkur parchada kelgan *g'ussaxona* so'zi ham "so'z yasalish asosidan anglashilgan ish, harakat, narsa amalga oshiriladigan joy" ma'noli ot yasashga xizmat qilgan. Ammo bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida uchramaydi, demak, bu okkazional yasalish. Quyidagi parchada ham ko'rish mumkinki, amalga oshirilishi aniq joy talab qilinmaydigan ish, harakat va narsaga *-xona* qo'shimchasini qo'shish bilan okkazional yangi so'z hosil qilingan:

Bizdin keyingilar ko'b ilm-u hunar toparlar,

Hayfoki, anda biz yo'q, yo'q e'timodxona (TA, 39-bet).

Xuddi shunday okkazional ma'noli yasama so'z (chunki bular "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mavjud emas) Ibratning nasriy asari matnida ham uchraydi: *Vaqtı zobidlar urg'uchini olib borib, hibs qilib, so'ngra xonni ilojxonaga olib borib, so'ngra chiqarib,*

¹ Shu manba. – 6.171.

istintoq qilganda, bu urg'uchi Namangonda fuqarosidan to'ra qo'rg'onlik Solih sarkor degan Ortuq sarkorni(ng) o'g'li ekan (TA, 90-bet).

-garchilik qo'shimchasi yordamida yasalgan otlar asosan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisa bilan aloqador bo'lgan umumiy tushunchani bildiradi: *loygarchilik, odamgarchilik, yog'ingarchilik, namgarchilik, ovoragarchilik, rasvogarchilik, xafagarchilik, sharmandagarchilik*¹. Bunday qolip bilan yasalish holati Ibrat asarlarida ham kuzatiladi.

Atoliq odam yuborub, qancha uzrlar aytib: "Man har chand beadablik qildim, sipohgarchilikdur, man eski qul bul xonadonga", deb ko'b tavbalar qilsa ham, amirni(ng) odami deb, Xo'qandga olub borub, Abdulali o'g'li ilan ikkisini so'yduardi (TA, 74-bet). Ko'rinadiki, ta'kidlangan yasama so'z ushbu o'rinda uzual ma'no kasb etgan.

O'zbek tilida inkor ma'nosiga ega bo'lgan *-siz* va *be-* affikslari asosan otlardan sifat yasaydi. *no-* affiksi ham asosan, sifat yasaydi. Biroq uning yordamida otlardan yasalgan sifatlar juda kam bo'lib, ular ham aslida fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlardir. Hozirgi o'zbek tilida *no-* affiksi yordamida otlardan sifat yasalishi deyarli uchramaydi. Demak, qanday so'zlardan sifat yasashiga ko'ra *-siz*, *be-* affikslari bilan *no-* affiksi tamomila farqli (funktsiyasi boshqa-boshqa) affikslardir. Shunga ko'ra, ya'ni o'zbek tilida ot va sifatlardan yangi so'z (sifat) yasalish jarayoni bor (davom etayotgan) ekan, bu jarayonda ulardan har biri mustaqil amal qilishi tabiiy. Shuningdek, *-siz*, *be-* va *no-* affikslari inkor ifodalashi bilan umumiylikka ega bo'lsa ham, lekin ma'nosidagi o'ziga xosliklari bilan ham o'zaro farqlanadi². Ibrat ijodida *be-* qo'shimchasi bilan yasalish holatlari fors-tojikcha so'zlarni qo'llashda ko'proq kuzatiladi.

*Farg'onada bu vaqtda beqarz kimsa yo'q,
Ming so'm aqalli qarz bo'lib, bo'lsa qorni to'q,
Sarf-harojat aylab, o'zini ayladi uluq,
Bechoralarni qilgusi bordur chuluq-chujuq,
Bo'ldi zinogar-u lobagar ko'b,
Bu ishlari hech kima emas xo'b.*

¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаллиши. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б. 49.

² Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаллиши. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б. 66-67.

Yoki:

*Mardum bari **benamoz** bo'ldi,
Beajzu beniyoz bo'ldi* (TA, 52-bet).

Yoki:

*Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas amal senga qut,
Bekasb o'tsang, Ibrat, muhtoji non o'lursan* (TA, 74-bet).

Mazkur parchalardagi *beqarz*, *benamoz*, *beajz*, *beniyoz* so'zlari uzual yasalish sanalib, A.Hojiyev ta'kidlaganidek, o'zlashma so'zlar tarkibida uchraydi, *bekasb* so'zi esa okkazional yasalish ("O'zbek tilining izohli lug'ati"da uchramaydi). She'riy parchada ajratib ko'rsatilgan *zinogar*, *lobagar* so'zlaridan birinchisi uzual ma'noga ega bo'lsa, ikkinchisi okkazional yasalishdir.

Ibrat ijodida *no-* qo'shimchasi bilan yasalish ham fors-tojikcha so'zlarni qo'llashda ko'proq kuzatiladi.

*Biri der, maydonga suv sep, toza qil,
Biri der, **nosog'durmiz** uch kishi* (TA, 34-bet).

Yoki:

*Ajib so'filar, ajib so'filar,
Gazet onlarga bid'at, **nodurust*** (TA, 38-bet).

Ko'rinadiki, Ibrat ijodida sifat yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan so'zlar, asosan, uzual, ba'zan okkazional yasalish xususiyatiga ega. Shu o'rinda Ibratning nega aynan *nosog'* yoki *nodurust* so'zlarini ishlatganiga e'tibor qarataylik. *Nosog'* so'zi *kasal*, *bemor* so'zlariga sinonim sifatida tushunilsa-da, yuqoridagi parchada u ko'chma ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan. Ushbu kontekstda *kasal*, *bemor* so'zlari qo'llansa, ta'sirchanlik kamaygan bo'lardi. Keyingi misralarda ajratib ko'rsatilgan *nodurust* so'zi haqida ham shunday deyish mumkin. U ma'nosi ma'nodoshi *noto'g'ri* leksemasiga nisbatan o'zgacha ottenka ifodalaydi: shuning uchun adib bu o'rinda *nodurust* yasalmasini tanlagan. Shu sababli Ibrat ijodida o'ziga xos yasama so'zlarning qo'llanishi muallif idiositili – gaplardagi ekspressiv bo'yoqdorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

-dosh asosdan anglashilgan narsaga bir xil (teng) aloqador. ishtirokchi bo'lgan shaxs ma'nosidagi ot yasaydi: *sinfdosh*.

quoldosh, musobaqadosh kabi¹. Shunday ma'no-vazifa Ibrat asarlari tilidagi *-dosh* yasovchili yasama so'zlarning qo'llanishi uchun ham xosdir. Masalan:

Dunyo aylab safarlar, topmadim xo'b orqadosh,

Hasrati dilni deymay, hech etmay sirni fosh (TA, 30-bet).

Ushbu she'riy parchada *orqadosh* so'zi "do'st", "o'rtoq" ma'nosini ifodalagan. Ammo ushbu sinonimik qatordan aynan *orqadosh* so'zining tanlanishi va matn tarkibida qo'llanilishi muallif maqsadini ifodalashning eng mahsuldor usuli tarzida baholanishi maqsadga muvofiq: chunki u o'z davri uchun o'ziga xos yasalma bo'lib, she'riy matn mazmunidagi ekspressivlikni orttirishga xizmat qilgan.

Ma'lumki, hozirgi turkiy tillardagi, jumladan, o'zbek tilidagi sifat yasovchi *-li* va ot yasovchi *-lik* affikslari (turli fonetik variantlari bilan) asli bir manbadan. *-li* affiksining sifat yasovchi, *-lik* affiksining ot yasovchi sifatida differensiatsiyalanishi keyingi davrlarga oid. *-lik* va *-li* affikslari haqidagi qarashlar K.Sharipovaning "O'zbek tilida so'z yasovchi *-lik*, *-li*, *-chilik* affikslari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida batafsil sharhiga ega bo'lgan. Dissertantning ta'kidlashicha, bunday differensiatsiyalash aniq, qat'iy va ilmiy asosda hal etilmagan². *-li* qo'shimchasiga xos ma'no va vazifada ayrim tillarda *-lik* affiksi qo'llanadi va, aksincha, *-lik* affiksiga xos ma'no va vazifada ba'zi turkiy tillarda *-li* affiksi qo'llanadi.

O'zbek tilida *-lik* affiksi, *-li* affiksidan farqli holda, ot yasovchi deb ko'rsatilsa-da, lekin dalillar uning yordamida belgi bildiruvchi so'zlar ham yasalishini ko'rsatadi. Bu affiks yordamida quyidagi ma'noli sifatlar yasaladi:

1. Aniqlanmish vazifasidagi so'z bildirgan narsaning yasovchi asosdan anglashilgan narsa-predmet, vaqt uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi sifat yasaydi: *urug'lik chigit, ko'ylaklik mato, qishlik kiyim, tushlik ovqat*.

2. Aniqlanmish vazifasidagi so'z bildirgan predmetning yasovchi asosdan anglashilgan vaqt bilan xarakterlanuvchi (shu vaqt

¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаллиши. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б. 39

² Шарипова К. Словообразующие аффиксы *-лик*, *-ли*, *-чилик* в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук — Ташкент, 1972. — С. 18.

birlikiga oid) belgisini bildiruvchi sifat yasaydi: *kunlik norma, oylik maosh, yillik plan*¹.

Ibrat asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari ustida olib borgan kuzatishlarimiz ko'rsatdiki, uning asarlari tilida *-lik* qo'shimchasi bilan yasalgan sifatlar aksariyat o'rinlarda qayd etilgan farqlanish hisobga olinib, to'g'ri qo'llangan. Ayrim o'rinlardagina *-li* o'rniga *-lik* qo'shimchali so'z qo'llangani kuzatiladi. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida qo'llaniladigan *o'smali* so'zi Ibrat nutqida *vo'smalik* shaklida ifoda etilgan. Masalan:

Vo'smalik qoshingmudur yoki qon to'kub usru,

Zang bog'lamishdurlar ikki tig'i burronlar (TA, 31-bet).

-lik qo'shimchasining qo'llanishi bilan bog'liq yana bir xarakterli holat shundaki, hozirgi o'zbek tilida qo'llanadigan *bog'dorchilik* leksemasi Ibrat nutqida *bog'dorlik* tarzida qo'llanadi. Masalan: *1334-hijriyda bog'dorlar ko'rgan manfaat va foydalarini bilib, emdi yanadan bog'dorlikka* tushtilar. *Bo'lmasa, uzumni chiqorib, paxta ekkon edi. Yarlari zarxez, Hinduston va Arabiston mevalaridan bo'lak hamma meva mavjuddur* (TA, 63-bet). Ayni o'rinda *bog'dor* yasama so'zining *bog'bon* yasalmasi o'rnida qo'llanganini ko'rish mumkin. Bizningcha, bu holatlar, ya'ni *-chilik* o'rnida *-likning*, *-bon* o'rnida *-dorning* qo'llanishi Ibratning Namangan shevasi vakili ekani bilan izohlanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayonida bo'lganligi ham bu holatni tushunishga imkon beradi. A.Hojiyevning yozishicha, *-lik* affiksi ma'lum bir ish, kasb-hunar egasini (shu ish-kasb bilan shug'ullanuvchi shaxsni) anglatuvchi so'zga qo'shib asosdan anglashilgan shaxsga (kasb egasiga) xos ish, mashg'ulot ma'nosini bildiruvchi ot yasaydi: *dekanlik, misgarlik, o'qituvchilik* kabi. Shunday ma'noli ot yasalishida

-lik affiksidan istisnosiz foydalanish mumkin. Lekin *o'qituvchilik, temirchilik* kabi so'zlardagi *-chilik* qismini bir affiks deb tasavvur etish ta'sirida bo'lsa kerak, ma'lum ish, kasb egasini bildiruvchi so'zlardan *-lik* affiksi yordamida ko'rib o'tilgan ma'nodagi ot yasalishi mumkin bo'lgani holda uning o'rnida *-chilik* affiksini qo'llash hollari uchraydi: *kosibchilik, savdogarchilik* kabi.

¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалishi. – Тошкент. Ўқитувчи, 1989. – Б.71.

Mardikorchilik, oshpazlik, novvoylik soʻzlarining *mardikor, oshpaz, novvoy* qismlari bir xil xususiyatni, yaʼni uchalasi ham konkret bir ish, hunar-mashgʻulot bilan shugʻullanuvchi shaxs maʼnosini bildiradi. Binobarin, shunday shaxsga xos ish (faoliyat) maʼnosini bildiruvchi soʻzning yasalishi bir tipda boʻlishi – har uchala soʻz *-lik* affiksi yordamida yasalishi lozim edi: *mardikorlik, oshpazlik, novvoylik* kabi¹. Bundan kelib chiqadiki, Ibrat *bogʻdorchilik* tarzida emas, *bogʻdorlik* deb ishlatgani toʻgʻriroq boʻlgan, ish faoliyat turini toʻgʻri aks ettirgan.

Endi Isʼhoqxon Ibrat asarlari nutqidagi okkazional yasama soʻzlarning xususiyatlariga eʼtibor qaratamiz. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, okkazional yasama soʻzlar kamunum model asosida yasalgan, faqat muayyan nutqiy matndan kelib chiqqan holda oʻziga xos alohida maʼnoda qoʻllanadigan soʻz, individual-uslubiy neologizmdir.

Bir necha yillar ichinda shahrimiz jannat boʻlar,

Bul tariqa boshchilar qilsa tashabbuslar agar (TA, 37-bet).

Ushbu misrada qoʻllangan *boshchi* soʻzi *boshliq, rahbar* soʻzlari maʼnosida kelgan boʻlib, ular bilan sinonimlik hosil qilgan holda shu maʼnoni ixcham tarzda kuchaytirib ifodalashga xizmat qilgan.

... Bu daryoy-u aroba mehnatidin aylabon uzlat,

Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi (TA, 44-bet).

Ushbu nutq parchasi mazmunidan kelib chiqadigan boʻlsak, jratib koʻrsatilgan soʻz oʻzi birikib kelgan soʻz bilan birga *insonparvarlik yordami vagoni* kelganligini ifoda etmoqda. Demak, Ibrat *insonparvarlik* soʻzi oʻrnida *insoniy* soʻzini maʼno va vazifa jihatdan toʻgʻri qoʻllagan holda alohida okkazional qoʻllanishni yarata olgan.

Boʻlub bu shahrimiz navzodi bunyod oʻldi ijodiy,

Safarni zahmatidin xalqlar oldi xatti ozodiy,

Namanganni nihodiga nasimi etti obodiy,

Qilurmi hargiz emdi ul kirokash zahmatin yodi,

Ajib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi (TA, 45-bet).

¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаллиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б.74.

Ushbu matn mazmuni tahlilidan kelib chiqadigan xulosa shuki, ushbu kontekstda *ozodiy* va *obodiy* soʻzlari *ozodlik*, *obodlik* kabi yasama soʻzlar oʻrnida qoʻllangan okkazionalizmlardir.

Ibrat ishlatgan okkazional soʻzlarda oʻzbekcha va forscha soʻzlarning transformatsiyaga uchrash holatlari ham kuzatiladi. Masalan, fors-tojikcha *bekor* soʻzi Ibrat asarlari tilida *bekora* tarzida qoʻllanib, qofiyadoshlik hosil qilgan.

Hama oʻz ishi birla ovora,

*Koʻchada yoʻqki xalq **bekora*** (TA, 50-bet).

Shu maʼnoda *bekora* soʻzshakli *bekor* soʻzining poetik varianti hisoblanadi. Uni *bekor* soʻzining individual morfologik varianti deyish ham mumkin. Bu yerda lugʻaviy maʼnoda oʻzgarish yoʻq, ammo grammatik shakl oʻzgartirilib gapda uslubiy vazifa bajarib kelmoqda: *ovora* soʻziga qofiyadoshlik kasb etib, maʼnoning taʼsirchan boʻlishiga xizmat qilmoqda. *Bekora* soʻzshakli oʻzbek adabiy tilida qoʻllanuvchi *bekorchi* soʻziga sinonim boʻla olish xususiyatiga ham ega. Demak, *bekora* soʻzi oʻzbek tilidagi boshqa bir leksema maʼnosini ifodalashga xizmat qilgan okkazionalizm sifatida ham eʼtiborga loyiqdir.

Hozirgi oʻzbek tilida *dilogoh* degan soʻz uchramaydi. Navoiy asarlari qisqacha izohli lugʻatida ham bu soʻzga duch kelmadik. Shunga koʻra, Ibrat tomonidan qoʻllangan *dilogoh* soʻzini okkazional yasalma sifatida qayd qilishga asos mavjud:

*Soʻz koʻb desam man, ey **dilogoh**,*

Qildim oxiri qissani koʻtah (TA, 53-bet).

Bunday okkazionalizmlar matn muallifining tilning hali ochilmagan soʻz yasaliishi imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olish mahorati natijasini ham koʻrsatib turadi, deyish mumkin.

Ibrat asarlari tilida affiksatsiya usulida soʻz yasaliishiga oid eʼtiborga loyiq jihatlar koʻplab topiladi. Shu sabab bu masalaga kengroq toʻxtalamiz. Quyidagi misollarga diqqat qilaylik: ... *Andijon, Namangon, Oʻsh shaharlari boʻlib, ular Fargʻonagʻa taalluq shaharlardur. Fargʻona Turkistonda bir katta muzofot oʻlub, ilgari vaqtlarda **musulmoniya** hukumatida Xoʻqand xonlari tarafidin idora qilinadurgon bir hukumati mustaqala edi. Bu kunlarda Oʻrta Oziyo qitʼasidagi shaharlardan hisob boʻlib, bir **gubirnalik** muzofotdur* (TA, 63-bet); *Munda bir oz ilovai kalom*

bo'ldi. Xayr ul-kalom, Farg'ona bir mamlakati qadim va aholiyi nadim o'lib, avvali vaqtlarda **mo'g'uliyadan** so'ng ediki, har sanada necha ming so'mlik **mansuhot** ifak, atlas va adras va beqasab va shohi atrof-aknofga torqolmoqda edi (TA, 65-bet); Bu adovatlarini bir yerga etkurmoq uchun Talasda Uychin degan **qirg'iziyada** uylanub qolgan Sheralixonni olib kelib, To'raqo'rg'onda rusumi qadima ila oq kigizg'a solib, xon ko'tarib, Xo'qandga kirmasdan avval **mang'itiyani** qirib, ahadini qo'ymay, To'raqo'rg'ondan talabgorlar chiqib, daryodan o'tub, Sultonbayozg'a qo'nub, anda necha ming qo'shun bo'lub, ertasi Xo'qandga kirmaqda ekanlar (TA, 72-bet); Ammoki, jamoai **sardiya** va **o'zbakiyalar** bu ishdan xursand bo'lmay, besaranjom edilar. Sirran ittifoq qilib, **qipchoqiya** va **qirg'iziyani** surub, Bilqillama degan joygacha quvub, shahardan chiqardilar (TA, 74-bet); Mallaxon Xudoyorxonni nomashru' ishlaridan ko'rsatib, azl qilib, o'zi xon bo'lmoqchi deb, ig'vo va fitnalar chiqorub, Mallaxon bularni fikri xadi'a bilib, **elatiyaga** ketib (TA, 77-bet).

Yuqoridagi misollarda **-iya** qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar ajratib ko'rsatilgan. Hozirgi o'zbek tilida bu qo'shimcha bilan so'z yasalishi hodisasi tavsiflangan manba deyarli uchramaydi. Ammo Ibrat asarlaridagi bu so'zlarning millat va elat nomini bildirgan so'zlarga **-iya** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinganligi ko'rinib turibdi: *musulmon+iya, mo'g'ul+iya, qirg'iz+iya, mang'it+iya, sard+iya, o'zbek+iya, qipchoq+iya*. Demak, mazkur so'zlarni ham Ibrat asarlaridagi okkazional yasalmalar sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

-cha qo'shimchali so'zlar. Ma'lumotlarga ko'ra, **-cha** affiksi fe'ldan boshqa deyarli barcha mustaqil so'z turkumlariga oid leksemalardan ravish yasaydi. Lekin, birinchidan, uning yordamida yasalgan ravishlar ko'p emas. Ikkinchidan, bu affiks yordamida ravish yasalishi ma'lum sistemani tashkil etmaydi. Masalan, u ot va sifatdan ravish yasaydi: *zarracha, ayyorcha* kabi. Lekin **-cha** affiksi ot yoki sifatning ma'lum bir leksik-semantik turidan umumiy so'z yasaliish ma'nosiga ega bo'lgan, so'z yasaliishining ma'lum tipini hosil qiluvchi ravishlar yasamaydi. Bir turkumga oid leksemalardan yasalgan ravishlar ham turli leksik-semantik turga oid bo'ladi: *yashirincha* (tarz ravishi), *butunicha* (miqdor-daraja ravishi). Hatto,

bir leksik-semantik turga oid ravishlar ham bir xil soʻz yasalishi maʼnosiga ega boʻlmaydi. Masalan, *ayyorcha*, *yashirinch*a soʻzlari tarz ravishidir¹.

Tadqiq obyektimizda koʻp boʻlmasa-da, ushbu qoʻshimcha bilan yasalgan soʻzlar qoʻllanishi kuzatiladi: *“Falon oy, falon kunda unda askar yuborsang olursan”, deganda amri pir mujibincha ul vaqtda askar yuborub, ul shaharni olgan ekan* (TA, 65-bet.) Mazkur misolda ajratib koʻrsatilgan yasama soʻz muallif ijodi va uslubiga xos okkazonal maʼholi soʻzdir.

Navoiy asarlari izohli lugʻatida *mujib* soʻzi quyidagicha izohlanadi: **“MUJIB** 1. Sabab, bois: *Har yerda matlubdin ise dimogʻingizda yetsa, tilang va talabda oʻz himmatingiz mujibi bila taqdir qilmang*. Nasoyimul-muhabbat, XV-128; 2. Lozim, tarz: *Qizil tulku yoxud qaro qish kibi, Ki boʻlgʻay tuki qatlining mujibi*. Saddi Iskandariy (Xamsa), 1271”².

Keltirilgan izohga tayanilsa, matnda lozim maʼnosiga *-incha* qoʻshimchasi qoʻshilishidan “lozim tarzda” degan maʼnoni bildiruvchi ravish yasalgan.

-iy, -viy qoʻshimchali soʻzlar. Ibrat asarlarida *-iy* qoʻshimchasi bilan yasalgan soʻzlar ham oʻz ifodasini topgan. Masalan: *Bul hodisa taqdiriydur, lekin sababi zohiriysi Muhammad Alixon fuqarodin beparvo boʻlub, musohiblari ulamo va fuzalolardan boʻlmay, pandu nasihat eshitmay, eshitsa ham quloqqa olmay* (TA, 72-bet).

-iy, -viy qoʻshimchalari vositasida unli bilan tugagan soʻzga *-viy*, undosh bilar bitgan soʻzga *-iy* qoʻshiladi. Bu affiks otga qoʻshilib, asosdan anglashilgan narsaga aloqadorlik, oidlik belgisini bildiruvchi sifat yasaydi: *aqliy, axloqiy, jinsiy, ijodiy, ilmiy, kitobiy, ishqiy, afsonaviy, oilaviy, tarbiyaviy* kabi. (Ravishdan yasalgan bir-ikki sifat ham bor: *doimiy, nogahoniy* kabi.) Akademik A.Hojiyevning taʼkidlashicha, professor A.Kononov bu qoʻshimchani oʻzbek tilida mahsuldor emas, deb hisoblaydi va uning ilgari oʻzlashgan arabcha soʻzlar tarkibida saqlanib qolganini aytadi. Haqiqatan ham, bu qoʻshimcha aslida oʻzbek tiliga arabcha oʻzlashma soʻzlar tarkibi

¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалishi. — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. — Б. 93.

² Алишер Навоий асарларининг изохли лугати. 4 жилдлик. 3-жилд. / Э.Фозилов тахрири остида. — Тошкент: Фан, 1983. — Б.336.

orqali o'tgan. Lekin hozirgi o'zbek tilidagi *-iy*, *-viy* affiksli so'zlarning hammasini arab tilidan o'zlashgan so'zlar deb bo'lmaydi. Bunday so'zlarnig anchagina qismi o'zbek tilining o'zida yasalgan. Masalan, *asabiy*, *askariy*, *devoriy*, *ijodiy*, *kitobiy*, *sinfii*, *hayotiy*, *dunyoviy*, *tarbiyaviy* kabi so'zlar, garchi ularning yasovchi asosi asli o'zbekcha leksema bo'lmasa ham, o'zbek tilining o'zida hosil qilingan so'zlardir. Hatto, bu qo'shimcha yordamida keyingi vaqtlarda rus tilidan o'zlashgan leksemalardan ham sifat yasalayotganini kuzatish mumkin¹.

Ammo Ibrat asarlariga oid keltirilgan matndagi *taqdiriy* so'zi o'zbek tilida mavjud emas. Shu sababli uni muallif tomonidan yasalgan okkazional so'z deb baholash to'g'ri bo'ladi.

-be, -bo qo'shimchali so'zlar. Avval ta'kidlanganidek, tadqiq obyektimizda *be-*, *ba-* old qo'shimchalari bilan yasaliş holatlari ko'p uchraydi. Yuqorida *be-*, *ba-* old qo'shimchalari bilan uzual yasaliş holatini tahlil qilgandik. Quyida okkazional yasalişlarni sharhlaymiz. Masalan: *Sheralixon avvalo bemehnat xon bo'lub, julusini(ng) uchunchi yili 1261- hijriyda inoqlar qo'lida shahodat topdi* (TA, 74-bet); *Ul joyda qitoli azim va harbi alim qilib, oxiri kor Musulmonqulini asir qilib olub, temir qafasga solib, darvozaga osib qo'yub, Xudoyorxon julusini(ng) o'n ikkinchi sanasinda muni qatl qildilar. So'ngra xonning hukumati baistiqlol bo'ldi* (TA, 75-bet); *Orqasidan odam bormadi. Xonni Toshkandda olub kirub izzat-u ikrom ilan hamma baittifoq bay'at qilib, Toshkandda saqladilar* (TA, 75-bet). Mazkur misollarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zbek tilining izohli lug'atida ham, Navoiy asarlari izohli lug'atida ham uchramaydi. Ammo yasaliş asosi, yasovchi qism aniq ko'rinib turibdi, yasalma yangi ma'no ifodalagan: *be+mehnat*, *ba+istiqlol*, *ba+ittifoq*. Demak, bu so'zlarni ham muallif uslubiga xos okkazional yasalmalar sifatida baholash mumkin.

-gar qo'shimchali so'zlar. *-gar* qo'shimchasi asosdan anglashilgan narsa, ish bilan bog'liq kasbni qiluvchi shaxs ma'nosidagi ot yasaydi: *savdogar*, *zargar* kabi². Tadqiq obyektimizda ham xuddi shu qolipli, ammo umumiy ma'noli so'z yasalgan:

¹ Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаллиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 72.

² Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаллиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 42.

Nasihati sanga bo'lmasa korgar,

Sani bu ishing barchamizga zarar (TA, 76-bet).

Tilshunos olim A.Hojiyev soʻz yasallishining affiksatsiya usuli haqida batafsil fikr yuritgan boʻlsa-da, *obod* affiksoidi yuzasidan keng maʼlumot bermaydi. Biroq monografiyaning kompozitsiya usulida ot yasallishi boʻlimida *obod* qismi bilan yasallishni quyidagicha tavsiflaydi: “Kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi asos va formant kabi komponentga ega boʻlgan qoʻshma otlarning uch xil tipi bor. Bularda *obod*, *tapa*, *poya* soʻzlari formant vazifasida qoʻllanadi. -*obod*. Joy nomlari (atoqli otlar) yasaydi: *Xalqobod*, *Yangiobod*, *Sovetobod* kabi”¹. Koʻrinadiki, -*obod* formanti, odatda, atoqli ot yasaydi. Ammo Ibrat ijodida bu yasovchining turdosh ot yasallishida ham ishtirok etgani kuzatiladi:

Aning keyingi islomobod boʻlishi Imom Qutayba bin Muslim taraflaridan boʻlgʻon. ... Soʻngra hazrat Usmon zamonlarida Jarir bin Abdulloh voqealari bul ekonki, Turkiston shaharlari aksari islomobod boʻlib, qalmoq qoʻlidan davlat arablarga oʻtganda, poytaxt yiroq uchun har doim qalmoqlar talon-toraj qilib, musulmonlarni besaranjom qilib turar ekon. Ul vaqtlarda bu shahardin ikki kishi Arabistongʻa arzga borgon ekonki: “Biz – ahli islomni majusiylardin xalos qilsalar” deb (TA, 85-bet). Bu oʻrinda muallif islom dini tarqalgan, islom bilan *obod* boʻlgan yer degan maʼnoli soʻz yasagani maʼlum boʻladi. Bu yerdagi islomobod atoqli ot asosdan yasalgan Islomobod emas.

Shu sababli *islomobod* soʻzini ham okkazional yasalma deb baholash mumkin. Shunisi xarakterliki, Ibrat asarlaridagi matnlarida qoʻllangan qoʻshma soʻzlar (kompozitsion usulda yasalganlar) orasida ham okkazional yasalmalar kuzatiladi: *Yerlar mahsuldor oʻlub, Rusiya davlatida boʻlgandan buyon nechand daraja tijorat va ziroat ishlari muravvaj boʻlib, temir yoʻllar inshosi va vositasi ilan hamma ishlari oson oʻlub, dahoinlari aksariyatda paxta ziroati ilan rivojlanub, paxta tijorati boʻlak ishlardan rivojda boʻlib, muni foydasiga aldanub, ziroati milliyarlari: bugʻdoy va juvari, arfa ekmoq yoʻq boʻlib, eslaridan chiqarub, 1913 milodiyda paxta ziroat va tijoratiga oʻrgangan kishilar qarz daryosiga gʻarq boʻlganlarini*

¹ Shu manba. -B. 44.

mushohada qilib, emdi aqliyat ilan avvalgi ekinlariga muhabbat qilib, avqoti ekmakka tushdilar. (TA, 89-bet). Mazkur parchada keltirilgan *muravvaj bo'lmoq, muhabbat qilmoq* so'zlarini yuqorida qayd qilib o'tgan lug'atlarimizda uchratmadik, lug'atlarda berilmagan ushbu birliklarni ham okkazional yasalish deb baholadik. Matnning ma'noviy mundarijasiga ko'ra *muravvaj bo'lmoq* "rivojlanmoq" ma'nosini, *muhabbat qilmoq* "mehr ko'rsatmoq" ma'nolarini ifodalab kelgan. O'zbek tilida mavjud qolip asosida yasalgan bo'lsa-da, so'z yasovchi asoslarning bundan avval bunday yasovchi vosita bilan birikish hosil qilmaganiga, ya'ni so'z yasovchi vositaning bunday yasovchi asosga bog'lanib kelmaganiga ko'ra, mazkur yasalmalar ham o'ziga xos individual yasalish sanaladi.

Asarlar matnida kompozitsion usuldagi yasalmalarda frazeologik birliklar transformatsiyasining asos bo'lgani ham kuzatiladi. Masalan: *Mandin nima gunoh o'tdiki, ta'zir berding*" deganda, *"Avliyog'a karomat satri vojib edi, siz karomatni oshkor qildingiz. Tarki vojib jazosi yetmish qamchi ekan, o'z qavlingizda binobarin yetmish qamchi edingiz, – degan ekan* (TA, 94-bet). Mazkur misolda ajratib ko'rsatilgan birlik hozirgi o'zbek tilidagi *ta'zirini hermoq* iborasining transformatsiyasi asosida hosil qilingan qo'shma so'zdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ibrat asarlaridagi yasalmalar uzual va okkazional xususiyatga ega bo'lib, turli xil badiiy matnlarda so'zlovchi, nutqiy vaziyat, tinglovchi bilan bog'liq amaliy-pragmatik maqsad talabiga muvofiq grammatik shakllangan semantik-funksional birlik sifatida har xil uslubiy ma'no vazifada qo'llangan. Shularga asoslangan holda, Ibratni o'zbek tili imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalangan so'z ijodkori sifatida alohida e'tirof etish mumkin.

Ibrat asarlari tilining ayrim morfologik xususiyatlari

O'zbek adabiy tilining shakllanish tarixi, o'zbek tilining tarixiy grammatikasi haqida bir qancha o'quv qo'llanma va monografiyalar¹ mavjud. Ularda o'zbek tilining taraqqiyot

¹ Абдурахмонов Г., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 320 б; Аширбоев С., Азимов И.

bosqichlari, ularning o'ziga xosligi, grammatik xususiyatlari har bir davrga oid yozma manbalar, ilmiy, badiiy adabiyotlar tili asosida atroflicha tavsiflangan. Bu borada taniqli olimlar, ilm-fan fidoyilari, yozuvchi, shoirlarning ilmiy-ijodiy asarlari alohida ahamiyatga molikdir. Chunki ular yaratgan asarlarda turli til birliklarining ma'lum me'yorga asoslangan, barqarorlashgan, takomillashgan namunalari boshqalarga qaraganda ko'proq, kengroq va aniqroq namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ularning turli davrlarga tegishli ilmiy, badiiy asarlarining til xususiyatlarini o'rganish o'sha davr til tizimini tushunib, o'zlashtirib olish imkonini beradi¹. Shu sabab ushbu masala o'zbek tilshunoslarining doimiy diqqat markazida turadigan, hech qachon kun tartibidan tushmaydigan dolzarb vazifasi bo'lib kelgan, hozir ham shunday, kelajakda ham shunday bo'lib qolaveradi. Bunda muayyan olim, ijodkorlar asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlarining yoritilishining ahamiyati katta. Chunki tilning asosiy belgilari uning leksikasi va grammatikasida ifodalangan bo'ladi.

A.Muxtorov, U.Sanaqulovlar muayyan bir tilning taraqqiyot bosqichida yaratilgan ilmiy, badiiy asarning til xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati haqida shunday yozishadi: "Til hodisalarini to'g'ri va chuqur tushungan holda keng ilmiy tahlil qilish, hozirgi jonli xalq tili, so'zlashuv nutqi xususiyatlari bilan adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari faktlarini qiyoslab o'rganish natijalari o'tmishdagi jonli xalq tilining ayrim xususiyatlarini bilib olishda ma'lum asos bo'lishi mumkin"².

Tilshunos B.O'rinboyev esa yozma manbalar asosida o'tgan asrlardagi jonli xalq tili, so'zlashuv nutqi xususiyatlarini o'rganishda tarixiy obidalarni, badiiy asarlarning matnlarini, ayniqsa, o'z davriga xos nutq amaliyotini aks ettiruvchi asarlarni

Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўқув қўлланма – Тошкент: ТДПУ, 2012 – 97 б.
Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. Университет ва педагогика институти талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995 – 160 б. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институти филология факультети студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982 – 176 б. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси / Масъул муҳаррир Ғ.Абдурахмонов. – Тошкент: Фан, 1964. – 144 б.

¹ Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. Университет ва педагогика институти талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.10.

² Sha manba. – Б.12

tanlash juda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Taniqli olimning o'zbek tili jonli so'zlashuv nutqini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida bunday xulosalar asosan badiiy asar matnlariga asoslanadi¹.

U.Tursunov, B.O'rinboyevlarning ilmiy asarlarida XX asr boshidagi eski o'zbek tilining xususiyatlari haqida ham qimmatli kuzatishlar bor. Ular bu davr tilini o'sha davrda yaratilgan asarlar asosida quyidagicha ta'riflashadi²:

1. G'arbiy turkiy elementlar tilga mustahkam o'rnashib olib, o'sha davr adabiyoti va matbuoti tilida uzoq vaqt saqlanib qolgan. Bu g'arbiy elementlar bir necha fonetik faktlarda ham saqlangan. Masalan: *Uch do'rt kun saqlaniyur axri var* ("Taraqqiy", № 6, 5 VII. 1906); *vir mamlakat var esa* ("Sadoi Farg'ona", № 4, 13. VI. 1914); *xabar berdi* ("Sadoi Turkiston", 18. IV. 1914).

2. Bu davr tilida g'arbiy tillarga xos bo'lgan *o'l* bilan o'zbekcha *bo'l* fe'llari parallel ishlatildi. Masalan: *Bu bankada Fransiya uch hissa o'lib boshqa davlatlar haqi birgina hissa o'lur emish* ("Taraqqiy", № 4, 25.VI. 1906). *Majbur o'ldi* (shu joyda). *Bizlarna o'ldi* ("Xurshid", № 9, 3. IX. 1906) kabi.

3. Adabiy tilga bir qancha g'arbiy-turkiy morfologik elementlar ham kirib keldi. Masalan, quyidagi g'arbiy turkiy morfologik elementlar uchraydi: sifatdoshning o'tgan zamon formasi: *Mayub isab edilan kishilar* ("Taraqqiy", № 7, 22.VII. 1906). *Istambuldin gelan xabarga qaraganda* ("Xurshid", № 2, 14.IX. 1906); sifatdoshning kelasi zamon formasi: *Taraqqiy bizim Ma'rifatimizning muftahi o'lajakdir* ("Taraqqiy", № 6, 5.VI. 1906); o'tgan zamon fe'li formasi: *Zayniddin Xarrat bu voqeani tushida ko'rmishti* ("Taraqqiy", № 4, 25.VI. 1906); hozirgi zamon fe'li formasi: *Isbat qiliyur* ("Taraqqiy", № 15, 5.VIII. 1906). *Xo'qanddin mudaris M. N. hazratlari yoziblar* ("Sadoi Turkiston", № 6, 24.IV. 1914); sifatdoshning -dik affiksli formasi: *Birinchi moddasi mutolaa qilindikdan so'ngra* ("Xurshid", № 2, 14. IX. 1906).

¹ Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзlashuv нутки синтаксиси масалалари. – Тошкент: СамДУ, 1974. – 168 б.

² Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институти филология факультети студентлари учун кўлашма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 137.

4. Tatarizmlar morfologik va leksik elementlarda ham ko'rina boshladi. Masalan: *Bizim Turkiston* ("Sadoi Turkiston", № 10, 17.V. 1914), *qo'linda bar materiallar* (Shu joyda), *tiyishli ma'lumot yibaru* (Shu joyda), *uram vagun* (tramvay) ("Taraqqiy", № 14, 3. VIII. 1906); *jirlavchi jonim* ("Sadoi Turkiston", № 18, 1914) kabi¹.

XX asr boshlaridagi o'sha davr tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlarni Is'hoqxon Ibrat asarlari tili asosida o'rganish ham mazkur davr tili haqidagi tasavvur-tushunchalarimizni ayrim yangi ilmiy asoslar, dalillar bilan boyitadi, qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Bu holat Ibrat asarlari tilining morfologik aspekti uchun ham taalluqlidir. Zero, morfologiya bir tomondan leksikologiya bilan, ikkinchi tomondan sintaksis bilan, uchinchi tomondan morfemika bilan bevosita aloqadordir. Tadqiqot obyekti nutqiy birlik bo'lganligi sabab morfologiya o'z-o'zidan uslubiyat bilan aloqadordir. Ayni shu jihat uning lingvopragmatika bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Mana shularning o'ziyoq Ibrat asarlarining morfologik xususiyatlarini o'rganishni ilmiy zaruratga aylantiradi. Shu sabab tadqiqotimizning ushbu bo'limi Ibrat asarlari tilining morfologik xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan. Quyidagilar bu boradagi kuzatishlarimizning asosiy natijalari Ibrat asarlari tilining morfologik xususiyatlari hisoblanadi.

Ismlarda egalik va kelishik qo'shimchalari hamda lug'aviy shakl yasovchilarning qo'llanishi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, tushum kelishigining qisqargan shakli ham uchraydi:

Xalq o'ldi emdi tartib, ro'molga burnin artib,

Moshina aylamasdan, kiymas chofon bo'lubdur (TA, 32-bet).

Jo'nalish kelishigi me'yoriy *-ga*, *-ka* affikslaridan tashqari *-g'a*, *-a*, *-na* shakllarida ham keng qo'llanadi:

Jahon hech kimga gardish etmadi iqbolina tavri,

Zamona holi mol, qofi unlardan qalaysizlar? (TA, 32-bet).

Yoki:

Ishqing dilu jona jo bo'lubdur,

Jonu dil anga fido bo'lubdur (TA, 36-bet).

Bunday holat – jo'nalish kelishigining *-na* shaklida qo'llanilishi Ibratning nasriy asarlarida ham ko'p kuzatildi:

¹ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институти филология факультети студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 138.

Bul ham bir ming bir yuz oltmish to'rtinchi yilda vafot bo'ldi. O'g'li Abdurahmon joyina o'turdi (TA, 65-bet); Yigirmadan ziyoda kichik bolalar "alif nima?" degan savolina "kaltak" deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg'on bo'ldilar (TA, 103-bet).

Boshqa bir hollarda jo'nalish kelishigi o'zining singarmonizmga asoslangan

-g'a shaklida ishlatilgan:

Hamani qo'ymadi o'z holig'a, tashvishlar soldi,

Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar? (TA, 32-bet).

Yoki:

Maqsad bu ishdan erdi olamg'a ilm kasri,

Ham qo'ymoqg'a asarlar yodovari jahona (TA, 39-bet).

Bu shakl Ibratning nasriy asarlari tilida ham ko'p uchraydi: *Xususan, muqaddas masjidg'a so'ylagan va'z har bir mo'min qalbina du bolo ta'sir etar (TA, 104-bet).*

Chiqish kelishigi -dan bilan birga an'anaviy she'riyatdagi kabi -din shaklida ham qo'llanib, ma'noni kuchaytirib ifodalashga erishilgan:

Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?

Bu tiriklik yili bug'doyu unlardan qalaysizlar? (TA, 32-bet).

Yoki:

Ko'b qozixonalarda ushbu zamonalarda

Ishdin zakunchilar ko'b, emdi yamon bo'lubdur (TA, 34-bet).

Egalik shaklining ishlatilishi. Ibrat asarlarida egalik shaklining ishlatilishini kuzatar ekanmiz, odatdagi bilan birga, o'ziga xos holatga III shaxs birlik shaklidagi egalik qo'shimchasining -in shaklida qo'llanishiga guvoh bo'ldik. Masalan: *"Tarixi shohi Jarir"da yozibdur: Islomdan qadim Qubod podshoh zamonida markazi hukumat Qubo shahri bo'lib, anda mo'g'uliyalar podshohlaridan Xushdod degon qalmoq hukumat surub, majuslar qo'linda edi (TA, 84-bet).*

Fe'llarda aloqa-munosabat shakllari. Manbalarda ko'rsatilishicha, o'zbek tili tarixida o'tgan zamon fe'llari quyidagi shakllar bilan hosil qilingan¹:

-duq// -duk affiksli shakl. O'tgan zamon sifatdoshining *-duq, -duk* affiksli shakli qadimgi yodgorliklar tilida keng iste'molda bo'lib, o'tgan zamon fe'li funksiyasida ham qo'llangan. Bu sifatdosh o'tgan zamon fe'li funksiyasida XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklardan "Tafsir"da ham qo'llangan bo'lib, unga ko'pincha *turur* holat fe'li qo'shilib kelgan: *Munda aytur qo'ldo'm teb, valekin qo'lmaduq turur. Hech ko'z andag' kormadyk tururlar, hech ko'nyl ano'u-dek sanmaduq bolur* (TA, 57-bet).

Bu shakl Ibrat asarlari tilida ham kuzatiladi:

Kash-u kamoli islom bo'lmay taraqqiyotda,

Holig'a tushmasun deb etduk buni bahona (TA, 39-bet).

-do// -di// -to// -ti affiksli shakl. Bu shakl eski o'zbek tilining barcha davrlarida keng qo'llangan va u ushbu affiksga qisqargan tuslovchilarni qo'shish bilan ishlatilgan. Ibrat asarlari matnida ham *-di* shakli faol qo'llangan:

Mandin yashirma yuzlaring, Yodimg'a tushdi so'zlaring,

Kuydurdi, yorim, ko'zlaring, Ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 31-bet).

-ti affiksli shaklni quyidagi misollarda kuzatish mumkin:

Rusiya davlatiga o'tgandan so'ng bu ishlar ham chandon rivojda bo'lib, tijorati taraqqiy topti... 1312- yillarda bu yerlarga temir yo'l insho o'lub, savdo ishlari yanadan rivojga kirib, taraqqiy topti (TA, 63-bet).

Shuningdek, o'tgan zamon ma'nosi fe'lining ravishdosh shakliga *-dur* qo'shimchasining qo'shilishi bilan ifodalanganligi kuzatiladi:

1. *Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'lubdur,*

Beandisha xaloyiq fe'li yamon bo'lubdur (TA, 33-bet).

2. *Valhosil Farg'onaga tarixlarda ko'b so'zlar yozilgon ekon. Bu jumladan, "Tarixi mulhiqotu-s-saroh"da iborati arabiy ilan bul tariqa yozadur.* (TA, 57-bet).

Yuqorida qayd qilinganidek, U.Tursunov, B.O'rinboyevlar XX asr boshidagi eski o'zbek tilining xususiyatlarini tavsiflash

¹ Аширбоев С., Алимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2012. – Б. 57

davomida hozirgi zamon fe'li *-yur* qo'shimchasi bilan ifodalanishini ko'rsatishadi: *Isbat qiliyur* ("Taraqqiy", № 15, 5.VIII. 1906)¹. Bunday holat Ibrat asarlari matnida ham uchraydi:

G'amingda Qozi quling yig'layur hama doyim,

Qoshingni yoy etibon, kiprikni qaro qilasiz (TA, 39-bet).

E.Fozilov o'zbek tili tarixida hozirgi-kelasi zamon shakli quyidagi qo'shimchalar bilan hosil bo'lishini ko'rsatadi: *-ur*, *-o'r*, *-ar*, *-ir*, *-yur*, *-yo'r*². Bu shakllarning ayrimlari Ibrat asarlari tili uchun ham xosdir.

Masalan:

1. *Hech vaqti teng kelurmu husnida ham quvvati,*

Ham bahorda kim qilur har yerda qari birla yosh (TA, 58-bet).

Hama uylarda tilifun bo'lur,

Pechka issiq, sovuq so'lum bo'lur. (TA, 50-bet).

2. *Gar to'g'ri so'z qilursan, ul fahm egri aylar,*

Anga tushuntururga dardi dahon o'lursan (TA, 34-bet).

Ibrat asarlarida g'arbiy turkiy element *-yir* shaklining qo'llanishi ham kuzatildi: *Farg'ona gubirnasi shimoli sharqiy tarafidan Samarchin, shimoli g'arbiy tarafidan Sirdaryo yoki Turkiston, g'arbi janub tarafidin Buxoro xonlig'i mahkumi topoyir. Ya'ni Shag'non hukumati mustaqalasiga muttasildur.* (TA, 63-bet). Xuddi shu manba o'zbek tilida kelasi zamonni hosil qiluvchi shakllar sifatida *-g'ay*, *-gay*, *-kay*, *-gay* shakllarini ko'rsatadi³. Bu shakllar orasida *-g'ay* hamda *-gay* qo'shimchalari Ibrat asarlarida keng qo'llanadi:

1. *Kelgay zaif xayli, sanga jadali mayli,*

O'qini shast qilg'ay, san bir kamon o'lursan (TA, 37-bet).

2. *Dehqon eli, bilingiz, xirmonni kechga olg'ay,*

Bir dona xayr qilmas, oxir zamon bo'lubdur (TA, 50-bet).

3. *Eski omochda uch jon ovora erdi birdan,*

Bir kunda o'n tanoh yer yorgay, bale traktur (TA, 87-bet).

¹ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институти филология факультети студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 137.

² Фозиллов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси / Масъул мухаррир Г. Абдурахмонов. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 85.

³ Фозиллов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси / Масъул мухаррир Г. Абдурахмонов. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 89.

O'zbek tilining tarixiy grammatikasida sifatdash shakllarining -*duk*, -*do'q*, -*tuq*, -*to'q*, -*tug'*, -*duq*, -*to'g'* kabi affikslar bilan yasalishi haqida ma'lumot beriladi¹. Tadqiq obyektimizda ham ushbu qo'shimchalardan ayrimlarining qo'llanish holati kuzatildi. Jumladan: *Namangon uyezdida To'raqo'rg'on qozisi as-sayyid-ul-haj Is'hoqxon to'ra afandi bir haqiqiy musulmoni komil ekanini o'z hamqaryalari bilib turub, ha'zi afkori sodiqona tarafdori o'ldug'i uchun qozi afandi xiroji vos-vos deb taajjublanub, ta'n etkuradurlar* (TA, 105-bet).

Lekin o'tgan zamon sifatdoshi aksar hollarda -*gon* yoki -*g'on* qo'shimchasi bilan hosil qilingan:

Ishqing ichra, ey Shirin so'zli Layli, yo'qtur men

Kezmag'onu qazmog'on ko'h ila biyobonlar (TA, 47-bet).

Yoki:

... *Xonga manzur bo'lub, ustida kiyib o'lturgon besh yuz tillolik po'stunni(ng) yengini tutub,...* "Asos tosh *qo'yadurgon* kishi balog'atdan buyon tarki mustahab sodir bo'lmagan kishi tosh *qo'yodur*." (TA, 70-bet).

Maqsad ravishdoshi shakli Ibrat asarlari matnida -*goni* affiksi bilan ifodalangan:

Guldek yuzingni, dilbarim,

Ko'rgoni keldim sog'inib.

Sen shohi olam, men gado,

Ko'rgoni keldim sog'inib (TA, 53-bet).

Ibrat asarlari tilida, hozirgi o'zbek tilidagi -*ib* shakli -*ub* shaklida qo'llangan:

Sad hayfkim, g'anilar sarfini bilmadilar,

Yeb-ichdilar semurub, sig'may turub chopona (TA, 40-bet).

O'zbek tili tarixi va tarixiy grammatikasi kabi yuqorida sanab o'tilgan manbalarda² harakat nomi yasovchi qo'shimchalar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: -(o')*sh*, -(i)*sh*, -*maq*, -*mək*, -*g'u*, -*gu*, -*ku*, -*qu*. Ammo biz Ibrat asarlari matnida harakat nomi vazifasini

¹ Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси / Маъсул мухаррир Ғ. Абдурахмонов. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 105.

² Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматikasi. Морфология ва синтаксис: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 118-120.

bajaradigan, shunday ma'no ifoda etadigan quyidagi qo'shimchani kuzatdik:

Safar aylarga ko'b temir yo'llar,

Ham havo foyzin alar qo'llar.

Yo'qtur ajalni muhlati kelurg'a,

Qay kunda o'lmishini bilurg'a (TA, 51-bet).

Bu o'rinda sifatdosh shakli qo'shimchasi harakat nomi vazifasini bajargan.

Shart mayli shakli sifatida *-sa*, *-sar*, *-sar* qo'shimchalari ko'rsatiladi. Ammo tadqiqotimiz davomida shart maylining o'ziga xos qo'llanishi kuzatildi:

Adling bo'lursa aqvi, izhor aylamas hech,

Gar zarra zulm qilsang, xalqg'a ayon o'lursan (TA, 56-bet).

Bu o'rinda *bo'lsa* shakli *bo'lursa* ko'rinishida ifodalangan. Matn mazmunidan ushbu ifodaning shart mayli ekani anglashiladi.

Orttirma nisbat *-dur* shaklida ifodalanadi:

Binobarin, bu adim ul-istito'at Farg'ona ahlidan bo'lib, bu Farg'ona ahliga o'z iqlim va mamlakatlarin tarixini bildurmak bo'lib va ham man vazzaha mu'minan fakaannama ahyahu mo'jibincha bir ta'rix qoldirmoq maqsadim bo'lib, ta'rixlar jam' qilib, millatga yodgor qoldurdum (TA, 55-bet).

Bog'lama yoki kesimlik shakllarining qo'llanishi. Bog'lama va kesimlik ko'rsatkichlari ega va kesimning semantik-sintaktik aloqasini ta'minlovchi asosiy grammatik vositalardir. Ular tasdiq-inkor, mayl-modallik, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalab, eganing xatti-harakati, belgi-xususiyatini ana shu ma'nolar asosida modellastirishga xizmat qiladi. Shunisi xarakterliki, mazkur ma'nolar o'zaro dialektik bog'liqlikda faoliyat ko'rsatadi va ayni shunday holatdagina kesimlik kategoriyasini tashkil qiladi. Kesimlik shakllari, ko'rsatkichlari deganda ham ana shu shakllar nazarda tutiladi. Bo'lishli-bo'lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl, zamon, shaxs-son qo'shimchalari ana shunday shakllardir. Ular bir lug'aviy birlikka yaxlit holda qo'shilib uni grammatik shakllangan kesimga aylantiradi. Bu ma'nolar bog'lamlar uchun ham xosdir. Shu sababli ular ham ega va kesimni grammatik-sintaktik jihatdan bog'lashga xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek tilidagi *-dir* qo'shimchasi ana

shunday kesimlik shakllaridan biri bo'lib Ibrat asarlari tilida ko'proq *-dur* shaklida shaxs-son qo'shimchasi bilan birga qo'llangan:

Biri Vaqqosxon, biri mulla Sharif,

Bandi bir belbog'durmiz uch kishi (TA, 34-bet).

Ushbu ko'rsatkichning so'roq mazmunini ifodalovchi kesimga qo'shilishi ham hozirgi o'zbek tilidan farq qiladi: asos+zamon//egalik+so'roq olmoshi+kesimlik ko'rsatkichi (*-dur*).

Vo'smalik qoshingmudur yoki qon to'kub usru,

Zang bog'lamishdurlar ikki tig'i burronlar (TA, 48-bet).

Ibrat asarlarida *edi*, *emish*, *ekan* kabi to'liqsiz fe'llar quyidagi grammatik shakllarda qo'llanib, yetakchi fe'l bilan birga ega va kesimning o'zaro semantik-sintaktik aloqasini ta'minlovchi vazifasini bajargan:

1. *Imom Qutayba bin Muslim kelib, Buxoro tarafda bu mamlakatni butun islomobod qilib, bu shaharlardan ko'b ulamo va fuzalolar chiqmish ekon. Bulardan sohibi "Hidoyai sharif", Marg'inondan moshohir* (TA, 60-bet).

2. *Yerga tushub, ikki sahoba ilan noma kirguzgon emish* (TA, 58-bet).

3. *Xorazm va Naxshab va Kesh odamlaridan madad talab qilgonda, ular miqdori yigirma ming odam jangi tayyorlab berib, Zarafshon, ya'ni Sug'dga kelgonda yo'l yigirma ming odamni hajga jo'natib, o'zi Farg'onaga borgan edi* (TA, 87-bet).

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, *ekan*, *edi* shakllari *ekon*, *edu* shakllarida faol qo'llanilgan. Tadqiqot jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, analitik sintaktik shakl ko'rinishidagi yasovchi vositalar Ibrat asarlari tili grammatikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning qo'llanishi ayrim o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Ana shunday vositalardan biri ko'makchilardir.

Shuningdek, ko'makchilar orasida bir necha shaklga ega birliklar ham uchradi. Jumladan, *bilan* ko'makchisi *ilan*, *birla*, *ila*, *birlan* kabi shakllarda qo'llanilgan holatlar ancha miqdorni tashkil qiladi. Masalan:

1. *Yozda uyda sovuq pech ila shamol,*

Barcha iliktr ila o'tgay hol (TA, 70-bet).

2. *Lekin aksar ibora va lug'atlari tashih va tag'yir bo'lindi. Xususan, rusiya lug'atlarini musulmoniya huruflari ilan yozmoq* (TA, 11-bet).

3. *"Tezlab jo'nating" degan ekan. Darhol oshga buyurub, to'ydurub, yangi ot birla otlanub, Piskatdan jo'nab, To'ytepaga borub, bir do'konda choy ichib, yana otlanib, namozi asrda shitob birlan Sayyid Azimboy hovlisiga keldim. Boy hovlida ekan. Omonlashib: "Xo'sh, nima gap?" dedi* (TA, 130-bet).

Statistik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, keltirilgan 15 misoldan 5 tasi *ilan*, 4 tasi *ila*, 5 tasi *birla*, 2 tasi *birlan* shaklida qo'llangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, ushbu ko'makchi shakllarining qo'llanish chastotasi bir-biriga yaqin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ibrat asarlari tili shoir yashagan davr tilining o'ziga xosliklarini namoyon etadi. Adib asarlari tilida bir grammatik ma'no ifodalovchi bir necha shakllarning parallel ishlatilishi ko'proq kuzatiladi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek tilining leksik-grammatik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishda Ibrat asarlari tili, shubhasiz, qimmatli material vazifasini o'taydi. Adib o'z asarlarida turli darajadagi til birliklarining ma'lum me'yorga asoslangan, takomillashgan namunalarini ishlatadi. Shuning uchun til ifoda vositalarining normativligi, tartib-qoidalari yozma adabiyotlarda, ayniqsa, ilmiy va badiiy asarlarda ko'proq va aniqroq namoyon bo'ladi. Shu sabab turli davrlarga tegishli badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganish o'sha davr til tizimini tushunib olish imkonini beruvchi eng ishonchli manba hisoblanadi. Ibrat asarlari matnida o'zbek tili so'z yasallishining umumiy modellari aks etgan. Biroq affiksatsiya, kompozitsiya usullari orqali so'z yasallishida ayrim farqli jihatlar ham mavjud. Jumladan, so'z yasovchi qo'shimchalarning allomorfi shakllarining yasovchi vosita sifatida qo'llanishida, she'riy uslub talabi bilan inversiyaga uchragan qo'shma so'zlar yasallishida o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Uzual va okkazional yasalmalar Ibrat asarlari tilining morfologik aspekti uchun ham muhim manbalar hisoblanadi. Chunki ularning har biri badiiy matnda morfologik shakl maqomida qo'llangan, ma'no-mazmuniga mos grammatik shakl tavsifida bo'lgan.

Ismlarda egalik va kelishik qo'shimchalari hamda lug'aviy shakl yasovchilarning qo'llanishi, fe'llardagi aloqa-munosabat shakllari, bog'lama yoki kesimlik shakllarining qo'llanishi bo'yicha kuzatishlarimiz adib asarlari matnida bir grammatik ma'no ifodalovchi bir necha shakllarning parallel qo'llanganligini ko'rsatdi. XX asr boshlaridagi davr tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlarni Is'hoqxon Ibrat asarlari tili asosida o'rganish mazkur davr tili haqidagi tasavvur-tushunchalarimizni ayrim yangi ilmiy asoslar, dalillar bilan boyitishga xizmat qiladi.

UMUMIY XULOSALAR

Jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlarining leksik-grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini berdi:

1. Ma'rifatparvarlar jadid adibi Is'hoqxon to'ra Ibratning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ijodiy merosi millatimiz tarixi, madaniyati va milliy adabiyotimiz yuksalishida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, uning tilshunoslik merosi, yaratgan nazmiy, nasriy asarlarining til xususiyatlari XX asr boshlari davr adabiy tilining shakllanishida, zamonaviy o'zbek tilshunosligining taraqqiyotida munosib o'rin tutadi. Xalq, millat kamolotini til bilan bog'lagan boshqa jadidlar qatorida Is'hoqxon Ibrat ham til masalasiga jiddiy munosabatda bo'lib, ijodiy faoliyatida o'zbek tilining sofligini saqlashga, til bilishning jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat taraqqiyotini yuksaltiruvchi vosita sifatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor bilan qaradi.

2. Ibrat asarlari tilida salmoqli o'rin egallagan ijtimoiy-siyosiy leksikani mavzuiy guruhlarda tasniflab tahlil qilishda shu narsa aniq bo'ldiki, ularda o'sha davr ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti, voqeligini aks ettiruvchi so'z va atamalar keng qo'llangan. Mavzuiy guruhlardagi ta'lim-tarbiyaga oid va diniy tushunchalarni, shaxs otlarini, lavozim va mansab, ma'muriy-hududiy bo'linma va binolar, matbuot nashrlari, kasb-kor, turli soha, narsa-buyum, o'lchov nomlarini hamda ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning asosiy qismi lug'aviy tarkibi nuqtayi nazaridan o'z qatlam leksemalari hisoblansa, ayrimlari davr adabiy tilida aks etgan o'zga til elementlaridir.

3. Is'hoqxon Ibrat asarlari leksikasida imkon qadar o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilgan va bu orqali asarlari tilini sodda, xalq didiga yaqin bo'lishiga intilgan. Shu sababli uning nazmiy, nasriy asarlari matnida o'z qatlam, ya'ni genetik jihatdan umumturkiy va o'zbek tiliga oid so'zlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Genetik jihatdan fors-tojikcha, arabcha leksemalarning qo'llanishi adibning arab va fors-tojik tillarini, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyoti tili me'yorlarini yaxshi o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Asarlar matnida qo'llangan

ruscha va rus tili orqali o'zlashgan baynalmilal leksemalarni esa mazkur davr neologizmlari deb baholash mumkin. Keyinchalik ularning aksariyati yangilik bo'yog'ini yo'qotib, o'zbek tilining leksik-grammatik qonuniyatlariga moslashgani holda o'zlashma so'zga aylangan.

4. Asarlar leksik fondida omonim so'zlar faol qo'llanganligi kuzatildi. Bu esa muallifning leksik birliklardan o'z o'rnida foydalana olganligidan, leksemalarning muayyan muloqot maqsadi va nutq sharoiti, vaziyatiga mosini tanlab ishlatish mahoratini ko'rsatadi. Aynan shunday talab vaziyatini to'g'ri anglagan adib o'z asarlarida shakldosh til birliklaridan unumli va samarali foydalanib, nozik so'z o'yinlarini yaratish, so'zlarning ohangdoshligini oshirish va she'riy asarlarida qofiyani tugal voqelantirishga erisha olgan.

5. Leksik-semantik munosabatlar voqelanishida sinonim va antonimlar alohida o'rin egallab, til boyligidagi tizimli munosabatlarning muhim jihatini o'zida aks ettiradi. Sinonimik munosabatlar semantik o'xshashlik asosida voqelansa, antonimik munosabatlar qutbiy semantik farq asosida voqelanishi bilan xarakterlanadi. Ibrat asarlarida qo'llangan sinonimlar ta'sirchanlikka, takrorning oldini olishga qaratilgan, antonimlar esa voqelikni zidlab, qiyoslab ifodalashga keng imkon bergan.

6. Ibrat asarlarida o'zbek tili so'z yasallishining umumiy modellari voqelangan: ijodkor asarlari tilida o'zbek tilining mahsuldor so'z yasallish modellari asosida yasalgan o'zbekcha so'zlar asosiy o'rinni egallaydi. *Kelinlik, faqirlik, hukmronlig', rizolig', judolig', xursandlik, ulfatchilik* kabi so'zlar o'zbek tili so'z yasallish modeliga to'la mos keladi. Kompozitsiya usulida yasalgan *xo'b bo'lmoq, kamon o'lmoq, tavon qilmoq, xalq etmoq, ma'lum o'lmoq* kabi so'zlar o'zbek tili so'z yasallish qolipiga mos tushsa, *ayladi gum, qilduk gunoh, qildi kar-kar* kabi qo'shma so'zlar yasallishi va qo'llanishida she'riy uslub talabi bilan ayrim farqlar ko'zga tashlanadi.

7. *-xona, -garchilik, -dosh, -chi* kabi ot yasovchilar; *be-, ba-, no-, -vor* kabi sifat yasovchilar uzual ma'noli yasama so'zlar yasallishida; *-iy, -viy, -obod, -iya, -iyat* kabi so'z yasovchilar esa muallif uslubiga xos okkazionalizmlarning yasallishida vosita bo'lib xizmat qilgan. Asarlar matnidagi *insoniy (vagon), ozodiy, obodiy,*

bekora, dilogoh, islomobod, chandovul, musulmoniya, gubirnalik, mang'itiya, sardiya, o'zbakiya, qipchoqiya, qirg'iziya kabi okkazional yasalmalarning barchasi muallif tilining morfologik aspekti uchun muhim birlik, shakllar sanaladi.

8. Ibrat asarlarida tushum kelishigining qisqargan shaklda, jo'nalish kelishigining me'yoriy *-ga, -ka* affikslaridan tashqari *-g'a, -a, -na* shakllarida keng qo'llanishi aniqlandi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining *-a* shaklida qo'llanishida ko'pincha *[a], [ona]* kabi bo'g'inlar bilan tugagan so'zlar bilan qo'fiyadoshlikni ta'minlash maqsad qilingan. Chiqish kelishigi an'anaviy she'riyatdagi kabi *-din* shaklida, egalik shaklining III shaxs birlik qo'shimchasi *-in* shaklida ishlatilgan.

9. Adib asarlari tilida sifatdoshning *-duk, -gon*, ravishdoshning *-ub, -goni*, o'tgan zamon shaklining *-ti, -dur*, hozirgi zamon shaklining *-yur*, hozirgi-kelasi zamonning *-ur*, kelasi zamonning *-yir, -g'ay*, harakat nomining *-ur*, ortirma nisbatning *-dur* shakllari kuzatildi. *Edi, emish, ekan* kabi to'liqsiz fe'llar *ekon, edu* shakllarida, *bilan* ko'makchisi *ilan, birla, ila* shakllarida qo'llangan.

10. Til hodisalarini ilmiy, amaliy jihatdan muayyan metodologik asoslarda tekshirish, tahlil qilish, xolis baholash hamda adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari faktlari bilan qiyoslab o'rganish natijalari jonli xalq tili elementlarining o'tmishdagi tarixiy holati va xususiyatlarini aniqlashda muhim asos vazifasini o'taydi. s'hoqxon to'ra Ibrat asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari uning yorqin isbotidir. Adib asarlari tili bo'yicha lingvistik yo'nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar o'zbek milliy tili tarixi, taraqqiyotining XX asr boshlaridagi rivojlanish bosqichi haqida muhim nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 484 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори // “Маърифат” газетаси. – Тошкент, 2019 йил 5 октябрь. – №77.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлгимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили макоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги пүтқ) // “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сонли “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 22 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табрик сўзи. – Тошкент, 2023 йил 6 март // <https://president.uz/uz/lists/view/6007>

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1) Milliy nashrlar:

9. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 320 б.

10. Абдуллаева М. Исҳоқхон Иброт – серқирра ижод соҳиби. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 52 б.

11. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-лугатайн. (Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев). – Тошкент: Ўқитувчи, 1940. – 54 б.

12. Алимова Д. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш. – Тошкент: Университет, 1999. – 216 б.

13. Афоқова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.

14. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2012. – 97 б.

15. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – 152 б.

16. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 158 б.

17. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик атлавлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.

18. Воҳидова К. Исҳоқхон Жунайдуллоххўжа ўғли Иброт ва унинг тарихий-илмий мероси. – Тошкент: Фан, 2008. – 125 б.

19. Гулямова Ш. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари. – Фаргона, 2022. – 281 б.

20. Дадабоев Х. Обществено-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.

21. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – 197 б.

22. Долимов У. Туркистонда жадид мактавлари. – Тошкент: Фан, 2006. – 138 б.

23. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Тошкент: Noshir, 2012. – 257 б.

24. Долимов У. Исҳоқхон Ибрat. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 144 б.
25. Жабборов Н. Маърифат надир. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 142 б.
26. Жалолов А. Ўзганбоев Г. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг таракқиётида вақтли матбуотнинг ўрни. – Тошкент: Фан, 1993. – 128 б.
27. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2005. – 286 б.
28. Исҳоқхон Ибрat. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. – 132 б.
29. Исҳоқхон тўра ибн Жунайдуллоҳ хўжа. Мезон уз-замон. – Тошкент – Токио, 2001. – 28 б.
30. Исҳоқхон Ибрat. Ислоҳи миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022. – 34 б.
31. Исҳоқхон Ибрat. Жомеъ ул-хутут. – Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912. – 132 б.
32. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 123 б.
33. Йўлдошев И., Умматов Р. Ибрat изларидан. – Наманган: Наманган, 2014. – 40 б.
34. Каримов Н. Истиклолни уйғотган шоир. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 87 б.
35. Каримов Б. Янгиланиш соғинчи. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. – 79 б.
36. Маҳмуд Л. Исҳоқхон Ибрat яратган боғ. – Наманган: Наманган, 2018. – 256 б.
37. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 269 б.
38. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи: Университет ва педагогика институти талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.
39. Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси таракқиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 88 б.
40. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.

41. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 320 b.
42. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 164 б.
43. Самадов Ю. Мавлоно Ибрат ворислари. – Наманган, 1999. – 40 б.
44. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – 336 b.
45. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. Педагогика институти филология факультети студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 176 б.
46. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1960. – 320 б.
47. Фозилов Э., Зияева М. Изысканный дар тюркскому языку (Туркий тил ҳақида ноёб тухфа). – Тошкент: Фан, 1978. – 154 б.
48. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1964. – 144 б.
49. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Ўҳафзо, 1998. – 176 б.
50. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974. – 116 б.
51. Ўзбек тили лексикологияси. Масъул муҳаррирлар: А.Ҳожиёв, А.Аҳмедов. – Тошкент, 1981. – 315 б.
52. Ўзбек тили практикуми. I-қисм. // Масъул муҳаррир: Сапаев Қ. – Тошкент, 2005. – 96 б.
53. Ўринбоев Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Самарканд: СамДУ, 2006. – 164 б.
54. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент: СамДУ, 1974. – 168 б.
55. Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: ЎзР ФА Қўлғезмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. – 420 б.
56. Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 112 б.

57. Қосимов Б. Жадидчилик – миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. – Тошкент: 1993. – Б. 21-22.

58. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 109 б.

2) Xorijiy nashrlar:

59. Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. – Istanbul: Songag akademi matbaasi, 2011. – 194 с.

60. Абдурашидов З. XX аср бошларида Туркистон: ижтимоий-сиёсий ва интеллектуал жараёнлар. – Istanbul: Songag akademi matbaasi, 2019. – 442 б.

61. Adeeb Khalid. The politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Tsarist Central Asia (Ph.D. diss. University of Wisconsin-Madison) 1993.

62. Baldauf Ingeborg. Some Thoughts on the Uzbek Nation // Cahiers du Monde russe et sovietque. – Berlin 1991. Vol. 32. – № 1.

63. Виноградов В. О языка художественной прозы. – Москва: Наука, 1980. – 226 с.

64. Винокур Г. О языке художественной литературы. – Москва, 1991. – 445 с.

65. Гореликова М., Магомедова Д. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва: Русский язык, 1989. – 151 с.

66. Магомедова Д. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва: Русский язык, 1989. – 182 с.

67. Новиков Л. Художественный текст и его анализ. – Москва: Русский язык, 1988. – 211 с.

68. Реформатский А. Введение в языковедение. Изд. 4-ое, испр. – Москва: Просвещение, 1967.

III. Qo'lyozma va toshbosma manbalar:

69. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фаргона. Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди, инв. № 11080.

70. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи маданият. ЎзР ФА ШИ. Қўлёзма. Инв. № 10117.

IV. Badiiy adabiyotlar:

71. Исҳоқхон Ибрat. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов., Н.Жабборов. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 200 б.

72. Исҳоқхон Ибрat. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: У.Долимов., Н.Жабборов. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 200 б.

73. Ибрat. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 230 б.

V. Lugʻatlar:

74. Алишер Навоий асарларининг изоҳли лугати. 4 жилдлик. 3-жилд. / Э.Фозилов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.

75. Исҳоқхон Ибрat. Лугати ситта ал-сина. – Тошкент: Илин типографияси, 1901. – 53 б.

76. Исомиддинов Ф., Дўсматов Н., Жума Ж. Ўзбек тилининг форс-тожикча ўзлашмалар лугати. – Фаргона, 2022. – 147 б.

77. Раҳматуллаев Ш. ва б. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент, 1989. – 232 б.

78. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент, 1984. – 215 б.

79. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. V жилдли. I-V жилдлар. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Давлат илмий нашриёти, 2020.

80. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. – 164 б.

81. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б.

VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

82. Абдуллаев Ф. Арабизми в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1946. – 24 с.

83. Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик катламлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 28 б.

84. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.

85. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 48 б.

86. Ашурова Х. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (XX асрнинг биринчи чораги): Фалсафа фан. номз. (PhD) дисс. ... – Самарқанд, 2020. – 51 б.

87. Бафосев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 26 с.

88. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Ўлбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 25 б.

89. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004 – 26 б.

90. Болтабоева О. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгилиниши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 145 б.

91. Воҳидова К. Исоҳқон Жунайдуллоххўжа ўгли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 186 б.

92. Долимов У. Жизнь и творчество узбекского поэта просветителя Ибрата: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 25 с.

93. Исакова З. Алишер Навоийнинг “Мажолисун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 128 б.

94. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.

95. Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 25 с.

96. Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 25 с.

97. Masharipov M. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining leksik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Guliston, 2023. – 138 б.

98. Мирзаев И. Проблем лингвопоэтической и интерперетации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 45 с.

99. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.

100. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 26 б.

101. Нишонова Г. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойна” журналининг ўрни ва аҳамияти: Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2008. -158 б.

102. Номозова Н. Ҳожи Муиннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 22 б.

103. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 25 б.

104. Нормаматов С. Ўзбек лугатчилигининг шаклланиши ва ивожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. номз. (DSc). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 68 б.

105. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.

106. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 250 б.

107. Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишер Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 26 с.

108. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чуқур боғловчи гапларнинг синтактик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 26 б.

109. Раҳматова Д. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг лингвистик таълимоти, асарларининг тил ва услуб хусусиятлари: Филол.

фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2022. – 44 б.

110. Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1969. – 54 с.

111. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: 2001. – 23 б.

112. Сайидов Ё. Жадид бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. – Тошкент, 2018. – 274 б.

113. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б.

114. Тогаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 26 б.

115. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

116. Тўрахожаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг таракқиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 136 б.

117. Уразбоев А. Огаҳийнинг “Риёзуд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 125 б.

118. Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2001. – 25 б.

119. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б.

120. Шарипова К.А. Словообразующие аффиксы -лик, -ли, -чилик в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 24 с.

121. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 27 с.

122. Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитгучи” журнали материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 48 б.

123. Ярыев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 23 с.

124. Кўчкортюев И. Абдулла Қаххорнинг фразеологик новаторлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1975. – 26 б.

125. Қодирова М. Иброҳим Даврон ва унинг адабий мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 25 б.

126. Қодиров Қ. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.

127. Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 19 б.

128. Ганиев И. Фитрат драмаларининг поэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 42 б.

129. Ҳалимова С. “Садои Туркистон” газетаси: йўналиши, тил, услуб ва жанр хусусиятлари (1914-1915 йиллар): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 19 б.

VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar:

130. Амонов М. Туркий тиллардаги арабча ўзлашмалар хусусида // <https://zenodo.org/record/6528471>

131. Бегматов Э., Неъматов Ҳ., Расулов Р. Лексик макросистема ва унинг тадқиқ методикаси (Систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989, №6. – Б. 35-40.

132. Вамбери Ҳ. Маърифат йўлидаги уйғониш. // Тафаккур – Тошкент: 1999. – №2.

133. Дадабоев Ҳ. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати // Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция тезислари. – Тошкент, 1991. – Б. 68-69.

134. Дадабоев Н. Огахий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2009. -№3. – Б. 21-24.

135. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш / Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар. Даврий тўплам. – Тошкент: Университет, 1998. – 168 б.

136. Жалолов А. Жадид адабиёти ва тил // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1999. – № 5. – Б. 42-45.

137. Исоқбоев А. Туркистонда миллий матбуот ва таълимни ривожлантиришда татар маърифатпарварлари // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: 2003. – Б. 43-48.

138. Мадвалиев А. Исҳоқхон Ибротнинг олти тилли лугати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. -№ 4. – Б. 53-56.

139. Маҳмудов Н. Абдулла Қаххор хикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. – № 4.

140. Назаров П. Ўзбек тилига ўзлашган сўзлар хусусида // Хорижий филология. № 4. 2019. – Б. 54-58.

141. Ражабов Қ. Жадидчилик ва истиклол (давра суҳбати) // Жамият ва бошқарув. – Тошкент: 1999. – № 3-4. – Б. 41-49.

142. Турсунов Р. Жадидларнинг Туркистон ижтимоий-иқтисодий ҳолатига қарашлари // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2004. – №3.

143. Турсунов Р. XX аср бошидаги миллий матбуотда Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий ҳаёт масалалари // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 2007. – №1.

144. Туркистон вилоятининг газети. – Туркистон, 1905. -№12.

145. Туркистон вилоятининг газети. – Туркистон, 1906. -№15.

146. Туркистон вилоятининг газети. – Туркистон, 1913. -№31.

147. Умурқулов Б. Поэтик адабиёт ва унинг шеърий нутқдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. -№6. – Б.39.

VIII. Internet saytlari:

- 148. <https://elib.buxdu.uz>
- 149. <https://arxiv.uz/uz/documents>
- 150. www.vikilugat.uz
- 151. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/jadidchilik-uz/>
- 152. <https://adabiyot.islamonlin.uz/uzbek/uygonish/>
- 153. <https://uza.uz/uz/posts>
- 154. https://ziyouz.uz/ilm_va_fan/tarix/manaviyat_Yulduzlari/

Murotali Latipov

IS'HOQXON IBRAT ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2. Shartli bosma taboq 7,8.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.mc/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10